

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI MUQIMIY NOMIDAGI QO'QON DAVLAT  
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Qo'lyozma huquqida

**Saydahmedova (Madaminova) Navro'zaxon Bahodirjon qizi**

**O'ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ONA TILI TA'LIMIIDA LISONIY  
BIRLIKlar TAVSIFI VA TASNIFI**

**5A111201 – “O'zbek tili va adabiyoti” mutaxassisligi bo'yicha magistrlik  
darajasini olish uchun taqdim etilgan**

# Dissertatsiya

**Ilmiy rahbar:**

**filologiya fanlari nomzodi, dotsent  
Madrahimov Ilhomjon Sobirovich**

**Qo'qon – 2019**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI MUQIMIY NOMIDAGI QO'QON DAVLAT  
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**Saydahmedova (Madaminova) Navro'zaxon Bahodirjon qizi**

**O'ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ONA TILI TA'LIMIIDA LISONIY  
BIRLIKlar TAVSIFI VA TASNIFI**

**5A 111201 – “O'zbek tili va adabiyoti” mutaxassisligi bo'yicha magistrlik  
darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya**

**Ilmiy rahbar:**

**filologiya fanlari nomzodi, dotsent  
Madrahimov Ilhomjon Sobirovich**

**Qo'qon – 2019**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH (ISHNING UMUMIY) TAVSIFI.....</b>	<b>4-7</b>
<b>I БОБ. ТИЛ, ЛИСОН ВА МЕ'ЙОР МУНОСАБАТИ. ТИЛ САТЛари ВА НУТQ БИRLIKLARI.....</b>	<b>8-49</b>
1.1. Ilmiy bilish va uning bosqichlari.....	8-14
1.2. Til, lison, me'yor va nutq munosabati.....	15-20
1.3. Lisoniy va nutqiy birliklar.....	20-26
<b>II BOB. TIL VA NUTQ.....</b>	<b>27-49</b>
2.1. Til va nutqning farqli belgilari.....	27-29
2.2. Til – geterogen sistema.....	29-39
2.3. Lisoniy paradigma, munosabat, ziddiyatlar va ularning turlari.....	39-49
<b>III BOB. TIL TA'LIMIDA TASNIF VA TIL BIRLIKlARI TAVSIFI...50-79</b>	
3.1. Lisoniy tasnif va uning turlari.....	50-59
3.2. Til birliklarining tavsifi.....	59-79
<b>XULOSA.....</b>	<b>80-84</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>85-88</b>

## K I R I SH

### (ishning umumiy tavsifi)

**Mavzuning dolzarbliji.** Ilmiy bilish – ilmiy tadqiqot yo‘li bilan izlanish natijasida borliq haqida yangi bilim hosil qilish. Tabiat va jamiyatdagi murakkab, xilma-xil va rang-barang hodisalar mohiyatini, rivojlanish qonunlarini ilmiy bilishning aniq usullari mavjud bo‘lib, ular ilmiy tadqiqot va izlanishlarning yo‘nalishini ifodalaydi.

Nazariy bilish empirik, ya’ni fahmiy bilishsiz amalga oshmaydi. Amaliy bilish jarayonida to‘plangan faktik material nazariy bilish jarayonida aqliy tafakkur yo‘li bilan umumlashtirilib, ularning mohiyati ochiladi.

O‘zbek tilshunosligi o‘zining (XX asrning 20-yillaridan 90-yillarigacha) amaliy bosqichni bosib o‘tdi. Bu davrda amalga oshirilgan ishlar quyidagilardan iborat edi:

- 1) tilning bo‘limlari aniqlandi;
- 2) har bir bo‘limga doir birliklar chegaralandi;
- 3) birliklarning zohiriylar alomatlari yoritildi.

Til hodisalarini zamonaviy usullar yordamida o‘rganish ularga tizimi yondashish deyiladi. Nazariy tilshunoslik har qanday birlikning mohiyati uning munosabatini chuqur tahlil qilish bilan ochiladi, degan g‘oyaga tayanib ish ko‘radi.

UMIS va AHVO munosabati dialektikaning (ya’ni butun borliq – tabiat, jamiyat va inson tafakkurining asosiy yashash) qonuniyatidan biri bo‘lganligi sababli, u har bir fanda o‘ziga xos tarzda xususiy lashadi. UMISning tildagi tajallisi *lison*, AHVOniki esa *nutq* deb yuritiladi. Lison va nutqning majmui *til* deyiladi.

Tilshunoslikda lisoniy va nutqiy jihatni farqlashga intilish ushbu fan bilan tengdosh. Chunki har qanday fan cheksiz hodisalarini umumlashtirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Xususiy hodisalar zamiridagi umumiylilikni ko‘rishga intilish bilishning har ikkala bosqichi (fahmiy va idrokiy)da ham mavjud. Shu boisdan aytish mumkinki, bilishning fahmiy bosqichi mutlaq xususiylik bilan o‘ralashib

qolmaganligi kabi, idrokiy bosqich ham mutlaq umumiyligini – UMISni tiklay olmaydi. Biroq har bosqich o‘z vazifasiga ega. Chunki har bir davr o‘z fani oldiga muayyan maqsad va aniq talablarni qo‘yadi. «Fanlarning taraqqiyoti shu davrning ilg‘or falsafiy fikri, davr uchun yetakchi bo‘lgan fan sohalarining yutuqlari bilan uzviy bog‘liq. Turli fanlarning manbalari ko‘p qirrali bo‘lganligi sababli, davrning yetakchi falsafiy fikri aniq fanlardan o‘rganish manbaining qaysi tomonlariga alohida e’tibor berish lozimligini, borliqdagi mavjud qonuniyatlarni mantiqiy kategoriyalarda qay usulda aks ettirish yo‘llarini belgilab beradi» (H.Ne’matov). Shu asosda aytish mumkinki, zamonaviy o‘zbek tilshunosligining birinchi bosqichi, dialektika nuqtayi nazaridan, tildagi UMIS va AHVO ni bir-biridan farqlamay tasnif etish bosqichi.

Tilshunoslikda lison va nutqni izchil farqlab o‘rganish avvalo, tilshunoslardan V.fon Humboldt, B.de Kurtene va F.de Sossyur nomi bilan bog‘liq. Lison va nutqning farqlanishi, tilga tizim sifatida yondashuv XX asr jahon tilshunosligida tub burlish sifatida baholanadi. Chunki u mavjud qarashlarni tubdan o‘zgartirib yubordi.

Ushbu magistrlik dissertatsiyasi tilshunoslikda ko‘p bahslar manbai bo‘lgan, biroq hanuz mohiyati yetarli darajada yoritilmay qolayotgan hodisa – lisoniy birliklar tavsifiga bag’ishlangan.

Mavzu dolzarbligini oshiruvchi omillardan yana biri shundaki, mazkur tadqiqot ishi zamonaviy o‘zbek tilshunosligi yo‘nalishida amalga oshirilgandir.

### **Tadqiqot manbaini o‘zbek tili lisoniy birliklari tashkil etadi.**

Ishda tahlil etish uchun “O‘zbek tilining izohli lug’ati” (5 tomli, -T., 2006-2008), “O‘zbek tili morfem lug’ati” (-T., 1982), Alisher Navoiyning “Lisonut-tayr” dostoni hamda vaqtli matbuot nashrlari materiallaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning metodologik asoslari va tahlil usullari.** Tilshunoslikda til va nutq hodisalarini farqlab o‘rganuvchi sistemaviy tadqiq yo‘nalishi bilan aynandir. Shuning uchun ishning metodologik asosini dialektika tushunchalarining tilga izchil va ongli tadbig’I tashkil qiladi.

Tahlil usul esa dialektikaning har bir narsaning serqirra butunlik va bu butunlik har bir qirrasining nisbiy mustqilligi haqidagi ta'limotiga tayanadi.

**Tadqiqotning maqsad va vazifalari** ishda qo'yilgan muammo bilan uzbek bo'lib, quyidagi vazifalar yechimi haqidagi ilmiy fikr-mulohazalarni asoslashdan iboratdir:

- 1) til ilmida lisoniy birliklarning tutgan o'rni, mavqeiga baho berish;
- 2) falsafiy zot va sifat (substansiya va atribut) talqini asosida lisoniy birliklarga yondashish;
- 3) alohida zotlar sifatida qaraladigan lisoniy birliklarning mohiyatan serqirra hodisa ekanligini lingvistik dalillar asosida ko'rsatib berish;
- 4) umumta'lim va oliy maktab til o'qitish uslubiyatida qo'llash uchun lisoniy birliklarning tahlil usuli namunalarini ishlab chiqish.

**Ishning ilmiy yangiligi** tadqiqot oldiga qo'yilgan vazifalar, tadqiqot mavzusi va uning tadqiq usullari bilan belgilanadi. Dissertatsiyada jahon va o'zbek tilshunosligining so'nggi yutuqlari zaminida lisoniy birliklar muammosiga doir faktlar tahlil etiladi. Til tizimida yaxlit va umumiyligini butunlik sifatida mavjud bo'lgan lingvistik hodisalarining ilmiy talqini beriladi.

**Ishning ilmiy va amaliy qimmati** uning ilmiy yangiligi bilan uzbek bog'liqdir. Zeroki, o'zbek tilshunosligida lingvistik birliklarning til sathidagi o'rni to'la-to'kis belgilanmagan va shu yo'nalishda tahlilga jalgan etilmagan edi.

Ishning xulosalari o'zbek sistemaviy tilshunosligi rivojini o'rganishga, o'zbek tilining yangi grammatikalarini yaratishga tadbiq etilishi mumkin.

Ishning amaliy qimmati esa o'zbek tili fanida so'zning tutgan o'rni va ularning mohiyatini to'la anglab yetish bilan belgilanadi.

**Ishning tatbiqi va sinalishi.** Tadqiqot Muqimiy nomidagi Qo'qon davlat pedagogika instituti Ilmiy Kengashi, filologiya fakulteti uslubiy kengashi hamda o'zbek tilshunosligi kafedrasi yig'ilishlarida muhokama etilib, ma'qullangan.

Dissertatsyaning alohida xulosalari asosida "Ta'lim va texnologiya. Ilmiy-uslubiy maqolalar to'plami, 2-qism (17). –Toshkent, 2012."da "Lisoniy tasnif va

uning turlari”, “Falsafiy UMIS va AHVOning lisoniy tizimda voqelanishi” nomli maqolalari chop etilgan.

Dissertatsiya mundarijasi ishning umumiyl tavsifi, uch asosiy bob, xulosa va foydalaniman adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

## **I BOB. TIL, LISON, ME'YOR VA NUTQ MUNOSABATI. TIL SATHLARI VA BIRLIKHLARI**

### **1.1. Ilmiy bilish va uning bosqichlari**

Ilmiy bilish – ilmiy tadqiqot yo‘li bilan izlanish natijasida borliq haqida yangi bilim hosil qilish. Tabiat va jamiyatdagi murakkab, xilma-xil va rang-barang hodisalar mohiyatini, rivojlanish qonunlarini ilmiy bilishning aniq usullari mavjud bo‘lib, ilmiy tadqiqot va izlanishlarning yo‘nalishini ifodalaydi. Falsafa va fanda ilmiy bilishning ikki bosqichi farqlanadi:

- a) fahmiy (empirik, amaliy) bilish;
- b) nazariy (idrokiy, mantiqiy) bilish.

Birinchi bosqichda o‘rganilayotgan manba, uning bo‘limlari va tarkibiy qismlari, belgi-xususiyatini aniqlash, saralash, izchillashtirish va tasvirlash ishlari amalga oshiriladi. Bunda asosiy e’tibor o‘rganish manbaining tashqi, zohiriylar xossalari aniqlashga qaratiladi. Aslida bu hali tom ma’nodagi tahlil emas, lekin ilmiy o‘rganishning zaruriy, tarkibiy qismi, bosqichi. Buni Alisher Navoiy «Lisonut tayr» dostonidagi «Ko‘rlar va fil hikoyati»da ko‘rlarning fil haqida tasavvur hosil qilishi misolida tasvirlaydi.

Nazariy bilish empirik, ya’ni fahmiy bilishsiz amalga oshmaydi. Amaliy bilish jarayonida to‘plangan faktik material nazariy bilish jarayonida aqliy tafakkur yo‘li bilan umumlashtirilib, ularning mohiyati ochiladi. Bu bosqichda Navoiyning mazkur asarida orifning fil haqida nazariy bilim hosil qilishi misolida bayon etiladi.

Manbani o‘rganishning har ikki bosqichi ham birday muhim bo‘lib, ikkinchisini birinchisisiz, birinchisini ikkinchisisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ularni bir-biridan uzish, qarama-qarshi qo‘yish, bilishning ikki qutbi sifatida munosabatda bo‘lish mumkin emas. Bilishning ikki zaruriy bosqichi ham o‘z-o‘zicha cheklanganlik xususiyatiga ega. Masalan, Navoiy fahmiy bilish haqida:

*Qosir etti fahmdin idrokni*

deya uning cheklanganligiga ishora qilsa, nemis shoiri Gyote:

*Nazariya quruq yog‘ochdir*

deb nazariy bilishning hodisalardan uzilganligini uqtiradi.

Xo‘sh, bilishning ikki zaruriy bosqichi nuqtayi nazaridan o‘zbek tilshunosligi taraqqiyotini qanday baholash mumkin?

O‘zbek tilshunosligi o‘zining (XX asrning 20-yillaridan 90-yillarigacha) amaliy bosqichni bosib o‘tdi. Bu davrda amalga oshirilgan ishlar quyidagilardan iborat edi:

- 1) tilning bo‘limlari aniqlandi;
- 2) har bir bo‘limga doir birliklar chegaralandi;

3) birliklarning zohiriylar alomatlari yoritildi. Masalan, fonetika sohasida hozirgi o‘zbek tilida 6 ta unli, 24 ta undosh borligi aniqlanib, ularning bevosita sezgi a’zolariga ta’sir qiluvchi xossalari o‘rganildi. Unlilardagi lablanganlik-lablanmaganlik, til orqa, til o‘rta, til oldi, yuqori torlik, quyi va o‘rta kenglik belgilari shular jumlasidandir. Biroq har bir unlining mohiyati –substantsiyasiga bu zohiriylar qay darajada daxldor degan muammo nazariy o‘rganish jarayonida fonemalarning variant-invariantlik muammosi ostida tadqiq qilindi. Har bir unlining (undoshlarning ham) mohiyati nazariy usullarda ochib berildi. Shunday holatni morfologiyada ham kuzatish mumkin. Bunda so‘z turkumlari, har bir turkumga xos grammatik shakllar aniqlandi. Grammatik shaklning zohiriylar belgilari – nutqiy xususiyati tadqiq qilindi. Masalan, har bir kelishikning 20 dan 50–60 tagacha ma’nosi ajratilib, tavsiflandi. Bu ma’nolarni yanada ko‘paytirish mumkin edi. Zero hodisalar cheksiz bo‘lib, ular qanchalik ko‘paysa, manba mohiyatini shuncha qorong‘ilashtiradi, to‘sib qo‘yadi. Quyidagi misollarga diqqat qiling:

*Gulnoraning kitobi*

*Gulnoraning opasi*

*Gulnoraning uyi*

*Gulnoraning yig‘isi.*

Bunda empirik yondashuv qaratqich kelishigining «qarashlilik», «mansublik», «egalik», «subyekt-harakat» kabi to‘rtta ma’nosini farqlashni taqozo qiladi (qatorni yana davom ettirish va ma’nolar sonini ko‘paytirish mumkin). Bu – zohiriy ma’no, nutqiy hodisa. Empirik tilshunosdan mohiyatga tomon bundan chuqurroq borish talab qilinmaydi. Nazariyotchi kelishikning har bir qo‘llanishidagi farqdan «ko‘z yumib», umumi jihatni qidiradi. Farqlarning (kitob), (opa), (uy), (yig‘i) va boshqa so‘zlar ta’sirida ekanligini nazariy yo‘l bilan aniqlaydi hamda shu asosda qaratqich kelishigining mohiyatini ochadi.

Nazariy o‘rganish jarayonida til hodisalarida zohiriy (nutqiy) va botiniy (lisoniy) jihat farqlanadi. Har bir birlik yondoshlari bilan o‘zaro munosabatda o‘rganiladi, ularga tizimiylar yondashiladi. Masalan, yuqoridagi misolning birinchisida (*Gulnoraning kitobi*) qaratqich kelishigining «qarashlilik», ikkinchisida (*Gulnoraning opasi*) «mansublik» nutqiy (xususiy) ma’nolari voqelangan. Biroq qaratqich kelishigi shaklining barcha qo‘llanishi uchun umumi jihat – «oldingi ismni keyingi ismga tobelah» ma’nosи bevosa kuzatishda berilmagan va lisoniy ahamiyatga ega. Bu umumiylig yuqoridagi misollarda «*Gulnora* so‘zining *opa* so‘ziga qaratuvchilik munosabatini ifodalash», ikkinchisi «*Gulnora* so‘zining *kitob* so‘ziga qaratuvchilik munosabatini ifodalash» tarzida bevosa kuzatishga chiqqan, sezgi a’zosi bilan his qilinadigan qiymat kasb etib xususiylashgan. Empirik tilshunos har bir birlikni alohida-alohida tekshiradi. Masalan, *a* unlisini boshqa unlisiz, biror zamон yoki kelishik shaklini boshqasidan ajratib, uzib o‘rganadi. Nazariy o‘rganish bosqichida esa ular o‘z tizimdoshi bilan yaxlitlikda tahlil etiladi. Har bir birlikning, deylik, unlining, boshqa tizimdoshi bilan o‘zaro munosabatida namoyon bo‘ladigan belgisi nazariyotchi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Til hodisalarini bu tarzda o‘rganish tizimiylar yondashish deyiladi. Nazariy tilshunoslik har qanday birlikning mohiyati uning munosabatini chuqur tahlil qilish bilan ochiladi, degan g‘oyaga tayanib ish ko‘radi.

**Falsafiy UMIS va AHVOning lisoniy tizimda voqelanishi.** Dialektika har qanday o‘rganish manbaida, borliqdagi har bir narsada ikki jihat borligini ta’kidlaydi va uni quyidagi ikki tomonli kategoriyalar asosida sistemalashtiradi:

Umumiylilik – alohidalik;

Mohiyat – hodisa;

Imkoniyat – voqelik;

Sabab – oqibat.

Birinchi jihat (uni tegishli kategoriyalarning bosh harflari asosida qisqacha UMIS deb ataymiz) narsalarning bevosa kuzatishda berilmagan substansiyasi bo‘lib, aqliy, idrokiy usul bilan anglanadi.

Ikkinci jihat esa (AHVO – alohidalik, hodisa, voqelik, oqibat) UMISning voqelanishi bo‘lib, uni tadqiqotchi, o‘rganuvchi kishi sezgi a’zolari yordamida his qila oladi.

Har bir narsada UMIS turlari (umumiylilik, mohiyat, imkoniyat, sabab) yaxlit holda mavjud bo‘ladi va AHVO turlari birqalikda (alohidalik, hodisa, voqelik, oqibat) yaxlit holda voqelanadi. Masala mohiyatini yaqqolroq tasavvur qilish uchun hammaga tushunarli bo‘lgan hayotiy bir dalilga murojaat qilamiz.

Hovlida beshta har xil o‘rik daraxti bo‘lib, ular bevosa kuzatishda berilgan, sezgi a’zolari yordamida ularni his qila olamiz. Lekin ongimizda yaxlit o‘rik tushunchasi mavjud. U bevosa kuzatishda berilmagan bo‘lib, aqliy yo‘l bilan tiklangan. Falsafada ana shu «umuman o‘rik»ka nisbatan UMIS, muayyan, ko‘z oldimizda turgan o‘rikka nisbatan AHVO atamasini qo‘llash mumkin. Bevosita kuzatishda berilmagan UMIS va sezgilar yordamida his qilish mumkin bo‘lgan AHVOning biri ikkinchisisiz bo‘lmaydi. Masalan, «umuman o‘rik» tushunchasi xususiy, yakka, alohida o‘riklar haqidagi tasavvurlardan tiklansa, yakka o‘rik «umuman o‘rik»ning voqelanishi, muayyanlashuvi. UMIS va AHVO ni farqli belgilari asosida quyidagicha tasavvur qilish mumkin:

UMIS	AHVO
Moddiylikdan xoli	Moddiylikka ega
Takrorlanuvchan	Betakror
Cheklangan	Cheksiz

va h.

Buni quyidagicha sharhlash mumkin:

1. «Umuman o‘rik» UMIS sifatida ong orqali idrok etiladi. U o‘zida yakka, alohida o‘riklarning barcha umumiy belgilarini mujassamlashtirib, farqli jihatini chetda qoldiradi. Masalan, bir o‘rik daraxti erta, ikkinchisi esa kech pishadi, uchinchisi achchiq danakli, to‘rtinchisi esa kam hosillidir. Bu farqli jihatlar «o‘rik» UMISida aks etmaydi. Ular AHVOlarda namoyon bo‘ladi. AHVO moddiy tarzda bo‘lib, sezgi uzvlariga ta’sir qiladi.

2. «Umuman o‘rik» UMISi har bir o‘rik AHVOsida takrorlanadi. Borliqda qancha AHVO bo‘lsa ham, har birida UMIS o‘zining bir qirrasini namoyon qilaveradi. Lekin AHVO sifatidagi muayyan o‘riklar takrorlanmaydi. Kesilgan bir o‘rikni qayta ekishning iloji yo‘q. Ammo qancha o‘rik kesilgani-yu ekilgani bilan *umuman o‘rik* UMISi o‘zgarmasdan turaveradi. UMIS barqaror, AHVO o‘tkinchidir.

3. UMIS sifatida «umuman o‘rik» bitta. Ammo o‘rik AHVOlari cheksiz. Shu kungacha mavjud bo‘lgan va kelajakda ekib, o‘stiriladigan o‘riklar sonini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ammo UMIS bittaligicha turaveradi.

UMIS va AHVO munosabati falsafada substansiya va aksidensiya, tasavvufda *zot* va *tajalli* sifatida qaraladi.

Xo‘sish, falsafiy UMIS va AHVO til hodisalariga nisbatan qanday tatbiq etiladi?

*Qalin, qora, katta so‘zlaridagi a tovushlarini talaffuz qilaylik.* Sezgilarimiz 6 ta a unli tovushni his qiladi. Bundagi birorta a tovushini qayta talaffuz qilib

bo‘lmaydi. Qayta aytilgani esa endi yettinchi *a* tovushi bo‘ladi. Talaffuz qilingan *a* tovushini (boshqa tovushlarni ham) qayta talaffuz qilish mumkin emas va har bir qayta aytilgan tovush yangi ekan, demak, nutqimizdagi *a* tovushlari cheksiz bo‘lib, hech qachon takrorlanmaydi va sezgi *a’zolari* yordamida his qilinadi (aytilganda eshitiladi, yozilganda o‘qiladi). “*a*” tovushi AHVO bo‘lib, u yuqorida zikr etilgan «alohida o‘rik»ka monand.

AHVOlar qanchalik ko‘p, rang-barang bo‘lishiga qaramay, ongimizda ularning umumlashmasi sifatidagi yakka *a* UMISi bor. Bu *a* yuqorida aytilgan «umuman o‘rik» kabi moddiylikka ega emaslik (ongda psixofizik holatda mavjudlik), barcha *a* AHVOlarida takrorlanuvchanlik, miqdoran cheklilik (ya’ni bittalik) xossalariга ega.

Fonetik AHVO *tovush* va fonologik UMIS *fonema* deb yuritiladi.

Falsafiy UMIS va AHVOning leksikada voqelanishiga diqqat qilamiz. Misollar: *Men kitob o‘qishni boshladim. Bu kitobni Halim nega keltirdi? Kitob qiziqlarligi bilan meni tezda o‘ziga rom qildi gaplarida uchta kitob so‘zi mavjud.* Bu so‘zning ham har biri «muayyan o‘rik», «muayyan *a* tovushi» kabi moddiy voqelanganlik, takrorlanmaslik belgilariga ega va ular qatorini yana cheksiz davom ettirish mumkin bo‘lganligi sababli miqdoran chekshanmaganlik kabi AHVOlarning barchasiga xos belgilarni o‘zida mujassamlashtirgan. Cheksiz *kitob* so‘zlarining zamirida esa «umuman kitob» UMISi yashiringan. U nutqqa chiqadigan barcha *kitob* so‘zları uchun doimiy asos sifatida yashaydi. Chunki ikkinchi *kitob* so‘zi birinchisining takrori emas. U – yangi so‘z. Uchinchisi va qolgan barcha so‘zlar uchun shunday fikrni aytish mumkin.

Shuningdek, morfologiyada *-ni* tushum kelishigi shaklining turli nutqiy qo‘llanishlari morfologik AHVOlar bo‘lib, bu qo‘sishmchalar ongdagi *-ni* UMISi (morfemasi) asosida voqelangan.

Sintaksisda UMIS va AHVO munosabati quyidagi tarzda namoyon bo‘ladi.  
Masalan,

*Kitobning varagi*

*Uyning eshigi*

*Halimning savoli*

*Qog‘ozning qalinligi*

*Ruchkaning qopqog‘i*

kabi so‘z birikmalari alohida-alohida AHVO bo‘lib, ularning umumiy **qaratqich kelishigidagi mustaqil so‘z + egalik shaklidagi mustaqil so‘z = qaratuvchi va qaralmishning turli munosabatlari** qolipi – UMISining (mustaqil so‘z atamasi uchun qulaylik maqsadida tilshunoslar tomonidan qabul qilingan inglizcha *word* so‘zining bosh harfi bo‘lgan W shartli belgisidan foydalanamiz: **W**qaratqich kelishigi – **W**egalik qo‘sishchasi tarzida) voqelanishi. O‘zbek tilida barcha gaplar esa AHVOlar sifatida kesimlik qo‘sishchalari bilan shakllangan atov birligi, ya’ni **WPm** (bunda [W] – yuqoridagidek mustaqil so‘z, atov birligi, [Pm] esa kesimlik ko‘rsatkichi bo‘lib, *predikat, marker* so‘zlarining bosh harflaridan iborat) UMISining yuzaga chiqishi.

Esda tutish kerakki, UMIS hech qachon muayyan bir AHVOda to‘la-to‘kis voqelana olmaydi, unda o‘zining ma’lum bir qisminigina yuzaga chiqaradi. Masalan, WPm UMISi *Men keldim* gapida boshqa, *Ketadimi?* gapida boshqa bir qirrasini namoyon qilgan. Gapning darak va so‘roq belgilari bir butun holda birdaniga voqelana olmaydi. Biroq AHVO UMISdan tashqarida ham bo‘la olmaydi. Har qanday sodda gap baribir **WPm** UMISi doirasidan tashqariga chiqa olmaydi. Buni So‘fi Olloyor HAQ (UMIS) va sifat (tajalli, AHVO) munosabati misolida mahorat bilan tasvirlaydi:

*Subutiydir aning (ya’ni HAQning) sakkiz sifoti,*

*Sifot zoti emas, na g‘ayri zoti.*

Mazmuni: HAQning sakkizta sifati barqarordir, biroq ulardan birortasi (o‘z-o‘zicha, yakka holda) uning zoti (UMIS)ni tashkil eta olmaydi.

## **1.2. Til, lison, me'yor va nutq munosabati**

UMIS va AHVO munosabati dialektikaning (ya’ni butun borliq – tabiat, jamiyat va inson tafakkurining asosiy yashash) qonuniyatidan biri bo‘lganligi sababli, u har bir fanda o‘ziga xos tarzda xususiy lashadi. UMISning tildagi tajallisi *lison*, AHVOniki esa *nutq* deb yuritiladi. Lison va nutqning majmui *til* deyiladi.

Tilshunoslikda lisoniy va nutqiy jihatni farqlashga intilish ushbu fan bilan tengdosh. Chunki har qanday fan cheksiz hodisalarni umumlashtirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Xususiy hodisalar zamiridagi umumiylilikni ko‘rishga intilish bilishning har ikkala bosqichi (fahmiy va idrokiy)da ham mavjud. Shu boisdan aytish mumkinki, bilishning fahmiy bosqichi mutlaq xususiylik bilan o‘ralashib qolmaganligi kabi, idrokiy bosqich ham mutlaq umumiylilikni – UMISni tiklay olmaydi. Biroq har bosqich o‘z vazifasiga ega. Chunki har bir davr o‘z fani oldiga muayyan maqsad va aniq talablarni qo‘yadi. «Fanlarning taraqqiyoti shu davrning ilg‘or falsafiy fikri, davr uchun yetakchi bo‘lgan fan sohalarining yutuqlari bilan uzviy bog‘liq. Turli fanlarning manbalari ko‘p qirrali bo‘lganligi sababli, davrning yetakchi falsafiy fikri aniq fanlardan o‘rganish manbaining qaysi tomonlariga alohida e’tibor berish lozimligini, borliqdagi mavjud qonuniyatlarni mantiqiy kategoriyalarda qay usulda aks ettirish yo‘llarini belgilab beradi» (H.Ne’matov). Shu asosda aytish mumkinki, zamonaviy o‘zbek tilshunosligining birinchi bosqichi, dialektika nuqtayi nazaridan, tildagi UMIS va AHVOni bir-biridan farqlamay tasnif etish bosqichi.

Tilshunoslikda lison va nutqni izchil farqlab o‘rganish avvalo, tilshunoslari V.fon Humboldt, B.de Kurtene va F.de Sossyur nomi bilan bog‘liq. Lison va nutqning farqlanishi, tilga tizim sifatida yondashuv XX asr jahon tilshunoslida tub burilish sifatida baholanadi. Chunki u mavjud qarashlarni tubdan o‘zgartirib yubordi.

Tilga, xususan, o‘zbek tiliga sistema sifatida yondashuvning dastlabki yillarida *lison* o‘rnida *til* atamasi qo‘llanilib, u ko‘p ma’nolilik tabiatiga ega

bo‘lganligi sababli ayrim chalkashliklarni keltirib chiqarar edi. Chunonchi, insonning nutq so‘zlash qobiliyati ham, nutqi ham ushbu atama bilan yuritilar edi. Shu boisdan nazariyotchi tilshunoslar UMISning tildagi voqelanishiga nisbatan *lison* atamasini qabul qildilar. Natijada, *til*, *lison*, *nutq* munosabati quyidagicha tushunildi:

*2-jadval*

TIL		
LISO	ME'	NUT
N	YOR	Q

Yuqorida UMIS va AHVOning tildagi tajallisi misolida lison va nutqning o‘zaro munosabati haqida kirish xarakterida so‘z yuritildi. Endi unga batafsil to‘xtalindasi.

**Til** – sof lisoniy qobiliyat va imkoniyat. U tafakkurni shakllantirishga (kodlashtirishga), xotirada qat’iy sistemaga tizib saqlashga, axborotni uzatish va qabul qilishga imkoniyat beruvchi muhim (birlamchi) insoniy ijtimoiy-ruhiy kommunikatsiya vositasi. Tilda bosh ichki ziddiyat – atash (nominativ) va ifodalash (ekspresiv) vazifalarining dialektik birligi.

**Lison** – UMIS tabiatli lisoniy birliklarning serqirra, ko‘p qavatli sathlaridan tashkil topgan barqaror, tashqi muhit ta’siriga o‘ta sezgir, o‘zgarish, rivojlanish va moslashish immanent qobiliyatini o‘z ichida mujassamlashtirgan murakkab qurilishli iyerarxik sistemadir. Lison deyilganda, ma’lum bir jamiyatning barcha a’zolari uchun avvaldan (oldingi avlodlar tomonidan) tayyor holga keltirib qo‘yilgan, hamma uchun umumiyligi va majburiy, fikrni ifodalash va boshqa maqsad uchun xizmat qiladigan birliklar hamda bu birliklarning o‘zaro birikish qonuniyatlari yig‘indisi tushuniladi.

**Me'yor** – lisonning ichki qurilish tizimiga nisbatan tashqi omil bo'lib, lisoniy imkoniyat – sinonimik qator, lisoniy birliklarning dublet, allovariant va variantlari, sohaviy birliklardan har birining voqelanish o'rni va xususiyatini belgilaydi.

**Nutq** – lisonning me'yor elagidan o'tgan muayyan moddiy (yozma, og'zaki, tasviriy/imo-ishora, signal, va h.k.) shakllaridan birida voqelanishi.

Demak, lisonda birlik va birikish qonuniyati farqlanadi.

Har qanday lisoniy birlik psixofizik tabiatli bo'ladi. Shu bilan birga, ular ikki tomonning bir butunligidan iborat:

- a) lisoniy birlikning shakliy, tashqi tomoni;
- b) lisoniy birlikning ma'lum bir vazifasi, ma'noviy qiymati.

Lisoniy birlik UMIS sifatida mavjud ekan, u moddiylikdan xoli bo'lmog'i lozim. Bunda «lisoniy birlikning tashqi tomoni» ko'rinishga, moddiylikka ishora qilmaydimi, degan savol tug'ilishi tabiiy. To'g'ri, lisoniy birlik moddiy qiyofadan xoli. Biroq ular ongda qandaydir tarh, ramz sifatida saqlanadi. Masalan, *a* fonemasining talaffuz xususiyati haqida umumlashma tasavvur o'zbek tilida so'zlashuvchi barcha jamiyat a'zolari tilida birdir. Bu *a* fonemasining shakli, tashqi tomoni bo'lsa, uning ma'no farqlash, chegaralash tomoni ichki jihatni sanaladi. *a* fonemasi xususiyatlari va ma'no farqlashning o'ziga xos birligi, yaxlitligi sifatida ongda mavjud bo'ladi. Har bir fonemaning ma'no farqlash va talaffuz xususiyatlari umumlashmasi o'ziga xos bo'lib, biriniki ikkinchisiniidan farqlanadi va mustaqil fonemaga qo'yilgan talab uning aynan o'xshash bo'lishiga yo'l qo'ymaydi.

Lisoniy birliklarning bu tashqi va ichki tomonini bir-biridan ajratish, ulardan birini mutlaqlashtirish mumkin emas. Ichki va tashqi tomon bir varaqning ikki betiga o'xshaydi va ajratish mumkin emas. Nutq esa yuqorida ta'riflangan so'zlashish qobiliyati asosida ayrim shaxs tomonidan ma'lum bir xabar berish maqsadi uchun ishga solinishi yoki qo'llanishi natijasidir.

Bir-birini shartlovchi, bir-biriga bog'liq bo'lgan «lison – nutq qobiliyati – nutq» zanjirida faqat nutq tashqi (moddiy) shaklda (og'zaki, yozma) namoyon bo'ladi va sezgi a'zolarimizga ta'sir qiladi.

F.de Sossyur lison-nutq munosabatini shatranj o‘yini qoidalari asosida tushuntirib berishga harakat qilgan.

Shaxmat donalari va har bir donaning yurish qoidasi ongdagi lisoniy birliklar va ularning birikish imkoniyatiga o‘xshaydi. O‘yinchi bamisoli so‘zlovchi bo‘lib, shaxmat o‘yinini bilishi esa so‘zlovchining nutq qobiliyatiga o‘xshaydi. Donalarning harakatlantirilishini nutqqa qiyoslash mumkin. Qiyoslang:

shaxmat – o‘ynash qobiliyati – o‘yin

lison – nutq qobiliyati – nutq

Shaxmat donalari va ularning yurish imkoniyati o‘ynovchining barchasi uchun umumiyligi bo‘lganligi kabi lisondan foydalanishda ham shu tilda so‘zlashuvchilar teng huquqli.

Lison va shatranj qurilmalari o‘zaro qiyoslanadigan bo‘lsa, avvalo, ularning birliklari orasida umumiyligi o‘xshashliklar borligini ta’kidlash lozim. Har ikkala qurilma ham birliklar sistemasi (tizimi) va bu birliklarning o‘ziga xos vazifalari bilan ish ko‘radi. Bunda ma’lum qoida va qonuniyatlarga tayaniladi. Har ikkala holatning ishtirokchisi inson bo‘lib, ular har ikkala faoliyatda ham ma’lum bir imkoniyatni ishga soluvchilar. Shu boisdan shaxmat taxtasi, uning donalari, ya’ni shaxmat o‘yinining tashqi, moddiy tomonini lisoniy birlikning tashqi tomoniga, shaxmat o‘yini qoidalari – donalarining joylashuvi, harakat qoidalari, ya’ni shatranj o‘yinining ichki tomoni haqidagi tasavvurlarni lisoniy birliklarning mazmun mundarijasiga qiyoslash mumkin.

Lison va nutq munosabatiga dialektika kategoriyalari nuqtayi nazaridan yondashilsa, u haqdagi tasavvur va bilim to‘laqonli bo‘ladi (3-jadval):

3-jadval

BORLIQ		
TIL		
LISO		NUTQ
N		


Umum iylik	ME'Y OR	Alohid alik
Mohiy at		Hodisa
Imkon iyat		Voqeli k
Sabab		Oqibat

Lison bilan nutqning o‘zaro munosabatini teran anglamoq uchun, avvalo, lisonning o‘zini, uning qanday qurilma ekanligini aniq tasavvur etmoq lozim bo‘ladi.

Lison bo‘linuvchan birliklarning majmui yoki turg‘un xususiy birliklarning o‘zaro barqaror, doimiy bog‘lanish munosabati asosida tashkil topgan yangi bir butunlik. Masalan, gap so‘z va qo‘sishimchaga, ular esa tovushga bo‘linadi. Shu nuqtayi nazardan lisoniy birliklarni, avvalo, ikki guruhga ajratish mumkin:

- a) tashkil etuvchi eng kichik lisoniy birlik;
- b) eng kichik tashkil etuvchilar asosida vujudga kelgan hosila lisoniy birlik.

Tashkil etuvchi deyilganda, hosilalari o‘zaro birikib, yirikroq lisoniy birlikni hosil qiluvchi birlik tushuniladi. Masalan, ABC uchburchagi hosila birlik:



Bu hosila birlik AB, BC, CA tomonlar va shu chiziqlar asosida vujudga kelgan burchaklardan iborat. Tashkil etuvchidan birortasi o‘zgarsa, butunlik ham o‘z mohiyatini o‘zgartiradi. Masalan, *uka* lisoniy birligi uch fonema ko‘rinishining

muvofiqligi asosida tashkil topgan. Bularidan birortasi almashtirilsa, boshqa lisoniy birlik vujudga keladi. Masalan, *aka*.

Tashkil etuvchi va hosila birlik orasida pog‘onali munosabat mavjud bo‘ladi. Pog‘onali munosabat lisoniy birliklarning sathma-sath qatlamlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Qatlamlanish quyidagi tartibda bo‘ladi:

*fonema;*

*morfema;*

*leksema;*

*qolip.*

O‘zbek tilidagi fonemalar ma’lum bir butunlikni, bir sath (fonologik sath)ni tashkil etadi. Bu sath esa unlilar va undoshlar tizimidan tashkil topadi. Deylik, unlilar tizimi yana ikkiga – lablanmagan unli (*i-e-a*) va lablangan unli (*u-o ‘o*) tizimchasidan tashkil topgan. Ko‘rinadiki, tashkil etuvchining o‘zi ham tashkil etuvchidan iborat. Demak, tashkil etuvchilik – nisbiy tushuncha. Bunda minimal tashkil etuvchigina boshqa bo‘laklarga bo‘linmasligi mumkin.

Minimal tashkil etuvchi nafaqat birliklarni, shu bilan birgalikda, birliklarning o‘zaro munosabatini ham o‘z ichiga oladi. Shuni ta’kidlash lozimki, eng kichik (minimal) tashkil etuvchi bo‘lgan fonema yana ichki va tashqi jihatga ajraladi.

Aytilganlar asosida, lison hamda nutq birliklari sifatida quyidagilar ajratiladi. Lison va nutq birliklari ham lison va nutqning o‘zi kabi UMIS va AHVO munosabatida bo‘ladi:

4-jadval

LISONIY BIRLIK	NUTQIY BIRLIK
fonema	tovush
morfema	qo‘shimcha
leksema	so‘z
qolip	yasama so‘z, so‘z birikmasi, gap

### 1.3. Lisoniy va nutqiy birlik

Eng kichik bir yoqlama (ya’ni faqat shakliy tomondan iborat) lisoniy birlik – fonema. Fonema muayyan til egalarining ma’lum tovush tipi haqidagi umumiylasavvuri. Har bir fonema so‘zlovchi ongida o‘z tipini farqlovchi belgilari majmui asosida vujudga kelgan maxsus «akustik-artikulyatsion portret» yoki «tovush obraz» sifatida saqlanadi. Muayyan fonemaning farqlovchi belgilari uning artikulyatsion va akustik xususiyati asosida shakllanadi. Artikulyatsion belgi muayyan tovushni talaffuz qilish uchun nutq a’zolarining bir xil harakatga moslashgan avtomatik, standart holati haqidagi tasavvur bo‘lsa, akustik belgi sifatida bir turdagি tovushga xos talaffuz sifati va miqdori tushuniladi.

O‘zbek tilida so‘zlovchi shaxsning ongida hozirgi o‘zbek tilidagi 30 ta tovush tipi – fonema haqida ma’lumot bor. Bu ma’lumot kishi ongida uning til o‘rganishi, o‘zgalar va o‘zining nutqini kuzatish natijalari sifatida hosil bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tili sohibi o‘zining eshitish va so‘zlash a’zolari faoliyatini kuzatish natijasida *a* fonemasining unlilik, kenglik, lablanmaganlik, *u* fonemasining unlilik, torlik, lablanganlik, *p* fonemasining undoshlik, shovqinlilik, jarangsizlik, portlovchilik, lab-lablik kabi belgilarga ega ekanligi haqidagi «tabiiy» (go‘yoki o‘zi hosil qilingan) bilimga ega bo‘ladi. Nutq so‘zlaganda, ana shu umumiylasavvuri ongida imkoniyatni voqelantirishga, fonetik umumiylasavvuri xususiylashtirishga harakat qiladi.

Lisoniy birliklar nutqiy birliklarga nisbatan miqdoran cheklangan bo‘lsa-da, ammo ularning soni ham sanoqli emas. Shu boisdan ularning xotirada saqlanish mexanizmini bilish lozim bo‘ladi.

Ma’lumki, inson narsani uning umumlashtiruvchi va farqlovchi belgilari asosida xotirada saqlaydi. Xotirada saqlanishi lozim bo‘lgan narsa miqdor jihatdan ko‘p bo‘lsa, eslab qolishning asosiy yo‘li – tasniflash, ya’ni guruhga ajratish. Tasnif esa o‘xshash va noo‘xshash, umumiylasavvuri va farqlovchi belgilarini aniqlash asosida kechadi. Bu tamoyil barcha lisoniy birliklar, xususan, fonemalar tasnifida ham to‘la amal qiladi.

Hozirgi o‘zbek tilida 30 ta fonema so‘zlovchi ongida, avvalo, ikki guruh – unli va undoshga bo‘lingan holda mavjud bo‘ladi. Bu guruhlar tovush talaffuzidagi ovoz va shovqinning ishtiroki darajasiga qarab belgilanadi. Bo‘linish shu tarzda alohida fonemagacha davom etib boradi. Unli ham, undosh ham qarama-qarshi belgilari asosida kichik guruhchalarga bo‘linib boraveradi. Masalan, o‘zbek tilidagi 6 ta unli bir tizim bo‘lib, ular shovqinsizligi bilan undoshdan ajraladi. Biroq bu tizimchaning o‘zi ham unsurlarning qarama-qarshi belgilari asosida bo‘linadi. Unlilarning qarama-qarshi qo‘yilishi quyidagicha:

*5-jadval*

I	U
E	O‘
A	O

Umuman olganda, minimal lisoniy birlik bo‘lgan fonema inson nutq a’zosi yordamida vujudga kelgan tovush ko‘rinishlarining umumiy andozasi bo‘lib, cheksiz tovushning umumlashmalari qatori sifatida ongda yashaydi. So‘zlovchi ushbu psixo-akustik obraz asosida nutq a’zolarini harakatga keltirib, tovush hosil qiladi. Yoki tinglovchi o‘zga tomonidan hosil qilingan tovushni eshitish orqali ongidagi andozaga solishtirib ko‘radi.

Fonemaning ma’no farqlash xossasi mavjud bo‘lib, bir fonemaning turli ko‘rinishi bo‘lgan tovushlarda bu hodisa kuzatilmaydi. Bir fonemaning nutqiy varianti bo‘lgan tovush boshqa fonemaning varianti bo‘lgan tovush bilan almashtirilsa, so‘z ma’nosи yangilanadi, ya’ni boshqa so‘zga aylanadi. Qiyoslang: *qora* va *qara*, *ota* va *ata*, *ona* va *ana*. Shu boisdan ham fonemaga tilning ma’no farqlovchi eng kichik birligi deb ta’rif berildi. Bir fonemaning turli varianti ma’no farqlamaydi. Masalan, til oldi va til orqa *o‘* unlilari quyida ma’no farqlamagan: *o‘l-o‘l*.

**2. Leksema va so‘z.** Lisonning borliq hodisalarini nomlash, ifodalash, ko‘rsatish uchun xizmat qiluvchi birligi – leksema. Lisoniy birlik sifatidagi leksema biri ikkinchisisiz mavjud bo‘la olmaydigan ikkita psixofizik tomon –

akustik struktura (tovush qobig‘i), ya’ni nomema hamda ma’lum bir tushuncha asosida vujudga kelgan mazmuniy struktura, ya’ni sememaning birligidan iborat.

Lisoniy birlik sifatidagi leksemaning tovush strukturasi fonetik birlik ko‘rinish (variant)larining turlicha kombinatsiyalari asosida vujudga kelgan. O‘zbek tilida mavjud barcha leksemaning shakliy tomoni tilimizda mavjud 30 ta fonema asosida, xolos. Shu boisdan tashqi fonetik strukturasi asosida leksemalarni kuchli va kuchsiz ziddiyatga qo‘yish mumkin. Kuchli oppozitsiya bittadan (*u* – *olmosh*, *e* – *undash*), ikkitadan (*ot*, *ish*), uchtadan (*bor*, *kel*), to‘rttadan (*qunt*, *band*) fonema variantining zidlanishi asosida hosil bo‘lgan bo‘lsa, kuchsiz ziddiyat leksemaning tarkibidagi ayrim fonema variantlari asosida bo‘ladi (*tub* – *tup*, *bob* – *bop*).

Har bir leksema lisoniy birlik sifatida mazmun mundarijasiga ham ega. Leksemaning mazmun mundarijasi denotat yoki referent deb ataladigan borliqdagi narsa, harakat, belgi, miqdor kabilarni ifodalaydigan tushunchalarni anglatadi. Masalan, borliqda *yuz* deb ataluvchi kishi burni ikki tomonining peshonadan iyakkacha bo‘lgan qismi mavjud. Shu asosda kishi ongida «yuz» tushunchasi vujudga kelgan. Mazkur tushuncha asosida esa semema (leksema ma’nosi) shakllanadi. Tushuncha bilan ma’no bitta narsa emas, ular farqli xususiyatga ega. Masalan, ingliz, rus, nemis tilida so‘zlashuvchi kishilarining ongida «aka» va «uka» tushunchalari mavjud. Biroq bu tushunchalar *brother* (ingliz), *brat* (rus) va *bruder* (nemis) leksemalarida bitta ma’no (semema)da birlashgan. Yoki *yuz*, *bet*, *bashara*, *chehra*, *oraz* leksemalari bitta tushunchani ifodalaydi, lekin ma’nolari o‘zaro farqlanadi.

Leksemaning mazmun silsilasi bo‘lgan sememani tashkil etuvchi a’zo – sema. Nomema tovushlarning turlicha kombinatsiyalari asosida tashkil topganligi kabi, ana shu semalarning turlicha birikuvi va ba’zilarining o‘rin almashinushi asosida turli mazmundagi semema vujudga keladi. Bu sememalarning semik tarkibi quyidagicha:

*yuz* – «odamga xos», «boshning old qismi», «burunning ikki tomoni», «peshonadan iyakkacha», «burundan quloqqacha», «qo‘llanilishi chegaralanmagan», «uslubiy betaraf», «turkiy qatlamga oid», «umumiste’mol»;

*jamol* – «odamga xos», «boshning old qismi», «burunning ikki tomoni», «peshonadan iyakkacha», «burundan quloqqacha», «qo‘llanilishi chegaralangan», «badiiy uslubga xos», «arabiy qatlamga xos».

Har ikkala leksema ham bir tushunchani ifodalaydi. Ularning mazmun mundarijasi – sememalarining semik tarkibi farqlanadi. Leksemalar sememalarining atash semalari denotatning in’ikosi – tushunchani ifodalaydi. Har bir leksema sememasi o‘xhash va farqlovchi semaga ega. O‘xhash sema ularni guruhlarga birlashtirishga, farqli sema esa ajratishga xizmat qiladi.

Leksemaning nutqiy qo‘llanilishidagi varianti so‘z bo‘lib, ular turlichay matniy qurshov asosida har xil xususiyat kasb etadi.

Leksema tub yoki yasama bo‘lishi mumkin. Masalan, *kitob*, *savdogar*, *nonchi* birliklarini olaylik. Qatordagi *kitob* va *savdogar* birliklari tayyorlik, umumiylilik, ijtimoiylik xossalariiga ega. Biroq tilimizda *nonchi* degan lisoniy birlik yo‘q. U nutq jarayonidagina hosil qilinishi mumkin va yuqoridagi birliklar ega bo‘lgan xususiyatdan xoli. *nonchi* birligining nutq jarayonigagina xosligi uning tayyorlik belgisiga ega emasligini ko‘rsatadi.

**3. Morfema va qo‘shimcha.** Morfema leksemadan ajralgan holda o‘z mohiyatini namoyon qila olmaydigan, shakl va denotativ bo‘lmagan mazmunning birligidan iborat bo‘lgan kichik lisoniy birlik. Qo‘shimcha ana shu psixofizik mohiyatning nutqda namoyon bo‘lishi. Morfema ham tashqi (moddiy) va ichki (ma’no, vazifa) jihat yaxlitligidan iborat. Atov mustaqilligiga, mustaqil sintaktik mavqega ega bo‘lmagan bu birliklar o‘zida leksik va grammatik mohiyatni uyg‘unlashtirgan:

- a) yangi so‘zlar hosil qiladi;
- b) so‘zlarga qo‘shimcha leksik-semantik qiymat beradi.

Bir tilga xos birlik boshqa tillarnikidan farqlanadi. Masalan, amorf, agglyutinativ va flektiv tillardagi leksema mohiyatan o‘ziga xos.

**4. Qolip va hosila.** Lisoniy birlikning navbatdagi turi – qurilma – qolip. Qolip deganda yasama so‘z, so‘z birikmasi va gaplar hosil qilish sxemalari tushuniladi. Qoliplar ikki xil bo‘ladi:

- a) so‘z yasash qolipi;
- b) sintaktik (so‘z birikmasi va gap) qolip.

Qolip ham boshqa lisoniy birlik kabi UMIS tabiatli bo‘ladi. Masalan, nutqdagi cheksiz yasama so‘z (masalan, sutchi, nisholdachi kabi bitta bevosita kuzatishda berilmagan lisoniy birlik (masalan, **narsa/buyum oti + chi = shu narsa/buyum bilan shug‘ullanuvchi kishi**, ya’ni so‘z yasash qolipining nutqiy hosilasi. *Kitobni o‘qimoq* nutqiy hosilasi boshqa o‘ziga o‘xhash cheksiz so‘z birikmalari (*qog‘ozni yirtmoq, uyni sotmoq* va h.k.) bilan birgalikda **Ottushum kelishigi + Fe’l = vositasiz to‘ldiruvchili fe’lli birikma** lisoniy sintaktik qolipidan chiqqan nutqiy birlik.

Qolip miqdoran cheklangan. Masalan, o‘zbek tilida so‘z birikmasi hosil qilishning 18 ta ustuvor qolipi ajratilgan va nutqimizda ulardan son-sanoqsiz so‘z birikmasi hosil qilinadi.

Qolip ham boshqa lisoniy birlik kabi shakl va mazmun yaxlitligidan iborat. Yuqorida keltirilgan qoliplarning tenglikdan chap qismi shakliy, o‘ng qismi esa mazmun tomoni deb yuritiladi. Qolipning **sifat + ot** tarzida mazmuniy tomonsiz berilishi ham xato emas. Chunki, masalan, *-mi* morfemasi misol sifatida olinganda, uning grammatik ma’nosи, *kitob* leksemasi haqida fikr yuritilganda, har doim uning sememasи ham berilishi (masalan, *-chi = so‘roq, taajjub bildiruvchi morfema, kitob = varaqlaridan tashkil topgan, muqovalangan, bosma yoki qo‘lyozma holdagi o‘qish quroli*) shart emas. Shu boisdan qolip haqida gap ketganda, uning shakl tomonini qayd etish yetarli.

Shunday qilib, fonema, morfema, leksema va qolip lisoniy birlik bo‘lsa, tovush, qo‘sishimcha, so‘z, so‘z birikmasi va gap esa nutqiy birlik. Ularning o‘zaro

munosabati va o‘ziga xos belgilariga doir fikrni jadvalda quyidagicha xulosalash mumkin:

6-jadval

BORLIQ		
TIL		
LISO N	ME’Y OR	NUTQ
fonem a		tovush
morfema		qo’shi mcha
lekse ma		so‘z
qolip		yasama so‘z, so‘z birikmasi, gap

Demak, lisoniy va nutqiy birlik o‘zaro quyidagi dialektik munosabatda bo‘lsa:

7-jadval

LISONIY BIRLIK	NUTQIY BIRLIK
umumiylilik	alohidalik
mohiyat	hodisa
imkoniyat	voqelik
sabab	oqibat

bir vaqtning o‘zida quyidagi qarama-qarshi belgilarga ega bo‘ladi:

8-jadval

LISONIY BIRLIK	NUTQIY BIRLIK
moddiylikdan xoli	moddiylikka ega

cheklangan	cheksiz
ijtimoiy	individual
barqaror	o'tkinchi

## II BOB. BELGI VA TIL BIRLIKLARI. TIL VA NUTQ

### 2.1. Til va nutqning farqli belgilari

Til belgilar sistemasi bo'lishi bilan birligida, ayni paytda unda belgilar sistemasiga xos bo'lmanan xususiyatlar ham bor<sup>1</sup>. Demak, til belgisi yuzasidan gapirilganda, eng avvalo, tilning qaysi birliklari nazarda tutilayotganligi haqida to'xtalishga to'g'ri keladi.

Qaysi til birliklarini belgi deb hisoblash mumkin? Til birligi termini qaysi lingvistik tushunchalarini o'z ichiga oladi? Bu savollarga ham tilshunoslar turlicha javob beradilar. SHuning uchun ham, avvalo, til birliklari masalasiga to'xtalaylik.

Tilshunoslikda til va nutq o'zaro farqlangandan biyon ularning birliklari ham bir-biri bilan o'zaro doimo aloqada bo'lgan alohida-alohida birliklar sifatida ajratiladigan bo'ldi.

N.A.Slusareva ta'kidlaganidek, F.de Sossyur ta'limotining mohiyati, eng qisqa shaklda ifodalaganda, bu til (langue) va nutq (porole) farqlanishidir. Uning boshqa barcha nazariyalari mantiqan shu tezisdan kelib chiqadi<sup>2</sup>.

V.YA.Zveginsev F.de Sossyurning til-nutq qarama-qarshiligi asosida bu hodisalarning quyidagi farqli belgilarini ko'rsatadi<sup>3</sup>.

1. Nutq individual, til umumiy hodisadir. Umumxalq tili doimo va alabatta alohida nutqiy ko'nikmalarida til sistemasi chegarasida ma'lum o'zgarishlarga uchraydi.

<sup>1</sup> Савченко А.Н. Язык как система знаков // ВЯ. 1972, № 6.

<sup>2</sup> Слюсарева Н.А. Теория Ф.д Соссюра в свете современной лингвистики. –М., 1975. С.9.

<sup>3</sup> Звегинцев В.Я. Теоритическая и прикладная лингвистика. –М., 1968. С.105-106.

2. Nutq psixik hodisa, til sotsialdir.
3. Nutq harakatchan dinamik, til esa stabillikka, statitlikka intiladi.
4. Nutq tarixiy, til axronik xususiyatga ega.
5. Nutqiy elementlar o'rtasida sababiy tobelilik, til elementlari o'rtasida funksional tobelilik mavjud.
6. Til lingvistik qonuniyatlarga bo'y sunadi. U lingvistik "regulyar", nutq esa lingvistik nolegulyar, sporodik xarakterga ega.
7. Nutq doimo moddiylikka xos. U o'zining funksiyasini real moddiy sifatga ega bo'lgan birliklar sifatida bajara oladi. Til abstract sistema sifatida mavjud. Bunday farqlanish subtansiya va forma o'rtasidagi farqlanish kabitir.

N.A.Slusareva shu kunga qadar til va nutq qarama-qarshiligiga bag'ishlangan ishlarni umumlashtirigan holda, til va nutqni qutbiy ziddiyat (binary oppozitsiya) asosida uch xil yo'l bilan aniqlash mumkin ekanligini ko'rsatadi: 1) bilish nazariyasi nuqtai nazaridan gnoseologik aniqlash; 2) til va nutqning predmetlik xususiyati nuqtai nazaridan ontologik aniqlash; 3) qo'llanish doirasi va foydalanish tarsi nuqtai nazaridan – pragmatic aniqlash. Bu uch xil yo'l bir-birini to'ldiradi.

Gnoseoligik jihatdan til va nutq quyidagi belgilar asosida farqlanadi:  
1) umumiylilik-xususiylik; 2) abstraktlik-konkretlik; 3) muhim-nomuhimlik;  
4) mohiyat - hodisa; 5) zaruriylik-tasodiflik; 6) sifat-miqdor.

Ontologik jihatdan yeeti belgi asosida farqlanishi va har qaysi belgi o'z ichida mayday belgilarga bo'linishi mumkin: 1) psixik-fizik—fiziologik: virtual-aktual, imkoniyat-akt va boshqalar; 2) sistema-tekst; sistema-funksiya; paradigmatica-sintagmatika; 3) bir xillik-har xillik; 4) invariantlilik-variantlilik, o'zgarmaslik-o'zgaruvchanlik, barqarorlik-daqiqalik va boshq.; 5) butun-qism; 6) jarayon-kvant jarayon; 7) ong-tafakkur.

Pragmatik jihatdan quyidagi uch belgi asosida farqlanadi:

- 1) sotsial-individual; aloqa vositasi-aloha jarayoni; vositalar sistemasi bu vositalarga amaliy egalik qilish; avtomatizm-erkinlik;
- 2) usual-okkazional;

3) kod-xabar<sup>4</sup>.

Tilshunoslikda lingvistik birliklar til va nutq oppozitsiyasiga ko'ra ikki xil – “emik” (til sathiga mansub) va “etik” (nutqiy) birliklarga bo'linadi. Bu birliklarning o'zaro munosabatini YU.S.Stepanov quyidagicha ko'rsatadi<sup>5</sup>.

Tilshunoslik tarixida til va nutq o'zaro farqlanishi bilan tilning turli sathlarida bu zidlanishning namoyon bo'lishini tadqiq etishga e'tibor kuchaydi va buning natijasida til va nutq birliklarini ajratish ehtiyoji paydo bo'ldi. Struktur tilshunoslik vakillari F.de Sossyur izidan borib nutqiy faoliyatda til va nutq sintezini ko'radilar<sup>6</sup>.

## 2.2. Til – geterogen sistema

Til atamasi ostida avtomatlashtirilgan belgilar va til egalarining ulardan foydalanish qoidasi, nutq atamasi ostida esa individlar nutqida uning real qo'llanilishi tushuniladi<sup>7</sup>.

Avvalo, til atamasi ikki ma'noda qo'llaniladi: 1) kishilar o'rtasidagi eng muhim aloqa vositasi. Bunda til bir butun ijtimoiy hodisa sifatida tushuniladi; 2) ijtimoiy hodisaning nutqqa zid qo'yiladigan holati. F.de Sossyurning fikricha, til bu nutqiy faoliyat minus nutqdir<sup>8</sup>. Professor SH.Rahmatullayev fikricha, til deganda butunni ham (nutqni qamrab olgan holati), qismni ham (nutqni qamrab olmagan holati) tushunish mumkin<sup>9</sup>.

Til birliklari deganda nutqqa zid qo'yilgan tilning birliklari tushuniladi. Sistema tarkibida funksional tarkibida fuksional qimmatga ega bo'lgan elementlar til birliklari sanaladi.

<sup>4</sup> Слюсарева Н.А. Теория Ф.де Соссюра в свете современной лингвистики. –М., 1975. С 16-25.

<sup>5</sup> Степанов Ю.С. Метод и принцип современной лингвистики. –М., 1975. С.279.

<sup>6</sup> Микуш Ф. Структурализм и синтагматическая теория // ВЯ, 1957. № 1. С.28.

<sup>7</sup> Соссюр Ф.де. Курс общей лингвистики. –М., 1933. С.86.

<sup>8</sup> O'sha joyda.

<sup>9</sup> Рахматуллаев Ш. Тил курилишининг асосий бирликлари. –Тошкент: Университет, 2002. –Б.3.

Til birliklari tushunchasi bilan birga lingvistik birlik degan tushuncha ham mavjud. Bu tushuncha til birliklarini ham, nutq birliklarini ham qamrab oladi. Tilning sistemaviylik tabiat shundaki, u sanoqli figuralar, ya'ni birliklarning turli kombinatsiyalari orqali cheksiz axborotlarni uzatish imkoniyatiga ega. Shuning uchun til birliklarining miqdori chegaralangan, barmoq bilan sanarlidir. Imkoniyat tarzidagi bu sanoqli birliklar nutqiy jarayonda xilma-xil shaklda voqelanadi. Til birliklarining nutqiy jarayondagi real ko'rinishlari nutq birliklari sanaladi.

Deskriptiv tilshunoslik vakillari faqat uch til birligi mavjudligini e'tirof etadilar: fonema, morfema, konstruksiya. Morfemadan yuqori birliklarning barchasi konstruksiya hisoblanadi.

A.A.Reformatskiy til tuzilishining elementlari sifatida to'rtta birlikni e'tirof etadi: 1) nutq tovushi (fonema), 2) so'z o'zagi (morfema), 3) so'z, 4) gap.

Uning fikricha, *fonema* tilning moddiy belgisi sanaladi. Tilning tovush belgisi (shuningdek, grafik belgi

Ning ikki vazifasi mavjudligi ta'kidlanadi: 1) perceptiv, ya'ni anglash obyekti bo'lisl vazifasi; 2) signifikativ, ya'ni ma'noli birliklarni (morfema, so'z, gap) farqlash vazifasi.

Morfema o'zak va o'zak bo'lмаган turlarga ajratiladi va uning ma'no ifodalashi, lekin nomlamasligi bayon qilinadi. Masalan, *красный*, *краснота* so'zlaridagi *красн* muayyan rang tushunchasini bildiradi, lekin nomlash vazifasiga faqat bu morfemaning *краснота*, *красный*, *краснеть* kabi so'zga aylangan holatigina ega bo'ladi.

So'z morfemadan farqli ravishda borliqdagi narsa va hodisalarni nomlashi, nominativ funksiya bajarishi ta'kidlanadi. Gap esa ma'lum axborot ifodalashi, kommunikativ funksiya bajarishi bilan so'zdan farq qiladi.

A.I.Cmirnitskiy til birligi deganda tovush qobig'iga ega bo'luvchi va ma'lum ma'noni ifodalovchi hamda bu tovush qobig'I va ma'no o'rtasidagi munosabat til xotirasida saqlanuvchi hamda nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi birliklarni tushunadi. Bunday birliklar sifatida "tilning leksik birliklari" nomi bilan so'zni

(“отдельное слово”) va bunday so’z tarkibiga kiruvchi morfemalarni belgilaydi<sup>10</sup>. SHuning uchun u fonemalarni ma’noni bildirmay, ma’noli birliklarning moddiy qobig’I bo’lib xizmat qilishi tufayli til birliklari qatoriga kiritmaydi. Ularni tilning qurilish birliklari deb hisoblaydi. Natijada lingvistik birliklarni uch guruhga bo’ladi: 1) tilning qurilish birliklari: fonema; 2) til birliklari: a) so’z, b) ayrim morfemalar; d) tilda tayyor holda mavjud bo’lgan frazeologik birliklarni va tarkibli terminlarni ham til birliklari qatoriga kiritish lozimligini ko’rsatadi; e) formulalar; f) til birliklari bo’la olmaydigan hodisalar: so’zlarning erkin birikmalari (shu jumladan, gap).

Ayrim mualliflar til birliklarini funksional nuqtai nazardan uch turga: nominativ, kommunikativ va qurilish birliklariga ajratadilar<sup>11</sup>. Nominativ birlik deb so’zni, kommunikativ birlig deb gapni, qurilish birligi deb fonema, morfema, so’zshakllari va birikma shakllarini tushunadilar.

So’nggi davrlarda tilshunoslikning bu dolzarb muammosi yuzasidan o’zbek tilshunosligida ham bahs-munozaralarning qizib borayotgani e’tiborga molik.

Til birliklari tasnifiga bag’ishlangan ishlar SH.Rahmatullayev asarida bat afsil tahlil etilgan. Asosiy til birligi sifatida morfema deyarli barcha tilshunoslar tomonidan e’tirof etiladi. Leksema va so’z ayrim mualliflar asarlarida til birligi deb ko’rsatiladi. Konstruksiya atamasi ostida morfemadan keyingi lingvistik birliklarni hosil qilish qoidalari, tuzish modellari tushuniladi. SH.Rahmatullayev ham til birliklarini to’rt guruhga bo’lar ekan, ularni quyidagicha nomlaydi: 1) til birliklarining qurilish birliklari (til tovushi, fonema, allofonema); 2) asosiy til birliklari (leksema, alloseksema, morfema, allomorfema); 3) tuzma (ikkilamchi) til birliklari (leksemashakl, birikmashakl, gapshakl); 4) yirik til birligi (frazema, allofrazema).

<sup>10</sup> Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. –М., 1956. С.14; Bu haqda qarang: Rahmatullayev SH. Til qurilishining asosiy birliklari. –Toshkent, Universitet, 2002. –B.6.

<sup>11</sup> Кодухов В.И. Введение в языкознание. –М., 1979. С.105.

Ayniqsa, akademik A.Hojiyevning “O’zbek tili va adabiyoti” jurnali orqali e’lon qilingan o’n ikkita maqolasi ilmiy jamoatchilik diqqatini jalb etgani katta voqeа bo’ldi<sup>12</sup>.

Yuqoridagi maqolalarda til birliklari bilan bog’liq bo’lgan qator muammolar haqida bahs yuritiladi. Ana shulardan biri *morfema* bilan *leksema* masalasidir. Muallif shu kungacha til birliklari tasnifiga bag’ishlangan ishlarning ko’pida morfema bilan leksema farqlanmayotgani leksema ham morfemalar qatoriga kiritilayotganidan afsuslanadi va leksema morfema emasligini, ularni morfema deb atab bo’lmasligini aytadi. Darhaqiqat, faqat o’zbek tilshunosligidagina emas, balki dunyoning yirik tilshunoslari asarlarida Bunday holat mavjud va uning chuqr ildizlari bor.

Xususan, Boduen de Kurtene tomonidan morfema nazariyasiga asos solinishi, uni tilning markaziy birligi sifatida e’tirof etilishi tilshunoslар diqqatini shu davrgacha til tuzilishining tayanchi hisoblanib kelgan so’zdan morfema tomon jalb etdi. Morfema tilshunoslikning markaziga aylandi. Morfemadan kichik birliklar uning qismi sifatida, katta birliklar esa morfemalar sintagmatikasi natijasi sifatida qaraladigan bo’ldi.

Boduen de Kurtene tomonidan morfemaga “tilning boshqa mayday morfologik bo’lakka bo’linmaydigan eng kichik morfologik birligi” sifatida bergen ta’rifi barcha eng kichik ma’noli birliklarni, jumladan tub leksemalar, qo’shimchalar, yordamchilar va hatto supersegment vositalar (urg’u, ton)ni ham morfema qatoriga kiritishga asos bo’lib xizmat qildi.

Xususan, L.Bluemfeld morfemaning asosiy belgisi “minimallik” (“kichiklik”) ekanligini e’tiborga olib, tub so’zlarni ham, yordamchi so’zlarni ham, so’zning qismlarini ham morfema deb hisoblaydi. G.Glison ham barcha tub so’zlarni morfemalar qatoriga kiritadi. Bunday qarash so’zni til birliklari sirasidan

---

<sup>12</sup> Hojiyev A. Til qurilishining asosiy birliklari haqida. (“Lug’aviy va Grammatik morfema” haqida) // O’zbek tili va adabiyoti, 2004, 3-son. –B.30.

chiqarishga olib keldi. Ayniqsa, so'zning murakkab xususiyatga egaligi, unga aniq ta'rif berib bo'lmasligi haqidagi F.de Sossyur fikri bunga asos bo'lib xizmat qildi.

Eng kichik ma'noli birlik morfema ekanligi haqidagi fikr davrlargacha tilshunoslikda ustuvorlik qildi va morfemaning asosiy belgilari sifatida "boshqa ma'noli bo'lakka bo'linmaslik", "ma'nolilik", "eng kichiklik" belgilari e'tirof etildi.

Faqat B.Skalichka Boduenning morfemaga "mayday bo'lakka bo'linmaslik" belgisiga asoslanib bergen ta'rifiga tanqidiy yondashadi va unda shakl va mazmun munosabati e'tiborga olinmaganligini bayon qiladi. Morfemaning mazmun tomondan kichik elementlarga bo'linishi va bu elementlar sema hisoblanishini ta'kidlaydi. Bundan ilhomlangan V.M.Solnsev morfemaning ikki tomonlama mohiyatligini, u ifoda tomondan sonema, mazmun tomondan sememalardan tashkil topgan butunlik ekanligini aytadi.

SHunday qilib, **morfemaga** tilning eng kichik ma'noli birligi sifatida qarash tub leksemalarni ham, affikslarni ham, yordamchi so'zlarni ham, hatto undov, modal, taqlid so'zlarni ham morfemalar tarkibida o'rganishga olib keldi.

Faqat A.Martine non-, yoq-, yop- singari morfemalar bilan ni, -(i)m, -chi kabi morfemalar o'rtasidagi farqni e'tiborga olgan holda, **morfema** atamasi ostida tushuniladigan obyektni toraytirishni, uni faqat qo'shimchalarni ifodalash uchun, leksika sohasiga dahldor bo'lgan monemalarni (morfema o'rnida monema atamasini qo'llaydi) ifodalash uchun, **leksema** atamasini qo'llashni tavsiya etdi.

Natijada ayrim adabiyotlarda leksik ma'no ifodalash uchun xizmat qiluvchi eng kichik ma'noli qismga leksema, grammatik ma'no ifodalash uchun xizmat qiladigan va yasama leksemalarni hosil qilish uchun ishlatiladigan eng kichik ma'noli birliklar uchun esa morfema atamasi qo'llaniladigan bo'ldi. SHu bilan birgalikda, morfemani keng ma'noda barcha eng kichik ma'noli birliklar uchun qo'llash ham davom etmoqda. SHuning uchun morfemalar leksik va Grammatik morfemalarga hamda har ikki turga ham kirmaydigan, lekin bu ikki turning

xususiyatlarini ma'lum darajada o'zida mujassam etgan oraliq morfemalarga bo'lish lingvistik adabiyotlarda tasodifiy hodisa emas.

Akademik A.Hojiyev o'z maqolasida ko'makchi morfemalarni erkin, bog'liq va nisbiy bog'liq morfemalarga tasnif etish morfemalar mohiyatini yoritishda hech qanday ahamiyat kasb etmasligini yozadi.

Til sistemalar sistemasi yoki geterogen sistemadir. Til sistemasining geterogenligi shundaki, u gomogen birliklar munosabatidan tashkil topgan bir necha kichik birliklarni o'z ichida birlshtiradi. Geterogenlik xususiyati uning "ko'pqavatliligi"ni belgilaydi. Geterogen sistemalar gomogen elementlar munosabatidan tashkil topgan kichik sistemalarga bo'linadi.

Gomogenlik va geterogenlik munosabati Kant falsafasining asosi sanaladi<sup>13</sup>.

Morfemalar ham geterogen sistema sifatida leksik, Grammatik va oraliq morfemalarni o'z ichiga olishi bilan birgalikda, morfem sistema tarkibidagi yuqoridagi har bir guruhning o'zi, o'z navbatida, yana kichik sistemalarga bo'linishi uchun asos bo'ladi. Xusan, Grammatik yoki ko'makchi morfemalar sinfiga kirgan morfemalar "ko'makchilik" belgisi asosida bir butunni, ya'ni sistemani tashkil qilish bilan birga, ayni paytda ular ma'lum differensial belgilariga ko'ra yana kichik guruhlarga, sinflarga bo'linadi. Masalan, kelishik qo'shimchalari bilan ko'makchilar o'rtaсидаги farqlovchi belgi nima? Tabiiyki, ular o'rtaсидаги farqlovchi belgi analitiklik va sintetiklikdir. SHu asosda erkin va bog'liq morfemalar ajratiladi.

Ko'rindiki, fonema, morfemalarning til birligi ekanligi deyarli barcha tilshunoslar tomonidan e'tirof etiladi. Leksema morfema (monema)ning bir turi atash ma'nosiga ega bo'lgan turi sifatida tan olinishi munosabati bilan uning ikki tomoni alohida-alohida atama bilan farqlanadigan bo'ldi. SHakl tomoni uchun nomema, mazmun tomoni uchun semema. Demak, leksema nomema va sememalarning o'zaro munosabatidan tashkil topgan butunlik sanaladi.

---

<sup>13</sup> Философский словарь. –М., 1980. С.75.

Leksemaning mazmuniy tomoni, ya’ni semema ham bir necha semalarning o’zaro munosabatidan tashkil topgan nisbiy butunlik hisoblanadi. Semema semalari vazifasiga ko’ra birlshtiruvchi va farqlovchi semalarga bo’linadi.

Leksema yaxlit holda boshqa leksemalar bilan gipo-giperonimin munosabatni tashkil etgani kabi, mazmuniy tomoni ham ana shunday munosabatdagi semalar qavatlanishidan tashkil topadi. Birinchi qavatda farqlovchi sema vazifasini bajargan sema vazifasini bajaradi. Bu V.Gumboldning “Tilda hech qanday alohida narsalar yo’q, har bir alohida faqat butunning qismini namoyon qiladi xolos”, degan fikrining naqadar to’g’ri ekanligini tasdiqlaydi. Bu har qanday umumiyligi alohidada, alohida orqali mavjud bo’ladi. Har qanday alohida ma’lum darajada umumiyligi, har qanday umumiyligi barcha alohida predmetlarni taxvinan qamrab oladi. Har qanday alohida umumiyligka to’liq bo’lmagan holda kiradi, degan xulosaga olib keluvchi umumiylilik xususiylik dialektikasini o’zida namoyon qiladi.

Leksema ma’nosini yuqoridagi kabi metodologik tamoyil asosida tadqiq etish bugungi kunda g’oyat dolzarb bo’lib qolmoqda. CHunki ayrim tadqiqotlarda leksemalardagi ana shunday dialektik munosabatning mavjudligini inkor qilish holatlari, “leksemada Bunday dialektikaning o’zi yo’q” degan fikrlar bayon qilinmoqda.

U.CHeyf ham lingvistik birliklar mazmuniy jihatdan iyerarxik tobelilik munosabatida bo’lishini ta’kidlagan edi. Uning fikricha, barcha umumiyligi qo’shilma birliklar otlar, fe’llar, iyerarxiya cho’qqisi sanaladi. Qo’shilish hajmiga ko’ra ularning har biri oraliq holatni egallagan semantik guruhlarga bo’linadi. Masalan, fe’llar harakat, holat, jarayon fe’llariga ajraladi. Xususan, *kuylamoq*, *kulmoq* holat fe’llari deb nomlanuvchi leksemalar guruhining vakillari sanaladi<sup>14</sup>. A.Novikov fikricha, har bir so’z (leksema) umumlashtiradi. Natijada u konkret narsa va hodisalar, belgi-xususiyatlar, harakat-holatlarning ham, umumlashgan obrazlarning ham nomida kela oladi. Bu esa umumiylilik-xususiylik dialektik aloqasining tilda namoyon bo’lishini ko’rsatadi.

<sup>14</sup> Чейф У. Значение и структура языка. –М., 1975.

Leksemadan keyingi birlik so'zdir. Lekin u ayrim mualliflar tomonidan til birligi sifatida e'tirof etilmaydi. So'zning asosiy til birligi ekanligini inkor etuvchilar F.de Sossyurning "Tilning konkret birliklarii so'zdan qidirmaslik kerak", -- degan fikriga asoslanadilar. So'zni til birligi sifatida inkor etish, asosiy til birligi sifatida morfemaga e'tiborni qaratish, ayniqsa, deskriptiv lingvistika vakillari asarlarida kuchaydi.

Morfema grammatik sathning minimal birligi sifatida qaralishi bilan birga, bu birlik leksik sathga ham ko'chiriladi. Amerika strukturalizmi leksik funksiyaga ega bo'lgan elementar birlikni ajratishga ehtiyoj sezmadilar. Deskriptiv lingvistikada uchraydigan so'z (word) atamasi, asosan, morfemalar zanjiri, morfologik so'z tushunchasini ifodalaydi.

L.Bluemfeld so'zning konstruksiya ekanligini ta'kidlaydi. Demak, so'z ikki va undan ortiq morfemalarning birikuvidan tashkil topgan konstruktiv birlik sifatida qaraladi. Ana shundan kelib chiqqan holda "Общее языкознание. Внутренняя структура языка" kitobida ham so'zga moqfemalar birikuvidan tashkil topgan butunlik, deb qaraladi. Unda ta'kidlanishicha, so'z morfemalarning har qanday birikuvidan emas, balki ma'lum sxema asosida (leksik morfema+grammatik morfema) morfemalar birikuvidan tashkil topgan butunlik sanaladi<sup>15</sup>.

Ko'rindiki, bu kitobda so'z til birligi sifatida, umuman, inkor etilmaydi. Uning modeli (sxemasi) so'z atamaso ostida til birligi sifatida e'tirof etiladi. Uning konkret morfemalar bilan to'ldirilgan real ko'rinishlari esa nutq birliklari sanaladi. So'zga Bunday yondashuv V.M.Solnsevga ham taalluqlidir<sup>16</sup>.

So'zga morfemalarning sintagmatik munosabatidan tashkil topgan butunlik sifatida qarash til sathlari o'rtasidagi integrative munosabatni o'zida namoyon etsa ham, lekin til faktlarini to'la qamrab ololmaydi. SHu bilan birgalikda, har qanday so'z leksema asosida, leksemaning boshqa morfemani biriktirib olishidan tashkil topa bermaydi. Leksema atash semasi bialn bog'liq. Demak, hamma leksemada

<sup>15</sup> Общее языкознание // Внутренняя структура языка. –М., 1971. С.109.

<sup>16</sup> Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование. С.264.

atash semasi mayjud bo'ladi. Ayrim so'zlar esa atash semasiga ega emas. Xususan, lekin, biroq, faqat, ofarin singarilar so'z, lekin leksema emas. Lekin yuqoridagi so'zlar ichki ma'noli qismlarga bo'linuvchanlik xususiyatiga ham ega emas. Demak, qurilmalik belgisi ham hamma so'zlarni qamrab ololmaydi.

SHuning uchun ham ayrim mualliflar so'z mohiyatini belgilashda "uning gap tarkibida erkin tartibini o'sgartira olishi"<sup>17</sup>, "avtonom sintagma ekanligi"<sup>18</sup>, "gap hosil qila oladigan va o'zi fonemalardan hosil bo'la oladigan minimal ma'noli erkin birlik ekanligi"<sup>19</sup> belgilarini asos qilib oladilar.

Praga tilshunoslari so'zni inkor etuvchilarning fikrlariga tanqidiy munosabat bidirar ekanlar, "funksional nuqtai nazaridan uning mavjudligi aniq"ligini bayon qiladilar.

So'zni til sistemasining markaziy birligi sifatida ajratilishiga SH.Balli, L.SHcherba ham shubha bildirgan edi. N.D.Arutunovning morfemani ikkilanmay belgi deb hisoblashi belgini tilning funksional birligi sifatida qaramaslikka olib keldi. Bu esa tilning belgilar sistemasi sifatidagi xususiyatiga zid keladi. SHunday ekan, morfemani alohida belgi sifatida ajratish mumkin emas. CHunki u funksional birlik emas.

B.Zveginsev ham so'zni tilning asosiy birligi ekanligini e'tirof etadi. Uning fikricha, so'zdan pastga tushsak, til tomonidan belgilangan diskret munosabatlar tashqarisida qolamiz. U har qanday so'zdan quyi birliklar nutq "texnika"sigiga oid ekanligini ko'rsatadi.

So'zning qiziq tomoni shundaki, u til egasi tomonidan oson sjratiladi, lekin tilshunoslar tomonidan qiyin aniqlanadi. So'zning ana shunday qiyin aniqlanishini asos qilib ayrim o'zbek olimlari ham uni til birligi sifatida rad etadilar. Ularning fikricha, leksema-so'z (aslida morfologik so'z) nutqiy hodisa bolib, morfemalarning nutqdagi kombinatsiyasidan hosil bo'ladi. Chunki so'zdan quyi

<sup>17</sup> Трнка Б. Дискуссии по вопросу структурализма // Звегинцев ... С.104.

<sup>18</sup> Мартине А. Основы общей лингвистики // Новое в лингвистике. III. –М., 1963. С.466.

<sup>19</sup> Бенвенист Э. Общая лингвистика. С.134.

birliklarni emik va etik birliklarga ajratsa bo'ladi. Lekin so'z bunday xususiyatga ega emas<sup>20</sup>.

Til va nutq birliklarini abstract va konkret birliksifatida qarama-qarshi qo'yish, so'zni shu oppozitsiyaga tushirib bo'lmaslik bu olimlar tomonidan so'zni til birligi sifatida mavjud emasligini asoslovchi dalil qilib keltiriladi. Aslida so'z ham shu oppozitsiyaga tushadi. Til birligi sifatida individ ongida so'zning moddiy qobig'ining umumlashgan obrazi mavjud bo'ladi. Nutqiy jarayonda bu belgi har bir so'zlovchi tomonidan yangidan yaratiladi. Belgining har safar yangi "nusxalarda" namoyon bo'lishiga so'zlovchining bu belgining bilishi va uni talaffuz qila olishi asos bo'ladi.

T.P.Lomtev F.de Sossyurning til va nutq farqlanishini turli fanlarning o'rghanish obyekti ekanligi haqidagi konsepsiyasini tanqid qilar ekan, bu chekhanishga barham berishning yagona yo'li dialektikadagi mohiyat va uning voqelanishi kategoriyasini qo'llash ekanligini ta'kidlaydi. Til-nutq zidlanishiga ana shu kategoriya asosida yondashuv bir faktni tilga, boshqa faktni nutqqa mansub degan qarashga barham beradi. Bu kategoriya nuqtai nazaridan, nutqda tilga xos bo'lмаган birliklarning bo'lishi, tilda esa nutqda voqelanmagan birlikning bo'lishi mumkin emas. Til va nutq hodisalar farqlanishi asosida emas, balki mohiyat va hodisa farqlanishi asosida bir-biridan farqlanadi. Ana shu nuqtai nazaridan so'zgina emas, balki so'z birliklari va gaplar ham til birliklari sanaladi. Barcha lingvistik birliklar til va nutq birliklari hisoblanadi: bir tomonidan ular tilga, ikkinschi tomonidan nutqqa qaratilgan bo'ladi.

Bunday nuqtai nazardan konstruksiyalarni imkoniyat sifatida tilga mansub ekanligini va uning konkret morfemik va leksik birliklar bilan voqelanishini nutqqa xos ekanligini e'tirof etish mumkin. U holda konstruksiyani ham model sifatida til sathlari bo'yicha so'z modellari, gap modellariga bo'lish ehtiyoji seziladi. So'z modellari nutq jarayonida konkret so'zlar yoki so'z shakllari, gap modellari esa jumlalar orqali voqelanadi.

---

<sup>20</sup> Ne'matov H. So'z, uning til va nutqdagi o'rni // O'zbek tili va adabiyoti, 1988. № 6.

Sintaktik sathda gap modeli uchun soddarоq qilib gap, uning nutqda voqelanishi uchun esa jumlaatamasidan foydalanish mumkin. U vaqtда til-nutq zidlanishini til sathlari bo'yicha quyidagi jadval orqali ko'rsatish mumkin:

*9-jadval*

№	Nutqiy faoliyatning tarkibiy qismlari		Til sathlari	Tilshunoslik bo'limlari
	Til birliklari	Nutq birliklari		
1.	Fonema	Tovush (fonema varianti, allofon, fon)	Fonologik va fonetik sath	Fonologiya va fonetika
2.	Morfema	Morfema varianti (morf yoki allomorf)	Morfemik sath	Morfemika
3.	Leksema	Leksema varianti (leks yoki alboleks)	Leksik sath	Leksikologiya
4.	Frazema	Frazema varianti (allofrazema)	Frazeologik sath	Frazeologiya
5.	Konstruksiya			
	5.1. So'z modeli	So'z shakli	Morfologik sath	Morfologiya
	5.2. Birikma modeli	So'z birikmasi	Sintaktik sath	Sintaksis
	5.3. Gap yoki gap modeli	Jumla		

### **2.3. Lisoniy paradigma, munosabat, ziddiyatlar va ularning turlari**

Lisoniy birliklar bir-birini eslatib turish xossasiga ega. Shu boisdan ular jamiyat a'zolari ongida bir tizimga birlashgan holda yashaydi. Masalan, *a* fonemasi *o* fonemasini, *u* fonemasi *o'* fonemasini, *i* fonemasi *e* fonemasini eslatadi. Lekin *a* fonemasi q yoki *h* fonemasini eslatmaydi. Chunki ular ikki tizim – unli va undosh tizimiga kiradi. Unlilar bir-birini unlilar tizimida, undoshlar bir-birini undoshlar tizimida eslata oladi. Hatto *u* fonemasining *ani* eslatishi o'z tizimdoshi bilan birgalikda amalga oshiriladi. Masalan, *a*, *o* fonemalari kichik, ichki tizim hosil qilib, birgalikda qolgan fonema juftliklarini eslatadi. Eslatish ikki tomonlama bo'lishi ham mumkin. Masalan, *yuz* leksemasi, bir tomondan *bet*, *chehra*, *jamol*, *oraz* kabi birliklarni, ikkinchi tomondan, *burun*, *ko'z*, *qulqoq*, *qosh*, *lab* leksemalarini eslatadi va bunda u ikki tizimning a'zosi hisoblanadi.

Bir-birini eslatuvchi birliklar umumiy, o'xhash belgi-xususiyatga ega bo'ladi. Ana shu o'xhashlik va umumiylit ularni birlashtiruvchi, bir tizimda ushlab turuvchi belgilari sanaladi. Masalan, unlilar «sof ovozga egalik» umumiy belgisi ostida birlashadi. Ammo ular farqli belgiga ham ega bo'lishi shart. Masalan, *a* «lablanmaganlik», *o* «lablanganlik» farqlovchi belgisiga ega, «kenglik» belgisi esa ularni birlashtiradi.

Umumiy belgisi asosida birlashgan va bir-birini taqozo etadigan, ammo har biri o'ziga xos belgisi bilan boshqasiga qarama-qarshi turuvchi lisoniy birliklar tizimi *paradigma* deyiladi (*paradigma* grekcha *paradeigma* – misol, *namuna* degan ma'noni bildiradi). Paradigmani tashkil etuvchi birlik *paradigma a'zosi* deb yuritiladi. Paradigmada kamida ikkita a'zo bo'lib, ular, asosan, bir lisoniy sathga mansub bo'ladi. Bir *paradigma* a'zolari orasidagi o'zaro munosabat *paradigmatik munosabat* deyiladi.

F.de Sossyur lisoniy mikrosistema va, umuman, lisoniy birlik orasidagi paradigmatic (assotsiativ, bir-birini eslatib turish, o'xhashlik) munosabatini lisoniy birlik uchun eng asosiy munosabat sifatida baholagan.

Bir paradigma tarkibiga kiradigan birliklar quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak:

- 1) paradigmadagi bitta birlik eslanganda, shu paradigmaga kiruvchi boshqa a’zo ham xotirlanishi (esga olinishi);
- 2) muayyan nutq sharoiti uchun o‘zaro paradigmatic munosabatda turgan birlikdan, ya’ni paradigma a’zolaridan bittasi tanlanishi;
- 3) bir paradigmanning a’zolari o‘zaro o‘xshashlik bilan birga, har bir a’zo ikkinchisidan qaysidir bir xususiy belgisi bilan farqlanib turishi;
- 4) paradigma a’zolari nutqda bir pozitsiyada (mavqedda) kelib, bir-birini ma’lum holatda almashtira olishi, o‘mini egallashi.

Lisoniy paradigma va uning a’zolariga nisbatan F.de Sossyur tomonidan qo‘yilgan bu talab qariyb yuz yildan beri deyarli o‘zgarishsiz saqlanib kelmoqda.

Paradigma, qamroviga ko‘ra, katta va kichik yoki tashqi va ichki paradigmaga bo‘linadi. Bu paradigmalar bir-biriga nisbatan olinadi. Masalan, undoshlar jarangli va jarangsizga bo‘linadi.

*Paradigmatik munosabat* atamasining muqobillari sifatida *o‘xshashlik munosabati, assotsiativ munosabat* atamalari ham ishlatiladi. *Tizim* so‘zi ham ko‘p hollarda *paradigma* atamasi o‘rnida ishlatiladi: *unlilar tizimi, kelishik tizimi* kabi. Jarangli va jarangsizlar alohida kichik yoki ichki paradigmaga bo‘lib, undoshlar tizimi bir butun holda ularga nisbatan katta yoki tashqi paradigmada deyiladi.

Lisoniy birliklar tizimining qaysi lisoniy sathga mansubligiga ko‘ra, *fonetik, leksik, morfologik, sintaktik paradigma* farqlanadi.

Aytilganidek, fonema tizimi va ularning ichki bo‘linishi *fonologik paradigma* deyiladi. Fonologik paradigmanning xususiyati, uni tashkil etuvchi birlikning paradigmatic munosabati xususida «Fonetika-fonologiya» bo‘limida bahs yuritiladi.

Semantik-grammatik umumiylikka ega bo‘lgan leksik birliklar lug‘aviy paradigmani tashkil etadi. Sinonimik, partonimik, giponimik, ierarxonimik, graduonimik, funksionimik qatorga birlashgan leksemalar tizimi, alohida lug‘aviy

guruh, lug‘aviy-mavzuiy to‘da, lug‘aviy-mazmuniy maydon, so‘z turkumi ham yirik (makro) paradigmani tashkil etadi. Leksik paradigma va ularda amal qiluvchi paradigmatic munosabat haqida «Leksikologiya-semasiologiya» bo‘limida bahs yuritiladi.

Morfologik kategoriya (morphologik shakllar tizimi) – morfologik paradigmadir. Morfologik shakllarning paradigmatic munosabati haqida «Morfologiya-morfemika» bo‘limida batafsil to‘xtalinadi.

Sintaktik qoliplar tizimi sintaktik paradigmani tashkil etadi. Sintaktik paradigma ikkiga – gap paradigmasi va so‘z birikmasi paradigmasinga bo‘linadi. Gap paradigmasing o‘zi ikki – sodda gap qolipi va qo‘shma gap qolipi kabi ichki (mikro) paradigmaga bo‘linadi.

*Munosabat* keng qamrovli tushuncha, bir butunlikning tarkibiy qismi – birliklari orasidagi o‘zaro aloqa va bog‘lanishni anglatadi. Bunday aloqa turlicha bo‘lishi mumkin. Quyidagi gapga diqqat qiling: *Ularning ismi – Salim va Halim*. Bundagi nutqiy birliklar turli munosabat bilan bog‘langan. *Ular* so‘zi *ism* so‘zi bilan, *u olmoshi -lar* qo‘sishchasi bilan ketma-ket, zanjirsimon aloqada. Yoki *ism* so‘zi uchta tovushning ketma-ketligidan iborat. Bunday chiziqsimon, liniyaviy ketma-ketlik aloqasi *sintagmatik aloqa* deyiladi. Sintagmatik aloqa lisonda ham, nutqda ham mavjud bo‘ladi. Masalan, *kitob* leksemasi beshta tovushning birikuvidan iborat nomemaga ega bo‘lib, *u lisoniy* birlik sanaladi. Shuningdek, yasama so‘z (*suvchi, ertapishar*), so‘z birikmasi (*kitobni o‘qimoq*)da ham birikuvchi a’zolar sintagmatik aloqada bo‘ladi.

Sintagmatik aloqani sintaktik aloqadan farqlash lozim. Sintagmatik aloqa barcha til birliklariga xos ketma-ket bog‘lanish bo‘lsa, sintaktik aloqa so‘z va gaplarning hokim-tobelik munosabati. Demak, sintagmatik aloqa va sintaktik aloqani butunlay boshqa-boshqa hodisalar deb ham, shuningdek, ularni bir-biriga aynan tenglashtirish, bir-birini qoplovchi tushuncha sifatida qarash ham mumkin emas. Sintagmatik va sintaktik aloqa butun-bo‘lak munosabatida. Boshqacha aytganda, sintaktik aloqa sintagmatik aloqaning bir ko‘rinishi.

Ko‘pincha, sintagmatik aloqani nutqqagina xos deb tushunish ham uchraydi. Bu – hodisani tor ma’noda tushunish. Yuqoridagi gapda ishtirok etayotgan birliklar orasida pog‘onali munosabat ham mavjud. Pog‘onali munosabat deganda birlikning boshqasi tomonidan qamrab olinishi tushuniladi. Masalan, *Halim* va *Karim* so‘zлari erkak kishining ismi bo‘lib, ayolning ismi bo‘lgan *Halima* so‘ziga qarama-qarshi turadi. Lekin ularning barchasini *ism* leksemasi qamrab oladi. *ism* leksemasi esa, *nom* leksemasi bilan birgalikda, *ot* leksemasi tomonidan qamrab olinadi. Uni shartli ravishda quyidagicha tasavvur qilish mumkin:

10-jadval

Ot					
Ism				nom	
<i>Halim</i>	<i>Salim</i>	<i>Gu</i> <i>Inora</i>	<i>ola</i>	<i>I</i> <i>o‘y</i>	<i>k</i> <i>itob</i>

Bu pog‘ona yuqoriga va quyiga qarab yana davom ettirilishi mumkin. Demak, *Salim*, *ism*, *ot* leksemalari pog‘onali munosabatga kirishgan. Lisoniy birliklarning pog‘onali munosabati ikki xil. Masalan, *daraxt* va *tana*, *ildiz*, *barg*, *shox* birliklarining o‘zaro munosabati *daraxt* va *olma*, *o‘rik*, *nok*, *gilos* leksemalarining o‘zaro munosabatidan farq qiladi.

Avvalgi pog‘onali munosabatda *daraxt* butunni va qolganlari qismni ifodalasa, keyingisida *daraxt* turni ifodalab, mevaning muayyan nomini ifodalovchi birliklar turning ko‘rinishi – jins sifatida namoyon bo‘ladi. Ikkinchisi munosabatdagi birliklar *daraxt* leksemasining xususiy ko‘rinishi – juz’iy lashishi. Birinchisida esa bunday munosabat mavjud emas. Shu boisdan «*Gilos daraxtdir*» tarzidagi hukmni aytish mantiqiy. Biroq «*Ildiz daraxtdir*» deyish mumkin emas.

Tilshunoslikda lisoniy birlikning butun-bo‘lak munosabati *partonimik* (*part* – qism, bo‘lak), tur-jins munosabati *giponimik* *munosabat* deyiladi. Partonimik munosabatga kirishuvchi qismni ifodalovchi birliklar *partonim*, giponimik

munosabatga kirishuvchi jins nomlari *giponim* deyiladi. Butunlik *totonim* va tur nomi *giperonim* deyiladi.

O‘xshashlik (paradigmatik) munosabati o‘zaro teng (pog‘onali munosabatdagi *daraxt* va *tana*, *daraxt* va *gilos* birliklari semantik qamrovi jihatdan teng emas edi), bir umumiy belgi asosida birlashib, qator hosil qiluvchi, ammo o‘ziga xos belgilarga ko‘ra farqlanib turuvchi birliklarning o‘zaro aloqasini ifodalaydi.

Yuqorida aytilganidek, paradigma a’zolari o‘zaro teng bo‘lib, nutqda bir xil o‘rinni egallaydi va bir xil xususiyatga ega bo‘ladi. Berilgan misoldagi *Halim*, *Karim*, *Halima* so‘zlari o‘zaro teng, bir xil o‘rinda kela oladi, biroq o‘zaro farqlarga ham ega.

O‘zaro o‘xshashlik munosabatida bo‘lgan birliklarning bir-biri bilan farqli xususiyati asosida qarama-qarshi qo‘yilishi *ziddiyat* (*oppozitsiya*), ziddiyatga kirishayotgan paradigma a’zolari *ziddiyat a’zosi* deyiladi. Ziddiyatdagi birliklar o‘zaro ma’lum bir belgi asosida qarama-qarshi qo‘yiladi. Bu belgi *ziddiyat belgisi* deyiladi.

Ziddiyat (ar.*qarama-qarshilik*: var.*oppositsiya*: lat.*oppositio-qarama-qarshi qo‘yish*) – lisoniy birliklarning ifodalanmishmidagi farqlarga muvofiq ifodalovchilarining va, aksincha, ifodalovchilardagi farqlarga muvofiq ifodalanmishlarining muhim lisoniy farqlanishi. Masalan, *b* va *t* fonemalari orasida ziddiyat mavjud bo‘lib, shunga muvofiq, *bosh* va *tosh* birliklari orasida shakliy-mazmuniy qarama-qarshilik munosabati amal qiladi. Yoki «birlik son», «ko‘plik son» orasidagi semantik ziddiyat *kitob* va *kitoblar* birliklarida ham shakliy (formal), ham mazmuniy (semantik) farqni keltirib chiqaradi.

Tabiat, jamiyat va tafakkurdagi mavjudlik va taraqqiyotning asosiy omili qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni bo‘lganligi kabi lisoniy paradigmada birliklarni bir-biriga bog‘lab turuvchi, paradigmaning yashovchanligini ta’minlovchi omil lisoniy ziddiyatdir. Demak, lisoniy ziddiyat falsafiy qarama-qarshilik birligi va kurashi qonunning tildagi xususiylashmasi, voqelanishidir.

Lisoniy ziddiyatni aniqlash yoki lisoniy ziddiyatga bunday yondashish ziddiyatli va ziddiyatsiz munosabatni farqlashni taqozo qiladi. Chunki turli lisoniy birlik va bir birlikning turli varianti orasidagi munosabat har xil tabiatli unsurlar, a'zolar orasidagi munosabatlar sifatida muayyanlashtirilmog'i lozim. Masalan, shaxs-son shakli bo'lgan *-miz* va *-siz* (*o'qiymiz* – *o'qiysiz*) har xil lisoniy morfologik birlik bo'lib, bir paradigmning turli a'zolari sifatida ziddiyatli munosabatda bo'ladi. Biroq turli farqli xossaga ega bo'lgan til oldi va til orqa *o'* unlilari bitta *o'* fonemasining variantlari sifatida fonetik jihatdan farqlansa-da, funksional jihatdan tafovutga ega emas. Chunki *o'zbek* tilida bitta *o'* fonemasi mavjud bo'lib, uning variantlari ma'no farqlash tabiatiga ega emas. Ba'zilar *o'y* so'zini aytganda, *o'ni* til oldi, boshqalar esa til orqa unlisi sifatida talaffuz qiladi. Baribir, bu so'z *o'* tovushlari qanday bo'lishidan qat'i nazar, «fikr», «xayol» ma'nolarini beradi. Lisoniy birlikning varianti orasidagi bunday munosabat ziddiyatsiz munosabat deyiladi.

Ziddiyat paradigmatic munosabatning xos ko'rinishi va xossasi sifatida sintagmatik munosabatga qarama-qarshi qo'yiladi.

Ma'lum bir lisoniy birlik mansub ziddiyatlar majmui bu birlikning paradigmatic sifatini aniqlashda, paradigmatic muayyanlashtirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Paradigmatik muayyanlashtirish birlikning boshqa birlikdan farqlanuvchi substansial tabiatini oydinlashtirish demakdir.

Tilshunoslar lisoniy ziddiyatni bir necha tomondan tasniflaydilar:

- 1) ziddiyat tizimida tutgan *o'rniga* ko'ra.
- 2) ziddiyat a'zolarining *o'zaro* munosabatiga ko'ra.
- 3) turli vaziyatda ziddiyatning amal qilishiga ko'ra.

Lisoniy ziddiyat ziddiyat tizimiga munosabatiga ko'ra, o'lchami va uchrovchanlik belgilari bilan farqlanadi.

Lisoniy ziddiyat o'lchoviga ko'ra, bir o'lchamli va ko'p o'lchamli turga bo'linadi.

Agar belgilar majmui tizimda zidlanuvchi ikki a'zo uchungina amal qilib, boshqa a'zoga tegishli bo'lmasa, bir o'lchamli ziddiyat deyiladi. Masalan, o'zbek tilidagi *l* va *h* fonemalari hosil bo'lish o'rniga ko'ra «yon» va «bo'g'iz» belgilar asosida zidlanib, bu belgi undoshlar tizimining boshqa a'zolarida uchramaydi. Chunki bu undoshlar o'zbek tili fonologik tizimida yagona yon va yagona bo'g'iz undoshlaridir.

Ko'p o'lchamli ziddiyatda zidlanuvchi birlikdagi belgi boshqa a'zoda ham uchraydi. Masalan, til oldi undoshlari bo'lgan *m* – *d* zidlanar ekan, *mdagi* «til oldi»lik belgisi *d* fonemasida ham mavjud. Bunda a'zolar boshqa belgi asosida zidlanadi.

«Uchrovchanlik» belgisiga ko'ra ziddiyat ajralgan va muntazam ziddiyatga bo'linadi. Ajralgan ziddiyatda shunday belgi asos qilib olinadiki, bu belgi boshqa ziddiyatga asos bo'la olmaydi. Masalan, unlilarning lablangan-lablanmaganlik belgisi faqat teng qiymatli ziddiyat uchun asos bo'ladi. Bunday ziddiyat «ajralgan» ziddiyat deyiladi. Lekin tilning ko'tarilish darajasiga ko'ra belgisi teng qiymatli ziddiyatga ham asos bo'lib xizmat qiladi.

Bir belgi turli a'zoni juftlab zidlash uchun xizmat qilsa, muntazam ziddiyat deyiladi. Masalan, erlik, ayollik jinsi asosidagi ziddiyat *ota-on*, *o'g'il-qiz*, *akasingil*, *chol-kampir* ziddiyatida uchrayveradi.

A'zolari orasidagi munosabatga ko'ra ziddiyat:

- a) noto'liq (privativ);
- b) darajali (gradual);
- c) teng qiymatli (ekvipotent)
- kabi turga bo'linadi.

Noto'liq ziddiyatda qarshilanuvchi a'zodan biri ziddiyat belgisiga ijobiy, boshqasi esa betaraf munosabatda bo'ladi. Masalan, *bola* va *o'g'il* leksemalarini olaylik. Ular «erkak jinsli» deb atalgan ziddiyat belgisiga ikki xil munosabat bildiradi. Bu belgi *o'g'il* leksemasi semantik tarkibida aniq berilgan, shu boisdan uning munosabati ijobiy yoki belgilangan deyiladi va shartli ravishda + belgisi

bilan beriladi. *bola* leksemasida esa jins belgisi aniq emas. Chunki uning semantik tarkibida «er» yoki «ayol» (ya’ni jins) semasi yo‘q. Boshqacha aytganda, bola o‘g‘il ham, qiz ham bo‘lishi mumkin. Shuning uchun bu leksemaning ziddiyat ko‘rsatkichiga ishorasi belgilanmagan (noma’lum, majhul) deyiladi va shartli ravishda +/– yoki 0 (nol) belgisi bilan beriladi. Bu chizmada quydagicha beriladi:

*11-jadval*

«erkak»	
<i>o‘g‘il</i> (+)	<i>bola</i> (0)

Noto‘liq ziddiyat tilning barcha sathida amal qiluvchi muhim qonuniyatdir. Masalan, morfologiyada leksemalarni umumiy grammatik ma’nosiga ko‘ra mustaqil va nomustaqil leksemaga bo‘lish privativlik asosida amalga oshiriladi. Bunda «lug‘aviy ma’no ifodalay olmaslik» noto‘liq ziddiyatning belgisi bo‘lib, ziddiyatda mustaqil leksema belgilanmagan, kuchsiz a’zo bo‘lsa, nomustaqil leksema belgili, kuchli a’zo sifatida namoyon bo‘ladi:

*12-jadval*

«lug‘aviy ma’no ifodalay olmaslik»	
nomustaqil leksemalar (+)	mustaqil leksemalar (0)

Chunki mustaqil leksema lug‘aviy ma’no ifodalashi ham, nomustaqil leksema vazifasida kelishi ham mumkin. Masalan, ot ko‘makchi, fe’l ko‘makchi, ko‘makchi fe’l va h. nomustaqil leksema kabi lug‘aviy ma’noga ega bo‘la olmaydi.

Noto‘liq ziddiyatda belgi tanlash ixtiyoriy emas. Masalan, bir qarashda yuqoridagi ziddiyatda belgini «lug‘aviy ma’no ifodalash» deb ham, «lug‘aviy ma’no ifodalay olmaslik» deb ham qo‘yish mumkindek tuyuladi. Keling, ziddiyat

belgisini yuqorida qo‘yilganidek emas, balki «lug‘aviy ma’no ifodalay olish» deb o‘zgartirib ko‘raylik:

*13-jadval*

«lug‘aviy ma’no ifodalay olish»	
mustaqil leksemalar (+)	nomustaqil leksemalar (0)

Bu to‘g‘rimi? Birinchidan, noto‘liq ziddiyatda qaysidir bir a’zo 0 (nol) belgisini olishi kerak. Oldingi ziddiyatda mustaqil leksemalar ushbu belgiga ega edi. Bunda endi nomustaqil leksemalar olishi kerakka o‘xshaydi. Yo‘q, bunday emas. Chunki nomustaqil leksema goh lug‘aviy ma’no ifodalash, goh ifodalamaslik xossasiga ega emas. Ziddiyatning ikkinchi a’zosi + belgisiga egami? U (ya’ni mustaqil leksemalar) hamisha «lug‘aviy ma’no ifodalay olish» belgisiga ega bo‘lib, boshqa xil vazifada qo‘llanila olmaydimi? Yo‘q, u bunday xususiyatga ega emas; oldingi ziddiyatda ko‘rib o‘tganimizdek, mustaqil leksema «lug‘aviy ma’no ifodalay olmaslik» belgisiga ega bo‘la oladi. – belgisiga ham ega. Demak, keyingi «ziddiyat» ziddiyat emas. Ziddiyat lisoniy birlikning mohiyatini, substansial tabiatini o‘zida aks ettirmog‘i lozim. Aks holda «sun’iy» ziddiyat kelib chiqadi. Boshqa ziddiyat kabi noto‘liq ziddiyat ham obyektiv va xohish-irodamizga bog‘liq emas.

Darajali ziddiyat a’zolari kamida uchta bo‘lib, bir belgi (ziddiyat belgisi)ning o‘sib borishiga ko‘ra a’zolar qator hosil qiladi. Masalan, tilning ko‘tarilishiga ko‘ra unli fonemalar darajalanishi quyidagicha: *a – e – i* yoki *o – o‘ – u*. Bunda belgi birinchi a’zoda kuchsiz, ikkinchi a’zoda o‘rtacha va keyingi a’zoda kuchli yoki aksincha bo‘lishi mumkin. Darajali ziddiyat ham barcha sath birliklarida uchraydi. Masalan, leksikada *ninni-chaqaloq-go ‘dak-bola...*, *turq-bashara-bet-yuz-chehra...*, morfologiyyada harakat nomi-sifatdosh-ravishdosh («fe’lni o‘zgalash darajasiga ko‘ra» belgisi asosida) kabi.

Ekvipotent (teng qiymatli) ziddiyatda ikki a'zo qarshilantirilib, har biri o'ziga xos, ikkinchisiga xos bo'lмаган belgiga ega bo'ladi. Masalan, ovoz va shovqinga ko'ra jarangli va jarangsiz undosh teng qiymatli (o'ziga xos belgiga ega bo'lган a'zoli) ziddiyatni hosil qiladi.

Muntazam (proporsional) ziddiyatda bir ziddiyat belgisi juftlangan turli birliklar uchun oppozitiv ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi. «jins» belgisi *ota-onas, aka-opa, singil-uka, tog'a-xola* lug'aviy zidlanishlari uchun umumiyligida.

Ziddiyat a'zolari miqdoriga ko'ra ziddiyat ikki a'zoli (binar) va ko'p a'zoli ziddiyatga bo'linadi. Masalan, noto'liq ziddiyat ikki a'zoli, darajali ziddiyat esa ko'p a'zoli ziddiyatdir.

Uchinchi belgisiga ko'ra ziddiyat doimiy va mo'tadillashgan ziddiyatga bo'linadi.

Mo'tadillashish jarayonida munosabatga kirishayotgan birliklar o'rtasidagi ziddiyat kuchsizlanadi. Masalan, *yot-yod* zidlanishda so'z oxiridagi *t*, *d* tovushlari jarangli-jarangsizlik bilan farqlanmaydi. *d* fonemasining nutqdagi vaziyatidan kelib chiqqan holda unda jarangsizlik belgisi kuchsizlanadi. Ammo bu sof nutqiy hodisa. Mo'tadillashish lisoniy birlikning nutqiy voqelanishida yuz beradi. Leksema va morfema ham nutqiy voqelanganda, ularning lisonda boshqa birliklar bilan ziddiyatli munosabatini belgilaydigan xossasi, belgisi kuchsizlanishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan *t* va *d* undoshlarining jarangli-jarangsizlilik belgisiga ko'ra zidlanishini yorqin namoyon qiladigan vaziyat *d* fonemasining so'z boshi va so'z o'rtasida voqelanishi. Ziddiyatni voqelantiradigan pozitsiya kuchli va uni so'ndiradigan nutqiy holat kuchsiz pozitsiya deyiladi.

### **III BOB. TIL BIRLIKLARI TAVSIFI**

#### **3.1. Lisoniy tasnif va uning turlari**

Tasnif (arabcha «saralash», «tartibga solish») narsa va predmetni aniq va doimiy o‘ringa ega bo‘lgan guruh (sinf)ga bo‘lish. Agar tasnif ilmiy asosga ega bo‘lsa, u uzoq davr mobaynida amal qiladi. Masalan, kimyoviy unsurlar tasnifi bugungi kunda ular soni 200 dan oshib ketayotgan bo‘lsa-da, o‘zgarmasdan amal qilmoqda.

Tasniflash bo‘lishdan barqaror tabiatliligi bilan ajralib turadi. To‘g‘ri, tasniflashda ham oddiy bo‘lishda amal qiladigan barcha tamoyillar asos bo‘lib xizmat qiladi. Ya’ni tasnifda ham bo‘lishdagi kabi:

- 1) tasniflangan bo‘laklar hajmi tasniflanayotgan butunlik hajmiga teng bo‘lishi;
- 2) tasnif bir asosda amalgalashishi;
- 3) tasnif (tasniflangan) guruhlari bir-birini inkor qilishi;
- 4) tasnif uzluksiz bo‘lishi, ya’ni unda «sakrash» bo‘lmashligi lozim.

Bu qoidalarni qisqacha sharhlaymiz.

##### **1. Tasniflangan guruh hajman tasniflanuvchi butunlikka mos kelishi.**

Masalan, fonema unli va undoshga, leksemalar mustaqil va nomustaqligiga leksemaga, qo‘sishimcha so‘z yasovchi va grammatik qo‘sishimchaga ajraladi. Agar tasniflangan guruh soni ancha ko‘p bo‘lsa, «va boshqalar», «va hokazo» tarzida sanashni tugatish ham mumkin. Masalan, «fe’lning mavzuiy guruhlari «harakat fe’li», «nutq fe’li», «tafakkur fe’li», «yurish fe’li» va hokazo» kabi.

Bu qoidaning buzilishi quyidagi xatolarga olib keladi:

- a) **noto‘liq tasnifda** turning barcha jinslari to‘liq sanalmaydi. Masalan, «So‘z yasovchi ot yasovchilar va fe’l yasovchilarga bo‘linadi» kabi. Chunki so‘z yasovchilar aytilganlardangina iborat emas;

b) **ortiqcha a'zoli tasniflar** tasniflangan guruqlar hajman tasniflanuvchi butunlikdan katta bo'ladi. Masalan, «unlilar lablangan, lablanmagan va bo'g'iz turlariga ega».

**2. Tasnifning bir asosda amalga oshirilishi lozimligi.** Tasniflanuvchi butunlikni guruhlarga bo'lish bir belgi, asos, mezon asosidagina amalga oshirilmog'i lozim. Masalan, so'z turkumlari uch – morfologik, semantik va sintaktik belgi asosida tasniflanishi mumkin. Lekin har bir tasnifda ularning birigagina tayaniлади. Tasnifda bunga rioya qilmaslik ikki xil xatoga olib keladi:

a) **tasnifni amalga oshira olmaslikni keltirib chiqaradi.** Masalan, so'zlar morfologik jihatdan o'zgaruvchi va o'zgarmas, semantik jihatdan avtosemantik (mustaqil ma'noli) va sinsemantik (nomustaqil ma'noli) so'zlarga bo'linadi. Lekin ularni bir paytning o'zida morfologik va semantik tasnif qilib bo'lmaydi. Chunki o'zgarmas so'z avtosemantik ham, sinsemantik ham bo'lishi mumkin. Masalan, ko'makchi o'zgarmas, sinsemantik, ravishlar o'zgarmas, avtosemantik so'z;

b) **tasnifning bir bosqichining o'zida goh u, goh bu asosni qo'llash yoki biridan ikkinchisiga o'tish tasnif izchilligiga putur etkazadi.** Masalan, ergashgan qo'shma gapning an'anaviy tasnifida tasnif dastlab sintaktik belgi asosida (ega ergash gap, kesim ergash gap, to'ldiruvchi ergash gap, aniqlovchi ergash gap) boshlanib, semantik asos bilan davom etar va tugar edi: payt ergash gap, shart ergash gap, o'rinn ergash gap, to'siqsiz ergash gap, natija ergash gap va h. An'anaviy usulda tasnif dastlab sintaktik belgi asosida amalga oshirilib, ikkinchi bosqichda semantik tasnif amalga oshirilsa, to'g'ri bo'lar edi. Masalan:

*14-jadval*

<i>Ergash gap</i>				
Ega erg. g.	Kesim e. g.	Aniqlovchi e. g.	To'ldiruvchi e. gap	Hol erg. gap
<i>Hol ergash gap</i>				
Sabab	O'rinn	Payt	Shart	Natija
				To'siqsiz
				Maqsad
				Daraja-miqdor

**3. Tasnif a'zolari (guruhlari) bir-birini inkor etishi lozim.** Masalan, undoshlar til oldi, til o'rta, til orqa, bo'g'iz, jarangli, jarangsiz turlardan iborat deyilgan tasnifda a'zolarning ayrimlari boshqalarini inkor eta olmaydi. Ya'ni jarangli undosh til oldi undoshi bilan zidlana olmaydi, til oldi va til o'rta undoshlari bir-birini inkor etish xossasiga ega.

**4. Tasnifda sakrash bo'lmasisligi lozim.** Agar «kesim sodda kesim, murakkab fe'l kesim, murakkab ot kesimga bo'linadi» tasnifini amalga oshirsak, xatoga yo'l qo'ygan bo'lamiz. Chunki dastlab kesimni sodda va murakkabga, so'ngra fe'l va ot kesimga bo'lish to'g'ri hamda izchil tasnifni beradi.

Tasnifning bo'lishdan farqi shundaki, bo'lishda a'zolar guruhanishi shart emas. Masalan, «lablanmagan unlilar *i, e, a* dir» deyish tasnif emas, balki bo'lishdir. Tasnif xarakteriga ega bo'lish uchun *i* yoki *a* guruh (sinf) bo'lib, o'z navbatida, yana bo'linib ketishi lozim edi. Unlilarni lablangan va lablanmagan unliga bo'lish tasnif bo'lib, lablanmagan yoki lablangan unlini bo'lish oddiy bo'lish bo'lsa-da, tasnif maqomida emas.

Tasnif dixotomik, politomik yoki dixopolitomik bo'lishi mumkin.

Dixotomik tasnifda birliklar ikki guruhga ajratiladi: «fonemalar unli va undoshga ajraladi» kabi. Politomik tasnifda guruh soni ikkidan ortiq bo'ladi: «Grammatik qo'shimcha lug'aviy shakl hosil qiluvchi, sintaktik shakl hosil qiluvchi va lug'aviy sintaktik shakl hosil qiluvchiga bo'linadi» yoki «fe'llar nutq fe'llari, ruhiy-holat fe'llari va h.k.» kabi.

Dixopolitomik tasnifda tasniflanuvchi butunlik dastlabki bosqichda ikkiga, keyingi bosqichda ikkidan ortiq sinfga ajraladi. Masalan:

15-jadval

Fonema					
Unli			Undosh		
Yuqori tor	O'rta keng	Quyi keng	Lab	T il	B o'g'iz

kabi.

Tasnif asosini tanlash muhim. Chunki biror tizimni turli asosda tasnif qilish har xil natija beradi. Masalan, undosh fonemani ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra jarangli va jarangsizga, hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra lab, til, bo‘g‘iz undoshiga ajratish mumkin.

Lisoniy tasnif tasniflanayotgan birliklarning ichki, substansial belgilariga ko‘ra yoki muhim bo‘lmagan zohiriy xossasiga asoslangan bo‘lishi mumkin. Shu boisdan tabiiy yoki yordamchi tasnif farqlanadi. Tabiiy tasnifda lisoniy birlikning ichki, barqaror belgilariga asoslaniladi. Yuqorida tabiiy tasnifga misollar keltirildi.

Yordamchi tasnifda birlilikning ontologik bo‘lmagan xossasini bildiruvchi belgilariga tayanoladi. Masalan, «so‘zlarning bo‘g‘in sonlariga ko‘ra tasnifi (bir bo‘g‘inli, ikki bo‘g‘inli va ko‘p bo‘g‘inli so‘zlar)», «unlilarning tilning gorizontal holatiga ko‘ra tasnifi» va h.

Tasnif izchilligi – substansial yondashuvning asosiy talablaridan biridir.

Til birliklari adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Bu xususdagi fikrlar taraqqiyoti asosn quyidagicha:

1. 1953-yilda chop etilgan “Rus tili grammatikasi”da ushbu masalaga alohida e’tibor berilgan, “Asosiy til birliklari” sarlavhasi ostida quyidagi hodisalar tubandagi tertibda qisqacha izohlangan: gap, birikma, so’z, morfema, bo‘g‘in, nutq tovushi yoki fonema.<sup>21</sup> Ushbu akademgrammatikaning 1952-yilgi nashrida<sup>22</sup> “Nutq quyidagilarga bo‘linadi” deyilib, yuqorida tilga olingan hodisalardan tashqari, gap bilan birikma oralig’ida sintagma ham keltirilgan edi, 1953-yil nashrida bu hodisa haqida fikr yuritilmagan, bir yil oralig’ida avtorlarning fikri o’zgargan.

Bundan qat’i nazar, avtorlar nutqdan lisonga tomon boorish, butunni qismlarga ajratish, ya’ni analiz yo’lini tanlagan.

2. A.A.Реформатский «элементы структуры языка» deb to’rt hodisani ko’rsatadi: 1) nutq tovushi (aniqrog’i: fonema), 2) so’z o’zagi (umuman:

<sup>21</sup> Грамматика русского языка. I. Изд.АН. –М.: 1953, 9-12 (Ушбу қисмнинг авторлари – Л.В.Щерба ва В.В.Виноградов).

<sup>22</sup> Грамматика русского языка. I. Изд.АН. –М.: 1952, 8.

morfema), 3) so'z, 4) gap<sup>23</sup>. Olim o'z fikrini noyob bir misol bilan asoslaydi: nutq tovushini (fonemani) (i) tarzida, shu tovushning o'zi bilan ifodalangan so'z o'zagini (morfemani) i- tarzida, so'zni i tarzida yozib ko'rsatadi. SHundan keyin “Болше в языке ничего не бывает и не может быть” degan qat’iy fikrni aytadi<sup>24</sup>. Demak, A.A.Reformatskiy, “Akademgrammatika – 53” dan farqli holda, birikma va bo'g'inni til qurilishining elementlari deb qaramaydi. Olim birikma va bo'g'inni til hodisalari sifatida inkor etmaydi: asarning 189-192-betlarida bo'g'inni, 325-330-betlarida *sintagma* termini bilan atagan holda birikmani tasvirlagan; lekin birikmani va bo'g'inni til elementlari qatoriga kiritmagan. Afsuski, Bunday yondashishning sabablari aytilmagan. Bo'g'in til qurilishining elementi deb qaralmasligini anglash qiyin emas: mohiyati jihatidan bo'g'in nutq tovushining o'zi, undan alohida, farqli mohiyatga ega emas. To'g'ri, bo'g'in nutq tovushi bilan miqdoran teng kelishi ham, kelmasligi ham mumkin (A.A.Reformatskiy misolida bo'g'in bilan nutq tovushi teng kelib turibdi: (i) ayni vaqtida bo'g'in ham); olim ishlatgan *element* terminining o'zida birinchi bo'g'in bir tovush bilan, ikkinchi bo'g'in ikki tovush bilan, uchunchi bo'g'in to'rt tovush bilan ifodalangan. Bo'g'in tarkibida necha tovush bo'lishidan qat’iy nazar, ular mohiyat jihatidan nutq tovushiligicha qoladi.

Aytilganlar asosida bo'g'in diqqat-e'tiborga loyiq hodisa emas degan xulosa chiqarmaslik kerak. CHunki tillar (til oilalari) o'zaro leksemalarning, leksemashakllarning bo'g'in tuzilishiga ko'ra farqli belgi xususiyatlarga ega. Masalan, turkiy tillarda, shu jumladan o'zbek tilida, leksemaning boshlanishida (demak, bo'g'in boshida) ikki ovozdor, ovozli yoki shovqin tovush ketma-ket kelmaydi; ko'p bo'g'inli leksemalarning, leksemashakllarning bo'g'lnlarga ajratilishida ham o'ziga xos jihatlar mavjud va hokazo. A.A.Reformatskiyning nuqtai nazari bularni rad etmaydi, faqat bo'g'in til qurilishining elementi statusiga

<sup>23</sup> Реформатский А.А. Введение в языкоковедение. «Просвещение». –М.: 1967, 28.

<sup>24</sup> Yuqoridagi asar, 29.

ega emasligigina nazarda tutiladi. A.I.Smirnitskiyning yondashuvi yuqoridagi ikki yondashuvdan keskin farqlanadi.

A.I.Smirnitskiy asarida til hodisalari ma'lum belgi-xususiyatlariga qarab guruhlanadi. Bu yerda dastlab tovush (nutq tovushi) boshqa hodisalardan ajratiladi va “tilning qurilish birligi, to'g'rirog'i – til birliklarining qurilish birligi” deb baholanadi<sup>25</sup>. Nutq tovushi, fonema til birligi bo'la olmasligi, chunki ular o'zicha ma'no bildirmasligi, til birligi bo'la olmasligi, chunki ular o'zicha ma'no bildirmasligi, til birliklari uchun moddiy qobiq bo'libgina xizmat qilishi ta'kidlanadi<sup>26</sup>.

Til birligi bo'lish uchun esa Bunday birlik, birinchidan, tovush qobig'iga ega bo'lishi va ma'lum ma'noni bildirishi, ikkinchidan, ma'lum ma'no ma'lum tovush qobig'iga tilda (til xotirasida) birkitilgan bo'lishi, nutqqa tildan tayyor holda olib ishlatilishi lozim<sup>27</sup>. Ana shunday birliklar sifatida A.I.Smirnitskiy “tilning leksik birliklari” nomi bilan so'zni («отдельное слово») va Bunday so'z tarkibiga kiruvchi morfemalarni ko'rsatadi<sup>28</sup>. Bulardan tashqari, nutqda tuzilmay balki tilda tayyor holda mavjud bo'lgan frazeologik birlik, tarkibli termin kabi murakkab qurilishli birliklarni ham til birliklari qatoriga qo'yish lozimligini aytadi<sup>29</sup>.

So'zlarning erkin birikmalari, shu jumladan, gaplar til birligi bo'la olmasligini, chunki bular bevosita nutqning o'zida yuzaga kelishini alohida ta'kidlaydi<sup>30</sup>.

So'zni misol sifatida keltirib, tarkibli birliklarda, tovush qobig'iga ega birliklardan tashqari, ularni tuzish formulalari ham mavjud bo'lib, bunday formulalar ham til birligi deb qaralishini aytadi<sup>31</sup>.

Xullas, A.I.Smirnitskiy asarida til hodisalari birin-ketin sanalmay, quyidagicha tasniflangan: I) til birliklarining qurilish birligi: nutq tovushi; 2) til

<sup>25</sup> Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. –М.: 1956, 14.

<sup>26</sup> YUqoridagi asar, 13.

<sup>27</sup> YUqoridagi asar, 13.

<sup>28</sup> YUqoridagi asar, 16.

<sup>29</sup> YUqoridagi asar, 16.

<sup>30</sup> YUqoridagi asar, 14.

<sup>31</sup> YUqoridagi asar, 19.

birliklari: a) so'z, b) ayrim morfemalar, v) frazeologik birlik, tarkibli termin, g) formulalar; 3) til birliklari bo'la olmaydigan hodisalar (nimagadir "nutq birligi" terminini ishlatmagan): so'zlarning erkin birikmalari (shu jumladan gap). Demak, A.I.Smirnitskiy til qurilishiga tuzum (sistema) sifatida yondashgan, til hodisalarini o'zaro aloqada, bog'lanishda olib baholagan, shu asosda chuqur ilmiy tasnif yaratgan.

4. V.I.Koduxovning fikricha, til birliklarini bajaradigan vazifasiga ko'ra uch turga: nominativ, kommunikativ, qurilish birliklariga ajratish kerak<sup>32</sup>.

Olim tilning asosiy nominativ birligi deb so'zni keltiradi, qavslar ichida bu birlikni leksema deb ham nomlaydi; asarining 184- betida esa so'z termini bilan **leksema** termini teng kelavermasligini, **в**, **бы** so'z-u, lekin leksema emasligini aytadi, leksema termini bilan nominativ birlikkina nomlanishini ta'kidlaydi. Xuddi shu yilda nashr qilingan "Русский язык. Энциклопедия" kitobiga yozgan maqolasida, so'zdan (leksemadan) tashqari, tarkibli nominativ birliklar ham mavjudligini aytib, frazeologizm, tarkibli termin, tarkibli nomlarni (наименование) ham tilga oladi va har biriga misol keltiradi<sup>33</sup>.

Tilning kommunikativ birligi deb garni, uning sintaktik namunasini ("синтаксический образец") aytadi<sup>34</sup>. "Русский язык" kitobidagi maqolasida bu birlikni gar termini bilan atab, "garning sintaktik namunasi" izohini bu yerda emas, uchinchi tur deb ajratgan birliklari - qurilish birliklari (строевые единицы) qatorida gar modeli deb keltiradi<sup>35</sup>.

Tilning qurilish birliklari deb fonema, morfema, so'z formalari (формы слов), birikma formalari (формы словосочетаний) hodisalarini sanaydi." "Русский язык" kitobidagi maqolacida nimagadir so'z formasini tushirib qoldirgan, "so'z yasash modelilini" qo'shgan, "формы словосочетаний" o'rniga "модели словосочетаний и предложений"ni bergen<sup>36</sup>. Bir yil davomida shu qadar ko'r

<sup>32</sup> Кодухов В.И. Введение в языкознание. –М.: 1979, 105.

<sup>33</sup> Русский язык. Энциклопедия. –М.: 1979, 80.

<sup>34</sup> Koduxov V.I. Vvedeniye..., 105.

<sup>35</sup> Russkiy yazik..., 80.

<sup>36</sup> Koduxov V.I. Vvedeniye..., 105.

o'zgartishlarning kiritilishi olimning til birliklari haqidagi qarashlari hali muqimlashmaganidan darak beradi.

V.M.Solnsev o'zining "Лингвистический энциклопедический словарь"га yozgan maqolasida ("Советская энциклопедия".-М: 1990, 149, 150) til birliklarini til qurilishinig turli vazifa va maъnoga ega elementlari deb taъriflash bilan boshlaydi. Til birliklari material birliklar, nisbiy-material ("относительно-материальные") birliklar va ma'no birliklari (единицы значения) deb uchga guruhlanishini aytadi.

Material birliklar doimiy tovush qobig'iga ega bo'lishi taъkidlanib, "fonema, morfema, so'z, gar va boshqalar" deb sanaladi. Ko'rindiki, "material birlik" termini "segment birlik" termini o'rniga ishlatilgan. Fonema, morfema segment ("material") birlik ekani shubhasiz, lekin so'z va gar material birliklar sifatida noaniq izohlangan. Bular "nisbiy-material birliklar" qatorida ham tilga olinib, o'zgaruvchan tovush qobig'iga ega bo'lishi aytildi, bunda so'z, birikma, gap tuzish modeli ko'zda tutilishi ta'kidlanadi.

Avvalo, til hodisalarini bunday ikki xil sanashda mutanosiblik yo'q: birikma faqat ikkinchi tur birliklar qatoridagina keltiriladi. Ikkinchidan, ayni bir til hodisasining ikki holati boshqa-boshqa, alohida til birligi - material birlik va nisbiy-material birlik deb qaralgan, bir til birligi sun'iy ravishda ikki til birligiga parchalangan.

O'zbek tilida yozilgan asarlarda til birliklarini bayon qilish kamdan-kam uchraydi. Til va nutq zidlanishi birliklarini va nutq birliklarini guruhlash va ularni birma-bir izohlash Hamid Ne'matov bilan Odil Bozorovlar yozgan "Til va nutq" nomli risolada o'z aksini topdi<sup>37</sup>. Bu asarda "korrelyat nisbiy mustaqil birliklar" izohi bilan til birliklari va nutq birliklari quyidagicha tartiblangan:

Til birliklari	Nutq birliklari
Fonema	Tovush, fon (harf) bo'g'in
Morfema	affiks (qo'shimcha), morf

<sup>37</sup> Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. -T.: "O'qituvchi", 1993.

Leksema Konstruksiya (model)	so'z (leks) so'z forma; so'z birikmasi; gap; mikrotekst; makrotekst
---------------------------------	---

Jadvalda fonema til birligi (mavhum birlik) deb, tovush esa uning konkret korrelyati sifatida nutq birligi deb ko'rsatilgan. Aslida formaga konkret korrelyat deb avtorlar tilga olgan fanni aytish to'g'ri: fonemaning nutqda namoyon bo'lувчи holatiga fon deyiladi. Fon yonida qavslarga olib "harf"ning ko'rsatilishi noo'rini: harfni hech kim nutq birligi deb qaramaydi, harf nutq birligi bo'l mish fanni yozuvda ifodalash vositasi xolos.

Nutq birliklari qatorida sanalgan bo'g'inga til birliklari qatorida korrelyat yo'q, demak, bo'g'inni bu jadvalga kiritish o'rini bo'luman. Avtorlar fonetik birliklarni qamrab olishni maqsad qilgan bo'lsa, masalan, urg'uni ham ta'kidlash lozim edi. Bunga urg'uning nosegment birlik ekanı monelik qilgan deb o'ylasak, masalan, boshqa nosegment birliklar (birikma, gan) ta'kiddangan. Xullas, bo'g'in fonetik birlik ekaniga shubha yo'q, lekin mohiyatiga ko'ra uni nutq birliklari qatoriga kiritib bo'lmaydi.

Fonemani til birliklari qatoriga kiritish asosan to'g'ri, lekin tovushni fonemaning nutqiy korrelyati deb ko'rsatish ma'qul emas. Fonemaga xos deb sanalgan "unlilik, torlik, lablanmaganlik", "Undoshlilik, shovqinlilik, jaranglilik, portlovchilik, labda hosil bo'lismilik" kabi belgililar til tovushiga xos, talaffuz xususiyati ham fonemaga emas, til tovushiga xos<sup>38</sup>. Demak, birlamchi til birligi deb asli til tovushlarining ko'rsatilishi to'g'ri, fonema esa til tovushiga (artikulyatsion-akustik tavsifdan tashqari) vazifa jihatidan (funktsional jihatdan) yondashuvni aks ettiradi. Til birliklarini o'zaro farqlab beruvchi til tovushlariga (tovush tipiga) fonema deyiladi. Demak, "til tovushi" – keng tushuncha, "fonema" – "til tovushi"ga nisbatan tor tushuncha; shunga ko'ra tovushni fonemaning korrelyati deb baholash to'g'ri emas. Xullas, til tovushdan boshlanadi; fonemadan emas; til tovushi boshqa til hodisalari uchun moddiy asos bolib xizmat qiladi. Til

<sup>38</sup> Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. 12, 8.

tovushi **til** birliklarining ifoda jihatni vazifasini bajarishiga ko'ra fonemaga teng bo'ladi. Til tovushi, A.I.Smirnitskiy ta'kidlashicha, tom ma'nodagi til birligi emas, chunki u faqat ifoda jihatiga teng; fonema ham faqat ifoda jihatiga teng; lekin til tovushi - birlamchi, fonema unga nisbatan ikkilamchi hodisa.

Jadval asosida morfemaga korrelyat deb faqat morfnigina tan olish mumkin; affiks (qo'shimcha) esa morfemaning turlaridan biri. Demak, bu erda ham til birligi – nutqbirligi munosabati noto'g'ri ko'rsatilgan.

Jadvaldag'i "leksema"ga "leks" korrelyat. Leks nimagadir qavslarga olib yozilibdi, natijada "leks" go'yo "so'z"ning boshqacha nomi deb tushuntirish voqe bo'lgan. "So'z"ni "leksema"ning korrelyati deyish to'g'ri emas: leksema bilan so'z bu erda ishlatilgan ma'nosida o'zaro qism bilan butun munosabatini aks ettiradi. Demak, leksemaning nutqiy korrelyati deb leksning o'zini ta'kidlash to'g'ri.

Navbatdag'i til birligi "konstruktsiya (model)" deb nomlangan va uning nutqiy korrelyati deb so'zforma, so'z birikmasi, gap, mikrotekst, makrotekst sanalgan.

Mikrotekst, makrotekst ganlarning turlicha birlashmasidan iborat, demak, bular gapdan farqli hodisalar emas, shunga ko'ra ularni til birliklarining nutqiy korrelyatlari qatorida ta'kidlashga o'rinn yo'q.

So'zforma, so'z birikmasi, gap nutq birliklari deb to'g'ri sanalgan, lekin bularning til birliklari korrelyatini "konstruksiya (model)" deyish yetarli emas. Chunki, masalan, so'zforma modeli so'z birikmasi modelidan keskin farq qiladi. Demak, til birligi sifatida so'zforma modelini, birikma modelini, gap modelini alohida-alohida ta'kidlash lozim va boshqalar.

### **3.2. Тил бирликларининг тавсифи**

I. Til murakkab qypilishli ijtimoiy hodisa bo'lib, kishilarga fikrlash, fikplashyv quroli sifatida xizmat qiladi. Dastlab tilning ikki holati farqlanadi: lison va nutq.

**Lison** - tilning kishi miyasidagi til xotirasi markazida mavjud birliklardan va ulardan foydalanish qoidalaridan iborat boylik. Nutq esa ana shu boylikdan foydalanish jarayoni *va* shunday jarayonning hosilasi. Lisoy kishi miyasida mavjud mavhum hodisa bo'lib, uni aql bilan idrok qilamiz; nutq esa ana shu mavhum hodisadan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan moddiy hodisa bo'lib, uni talaffuz birliklari sifatida eshitamiz.

II. Iison tili asosini tovush tashkil qiladi: tilda bor hodisalar tovushlarda reallashadi. Tovush til birligi sifatida boshqa til birliklari uchun qurilish birligi bo'lib xizmat qiladi. SHunga ko'ra til tovushi til birliklarining birllamchi ifoda jihatni deyiladi.

Til tovushi lisoniy birlik sifatida miyadagi til xotirasi markazida ma'lum **bir** ramz sifatida aks etadi. Ana shu ramzda til tovushiga xos belgi-xususiyatlar haqida axborot bo'ladi. Masalan, **u** tovushi haqida "ovozdan iborat", "og'iz bo'shlig'i tor holatda", "tovush hosil bo'lish oralig'i til sathining orqa qismida", "lablar aktiv qatnashadi" kabi axborot bor. Inson faoliyatini, shu jumladan, til faoliyatini ham boshqaruvchi miya markazidan **u** tovushini aytish haqida "ko'rsatma" (impuls) berilsa, shu tovushning ramzida mujassamlashgan axborotga binoan tovush hosil qilish a'zolari harakatga kelib, ko'rsatmaga binoan ma'lum holat egallaydi va o'pkadan chiqayotgan havo ma'lum nutq tovushi sifatida, nutqiy birlik sifatida namoyon bo'ladi.

Til tovushiga uch xil: artikulyatsiyasi, akustikasi va vazifasiga ko'ra baho beriladi. Tovushning akustik xususiyatlari artikulyatsiyasi xususiyatlariga bog'liq, shunga ko'ra bularni birlashtirib, artikulyatsion-akustik xususiyatlar haqida gapiriladi. Bunday xususiyatlar fizik-fiziologik xususiyatlar deb ham yuritiladi. Til tovushining artikulyatsion-akustik xususiyatlari haqidagi axborot miyaning til xotirasi markazida aks etgan ramzlarda mavjud bo'ladi.

III. Til tovushlariga vazifasiga ko'ra baho berish bilan fonema nazariyasi yuzaga keldi. Fonema ham til tovushi, lekin har qanday tovush fonemaga teng bo'lavermaydi. Til tovushlari tizimi shu tildagi fonemalar tizimidan ko'p bo'ladi

deyiladi: **har** bir til tovushi o'z belgi-xususiyatlarini qisman o'zgartirib, bir necha ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, **uyqu-** birligi oxiridagi unli an'anaga binoan **u** harfi bilan yoziladi, amaliyotda esa bu yerda **u** tovushidan ko'ra i tovushini aytish ko'pi uchraydi. Demak, **uyqu-** birligi oxiridagi **u** tovushi i tovushi tarzida ham talaffuz qilinadi. Bu erda ikki xil tovush talaffuz qilinishiga qaramay til birligi **aynan** saqlanadi, boshqa til birligi 6o'lib qolmaydi. Ko'rindiki, bu til birligining til xotirasidagi ramzi tarkibida uning oxiridagi unli ikki xarf **u** va i tovushlari tarzida talaffuz qilinishi haqida axborot bor.

IV. Til tovushi va fonemani alohida-alohida birliklar deb qarash to'g'rimi yoki bularga ayni bir birlik deb qarash kerakmi?

Adabiyotlarda dastlab tovush, nutq tovushi ta'kidlanib, shuning yonida "yoki fonema", "aniqrog'i-fonema" kabi qo'shimcha izohlar berilgan bo'lsa, keyinchalik til birliklari qatorida faqat fonema ko'rsatilib, til tovushi bu qatordan tushirib qoldiriladigan bo'ldi. To'g'ri, til tovushi ham, fonema ham bir tomonlama birlik: til birliklarining ifoda jihatni bo'lib xizmat qiladi. Bunday vazifa fonemaga olib berilganiga qaramay, **til** tovushi **til** qurilishining birlamchi birligi ekani yo'qqa chiqmaydi. Bundan tashqari, til govushi asosida voqe bo'ladi bo'g'inni hisobga olsak, **til** tovushini alohida til birligi deb qarash asosli ekani ko'rindi (Supersegment deb baholanadigan **urg'u** hodisasi ham til tovushi asosida voqe bo'ladi).

Xullas, til birliklarining **qurilish ashyosi** sifatida til tovushlari mavjud, ularni til birliklarining qurilish birliklari sifatida ajratish kerak; **til tovushi** lisoniy birlik sifatida **til** xotirasidagi **ramzlarga** teng, nutqiy birlik sifatida esa aniq; bir tovushga (talaffuz birligiga) teng. Fonema esa **til tovushlaridan** til birliklariga **ifoda** jihatni bo'lib kelishi orqali ularni bir-biridan farqlovchi til birligi sifatida ajratiladi.

V. Birlamchi til birliklari umumlashtirib morfema termini bilan nomlanar edi, keyinchalik morfema terminini grammatik ma'no ifododalovchi birlikning

nomi sifatida ishlatib, leksik birlikni **leksema** deb nomlashga o'tildi. Bu ikki til birligidan leksema asosiy, yetakchi, morfema esa yordamchi.

Til birligi sifatida leksema ifoda va mazmun jihatlarining bir butunligidan iborat. Tub deb qaraluvchi leksemalarda ularning ifoda jihatni bo'lib fonemalar xizmat qiladi.

Til xotirasida har bir leksemaning til birligi sifatida o'z ramzi bo'uladi, ana shu ramz asosida leksema nugqda talaffuz birligi sifatida namoyon bo'ladi. SHunga ko'ra bu til birligi lisoniy birlik holatida **leksema** deb, nutqiy birlik holatida esa **leks deb** yuritiladi.

Til birligi sifatida leksemaning ifoda jihatni bir necha ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin. YUqorida keltirilgan uyqu- -uyqi-, **obod-** - **obot-**, **singil-** - **singl-** misollarida u - **i**, l - **t**, **i** - **0** allofonemalari asli ushbu leksemalar tarkibida voqe bo'ladi, demak, allofonemalar shu tildagi tovush o'zgarishlari qoidalariga binoan ma'lum leksemalarga bog'liq holda yuzaga keladi.

Leksema tub bo'lsagina, uning ifoda jihatni bo'lib fonema xizmat qiladi. Agar leksema hosila birlik bo'lsa, ifoda jihatni sifatida uni tarkib toptiruvchi til birliklari xizmat qiladi. Ana shu tarkib toptiruvchilar tub bo'lsa, ularning ifoda jihatni bo'lib fonema xizmat qiladi. Masalan, **qo'lla-** leksemasi hosila (yasama) birlik bo'lib, **qo'l-** va **-la** til birliklarilan tarkib topgan, bu birliklarning ifoda jihatni bo'lib fonemalar xizmat qilgan.

VI. Ikkinci til birligi - morfema. Tub morfemada uning ifoda jihatni bo'lib fonema xizmat qiladi {-la, -i kabi); hosila morfemada esa uni tarkib toptiruvchi til birliklari, odatda, ikki morfema xizmat qiladi (-la, + -n = -lan kabi). Morfemaning mazmun jihatni leksemaning mazmun jihatidan soddarroq: faqat signifikativ vazifa bajaradi: grammatik ma'no bildiradi.

Ko'rindiki, leksema bilan morfemani tenglashtirish, birlashtirish mumkin emas. Tub leksema bilan tub morfema orasidagi o'xshashlik har ikkisida ifoda jihatni bo'lib fonema xizmat qilishida, har ikkisida ma'lum bir fonema(lar)ga ma'lum bir mazmunni birkitish orqali til birligi yuzaga kelishida namoyon bo'ladi.

Til birligi uchun muhim jihat – mazmun jihatni nuqtai nazaridan leksema bilan morfema keskin farq qiladi. Bu ikki birlik til qurilishining boshqa-boshqa bosqichlariga mansub ekanligi ham ularning ayrim-ayrim birliklar ekanini tasdiqlaydi.

**VII. Ishga (ishka), bargga (barkka)** kabi misollar asli leksema bilan morfemadan tuziladigan til birligiga teng. Bunday birliklar **so'z** termini bilan atab kelindi, hozir esa bular leksemaning (ko'pchilik manbalarda **so'zning** deyiladi) ma'lum grammatik shaklga kirishi deb qaralib, oldinroq **so'zsh1akl (slovoforma)** deb, eng oxiri **leksemashakl (leksemaforma)** deb nomlana boshladi.

Til birligi deb leksemashaklni tuzish modeliga (qolipiga) aytildi. Miyaning til xotira markazida ana shunday modellarning ramzi mavjud va **u** leksemashaklning lisoniy birlik holatiga teng; ushbu ramzlarning (modellarning) leksema va morfema bilan to'ldirilgan holati esa nutqiy birlik deyiladi.

Leksemaning (sememaning) mazmun jihatida, ideografik semalardan tashqari, turkumlik semasi ham mavjud bo'lishini aytgan edik. Leksemaga qanday morfemalarning qaysi tartibda qo'shilishi avvalo ana shu turkumlik semasiga binoan voqe bo'ladi.

Ot turkumiga mansub leksemaga (sememaga) odatda son morfemasi va kelishik morfemasi qo'shiladi, shunga ko'ra ot leksemashaklning modeli "leksema + son morfemasi + kelishik morfemasi"ga teng. Masalan, **qo'l-** leksemasiga **-lar** morfemasi (sonlovchi) va **-da** morfemasi (turlovchi) qo'shilib, **qo'llarda** leksemashakli yuzaga keladi. Zaruriyatga qarab ot leksemaga egalik morfemasi (nisbatlovchi) ham qo'shiladi va bu morfema son va kelishik morfemalari oralig'ida joylashadi: **qo'l + lar +im + da** kabi. Bu uch tur morfemadan ot leksemashakl tarkibida egalik morfemasining qatnashuvi majburiy emas, buni modelda quyidagicha qavslarga olib ko'rsatish mumkin: "leksema + son morfemasi (+ egalik morfemasi) + kelishik morfemasi".

**VIII. Leksemashakldan yirik tuzma til birligiga birikmashakl** deyiladi. Birikmashakl -- supersegment birlik. Miyaning til xotirasi markazida birikmashakl

modellarining ramzi mavjud; ana shu modellar leksemashakl va leksema bilan to’ldirilib, nutqiy birlik holatiga o’tadi.

Birikmashakl odatda ikki a’zodan iborat bo’ladi va bu a’zolar o’zbek tilida **tobe X hokim** sintaktik aloqasini aks ettiradi. Ushbu modelning birinchi a’zosi lsksemashakl bilan, ikkinchi a’zosi esa leksema bilan ifodalanadi: **leksemashakl X leksema**. Leksemashakl bilan ifodalangan a’zo sintaktik bo’lak darajasida grammatik shakllangan bo’ladi, ikkinchi a’zo esa sintaktik bo’lak darajasida grammatik shakllanmaydi; bu a’zoning tarkibida ayrim morfema qatnashuvi mumkin, lekin sintaktik bo’lak darajasida grammatik shakllanish ro’y bermaydi. Masalan, **qo’lini qis-** birikmasi **ot** leksemashaklning fe’l leksemaga tobelanishi asosida yuzaga kelgan. Bu birikma tarkibidagi fe’l bilan ifodalangan hokim a’zoning (asli birikmaning bir butun holda) qanday grammatik shaklga kirishi navbatdagi sintaktik bog’lanishda (nutq situatsiyasida) ma’lum bo’ladi. Masalan, **qo’lini qisdim** kabi.

IX. Eng muhim til birligi deb gap (aniqrog’i - gapshakl) ta’kidlanadi, chunki tilning asosiy vazifasi – fikr bildirishga gapshakl bilan erishiladi. Gapshakl ham supersegment birlik. Miyaning til xotirasi markazida gapshaklning modellari ramz sifatida mavjud, ana shu modellar leksemashakllar bilan to’ldirilib, nutqiy birlik holatiga o’tadi. Demak, bu yerda iyerarxik munosabat leksemashakl bilan gapshakl orasida mavjud.

Gapshakl asosan ikki a’zodan iborat bo’ladi va bu a’zolar **hokim X tobe** sintaktik aloqasini aks ettiradi. Ushbu modelning har ikki a’zosi leksemashakl bilan ifodalanadi: **leksemashakl X leksemashakl**. Bu a’zolar gap bo’lagi mavqeiga ega bo’lib, ega, kesim deb nomlangan. O’zbek tilida ega bo’lak vazifasidagi leksemashakl bosh kelishikda bo’ladi. Kesim bo’lakka ega bo’lak bilan bog’liq holda shaxs-son ko’rsatkichi (tuslovchi) qo’shiladi. Mavjudlik, mayl / zamon ko’rsatkichlari esa obyektiv vogelikka ko’ra qo’shiladi. Masalan, **Sen gapirmading** misolida ega bo’lak II shaxs birlik kishilik olmoshi bilan ifodalangan, shunga ko’ra kesim bo’lakka II shaxs birlik ma’nosini ifodalovchi **-ng**

morfemasi qo'shilgan; kesim tarkibidagi mavjudlik (**-ma**), zamon (-di) ko'rsatkichlari esa obyektiv vogelikka binoan tanlab qo'shilgan.

Ko'rindiki, gap bo'lish uchun zarur grammatik ko'rsatkichlar kesim bo'lak tarkibida joy oladi, shuni hisobga olib kesim bo'lak gapning Grammatik markazi deyiladi.

X. Nihoyat, o'ziga xos belgi-xususiyatlari bilan ajralib turuvchi yana bir til birligi mavjud bo'lib, **frazeologik birlik**, **frazeologizm** kabi terminlar bilan nomlangan; bu til birligini leksema, morfema terminlariga monand ravishda frazema deb nomlash ma'qul.

Frazemaning ifoda jihatni birikmashaklga, gapshaklga teng, lekin farqli. Frazema birikmashaklning (gapshaklning) modeliga emas, balki bunday modelning til birliklari bilan to'ldirilgan holatiga teng: bevosita nutqiy birlik sifatidagi leksemashakl, leksema qatnashadi. SHunga ko'ra frazema segment birlik hisoblanadi. Masalan, **ko'z(n)ni och-** frazemasi **leksemashakl X leksema** modelining **vositasiz to'ldiruvchi X to'ldirilmish** ko'rinishining **ko'z(i)ni leksemashakli** va **och-** leksemasi bilan to'ldirilgan holatiga teng.

Sintaktik birlik sifatida birikmashakl, gapshakl konkret leksemashakl bilan, leksema bilan nutq jarayonining o'zida to'ldiriladi. Frazemani yuzaga keltirishda birikmashaklning, gapshaklning nutq jarayonida leksemashakl bilan, leksema bilan to'ldirilgan holatidan foydalilanildi.

### 3.2.1. Til birliklari

Tilning ichki tuzilishini til birliklarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Til birliklari har qanday tilning tayanchi, u orqali ikkinchi signal sistemasi hisoblanuvchi til mavjud bo'ladi. Til birliklarisiz til tuzilishining mavjud bo'lishi mumkin emas.<sup>1</sup> Tilning funksiyalanish jarayonida til birliklaridan nutqiy hosilalar vujudga keladi.

---

<sup>1</sup> Солнцев В.М. Язык как системно-структурное обозование. М., 1971, с.140.

SHu kunga qadar tilshunoslikda til birliklarini deyarli barcha tilshunoslar e'tirof etsa ham, lekin qaysi birliklar til birliklari hisoblanishi yuzasidan turlituman fikrlar yuritiladi.

Xususan, amerika deskriptiv tilshunosligida til birliklari sifatida fonema, morfema va konstruksiyalar e'tirof etiladi.<sup>1</sup> Morfema atamasi so'zning qismlari (o'zak va qo'shimchani) ham ma'noli qismlarga bo'linmaydigan mustaqil so'zlarni ham, yordamchi so'zlarni ham qamrab oladi.<sup>2</sup>

Fonema tilning ifoda sistemasining minimal birligi, morfema esa tilning ifoda sistemasining ma'no bilan bog'langan asosiy birligi sifatida baholanadi. Ularning fikricha, tilning qolgan birliklari morfemalar qo'shiluvidan (aranjirovkasidan) hosil bo'ladi. SHuning uchun ular til sathida qo'shilish modellariga ega bo'ladi. Ana shu qo'shilish modellari konstruksiya hisoblanadi.

Boshqa tilshunoslar esa fonema, morfema, leksema, so'z va gap (gapning struktur sxemalari)larni til birliklari qatoriga qo'shadilar va til birliklarini ikki guruhga ajratadilar: a) tilning asosiy birliklari (fonema, morfema), b) tilning konstruktiv birliklari (so'z, gap).

SH.Rahmatullaev til birliklari yuzasidan bayon qilingan fikrlarga o'zining munosabatini bildirgan holda, fonema, leksema, morfema, leksemashakl, birikma shakl (so'z birikmasi qolipi), gap shakl (gap qolipi), frazemalarni ajratadi. Bulardan fonema til birliklarining qurilish birligi, leksema va morfema tilning birlamchi (asosiy) birliklari, leksemashakl, birikma shakl, gap shakl (tuzma) birliklar, frazema esa yirik til birligi hisoblanadi. Muallif fonemani til birligining ifoda jihatni bo'lib keluvchi va shu jihatni bilan til birliklarini o'zaro farqlashga xizmat qiluvchi birlik sifatida tushuniladi. SH.Rahmatullayevning bu birliklarni ajratishi uchun til sathlari asos bo'ladi. Muallif *leksema* atamasi ostida leksik ma'no ifodalovchi morfemani, *morfema* atamasi ostida esa faqat grammatik ma'no

<sup>1</sup> Глисон Г. Введение в дескриптивную лингвистику. М., 1959, с. 40-43. YAna qarang. Ne'matov H., BozorovO. Til va nutq. -Toshkent, "O'qituvchi", 1993, 12-b.

<sup>2</sup> Rahmatullayev SH. Til qurilishining asosiy birliklari. -Toshkent. "Universitet" 2002, 16-b.

ifodalovchi va so'z yasovchi morfemalarni tushunadi.<sup>39</sup> *Morfema* atamasini ana shunday tor ma'noda qo'llashni A.Martine ham taklif qilgan edi<sup>40</sup>.

Har qanday til birligi nutq jarayonida bir qancha nutq birliklari (variantlar) orqali namoyon bo'ladi: fonema fonlar (allofon, tovush) orqali, leksema leks (aloleks, leksema varianti), morfema morf (allomorf, morfema varianti), so'z so'z shakli, gap jumla, allofrazema orqali namoyon bo'ladi.

### **3.2.2. Fonologik sath birligi**

Fonologianing birligi fonemalardir. Fonema grek tilidagi *tovush*, *ovozi* ma'nosini anglatuvchi til tovush qatorining birligi. Fonema - so'z va morfemalarni shakllantiradigan va ularning ma'nolarini farqlash uchun xizmat etuvchi, boshqa mayda bo'lakka bo'linmaydigan tilning eng kichik tovush birligi. Fonemalar haqidagi ta'limot fonologiyadir. Fonologiya ma'lum bir tildagi fonemalar sistemasini, ularni farqlash belgilarini o'rGANADI.

Fonemaning maqomi masalasida xilma-xil qarashlar bor. Fonema tilning eng kichik birligi ekanligi haqidagi dastlabki ma'lumot I.A.Boduen de Kurtenega mansubdir. Lekin bungacha sharq tilshunosligida garchi fonema termini bilan nomlanmagan bo'lsa ham, lekin ma'no farqlash uchun xizmat qiladigan eng kichik tovush tipi haqidagi tushuncha mavjud edi. Hind tilshunoslari, turkiyshunoslari bu tushunchaga alohida ahamiyat bergenlar. Xususan, Mahmud Koshg'ariy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburlar tovushning ma'no farqlari tomoniga katta ahamiyat bergenlar.

*Fonema* termini tilshunoslikka Boduen de Kurtene tomonidan kiritildi. Boduen de Kurtene 1870-yildagi «XIX asrgacha bo'lgan qadimgi polyak tili haqida» nomli magistrlik dissertatsiyasida fonema haqida fikr yuritadi va uni etimologik – morfologik birlik sifatida talqin etadi. Boduen de Kurtenening

<sup>39</sup> Рахматуллаев Ш. Тил қурилишининг асосий бирликлари. Тошкент, 2002, 16-бет.

<sup>40</sup> Мартине А. Основы общей лингвистики. Новое в лингвистике. Ш, М., 1969, с.379.

fonema haqidagi bu konsepsiysi uning shogirdi N.V.Krushevskiy tomonidan rivojlantirildi. Natijada Boduen de Kurtenening fonema haqidagi tushunchasi o'zgarib bordi. Xususan, «Slavyan tillari qiyosiy grammatikasining ayrim bo'limlari» (1981y) asarida fonemani, bir tomonidan, «so'zning fonetik bo'linmas qismi» hisoblasa, ikkinchi tomonidan, morfemalar tarkibidagi tovush o'zgarish qonuniyatlarini hisobga olgan holda boshqa mayda bo'lakka bo'linmaydigan tovushlargina emas, balki morfema yoki so'zning tarkibida bo'lakka ajralmaydigan bir butun holdagi ikki va undan ortiq tovushlar ham fonema bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu bilan u fonemaga fonetik birlik sifatida emas, balki etimologik birlik sifatida qarashini namoyish etdi. SHu bilan birga xuddi shu yerning o'zida fonemaning quyidagi ikki farqli tomoni borligini ham ko'rsatadi:

- 1) antropofonik (ya'ni akustik- artikulyasion) xususiyatlarning oddiy umumlashmasi, morfemaning harakatlanuvchi komponenti;
- 2) ma'lum morfologik kategoriya belgisi.

SHunday qilib, Boduen de Kurtene fonemaning morfologik aspektidan farq qiladigan antropofonik aspekti ham borligini e'tirof etdi. Keyinchalik esa u o'zining fonema haqidagi tushunchasini o'zgartirdi va unga psixologik nuqtai nazardan yondashdi.

### **3.2.2. Morfema va uning turlari**

Morfema grekcha *morphe* – *shakl* ma'nosini bildiruvchi tilning asosiy birliklaridan biri. Ma'lum fonetik shaklga (ifodalovchiga) aniq ma'no (ifodalanmish) teng keladigan minimal birlik sifatida boshqa shu turdag'i birliklarga ajralmaydi. Morfema nutqiy matnni ikki tomonlama – tilni belgilariga ajratuvchi birinchi bo'linishning (A.Martine) mahsuli sifatida o'zi

bilan muayyan bir ierarxik qatorga joylashgan va bir tomonlama formal bo'linish sanalgan ikkinchi turdag'i bo'linishning mahsuli bo'g'indan farq qilishi bilan xarakterlanadi.

L.V.SHcherbaning ta'kidlashicha, tilshunoslikka "morfema" atamasini I.A.Boduen-Kurtene olib kirgan. U bu atama orqali so'zning eng kichik ma'noli qismini belgilagan. Uning fikricha, uzviy bog'liq muayyan nutq gaplarga yoki iboralarga, gaplar so'zlarga, so'zlar morfologik bo'g'inlar yoki morfemalarga, morfemalar fonemalarga bo'linadi. U N.Krushevskiy ilmiy qarashlari tahliliga bag'ishlangan asarida "Nutqni gaplarga, gaplarni so'zlarga, so'zlarning morfologik birliklarga bo'linishiga qarshi fikr yuritish mumkindir... Ammo morfologik birlikda (Kurtene uni "morfema" deb nomlaydi) bu bo'linish tugaydi".

Tilshunoslikda deskriptivistlarning qarashlari bilan bog'liq morfemaning yana bir talqini uchraydi. Ushbu keng tarqalgan talqin bo'lib, ularning ta'limotlarida "morfema" atamasi faqat so'z qismlarinigina emas, balki so'zlarni ham belgilaydi. U so'zlarning tahlilidagina emas, balki morfemalarning turlicha birikuvlari sifatidagi so'z birikmalari va gaplarning tahlilida ham ishlataladi. Buning natijasida so'z tushunchasini grammatik tahlildan chiqarib tashlash va morfemani tilning asosiy birligi sifatida belgilash tendensiyasi vujudga keldi.

Morfemani bunday tushunish F.de Sossyurdan boshlangan. Uning ta'kidlashicha, tub va bo'linmas birlik bo'lган har qanday so'z ibora a'zosi, ya'ni sintaktik faktidan farq qilmaydi: uni tashkil etuvchi sath biriklarining tartibi so'z birikmalari hosil qilishning asosiy tamoyillariga bo'ysunadi.

SHunga asoslanib til biriklarining sistem xususiyatlarini ko'rib chiqishda "morfema" atamasini u belgilagan biriklarni tilning boshqa biriklaridan farqlash mumkin bo'lган nuqtai nazardan qo'llash kerak.

V.M.Solnsev morfema atamasini turli manbalarda bir-biridan farq qiluvchi muayyan belgilar asosida ajratilishini hisobga olib, ularni umumlashtirgan holda quyidagicha izohlashni taklif qiladi:

- 1) Vandriyes morfemasi uchun asosiy xarakterli jihat yordamchilikdir, ya’ni morfema sifatida tilning ohang, urg’u va birliklarning joylashish imkoniyatini e’tiborga oluvchi vositalar tushuniladi;
- 2) Blumfeld morfemasi uchun asosiy xususiyat minimallikdir: morfemalar til sistemasidagi o’rni va boshqa birliklarga bo’lgan munosabatidan qat’i nazar, eng qisqa, ma’noli qismlardir;
- 3) Boduen morfemalari uchun eng xarakterli tomon ularning til sistemasidagi o’rni va boshqa birliklarga munosabati asosidagi minimallikdir: morfemalar so’zning minimal ma’noli qismlaridir.

G.Paulъ ma’noli so’zlar faqat morfemalarninggina emas, balki barcha turdagи yordamchi so’zlarning rivojlanishi uchun asosdir. Uningcha, predlog va bog’lovchilar mustaqil so’zlar asosida yuzaga keladi.

Turk va fin-ugor tillarining strukturasini tadqiq qilib, B.A.Serebryakov muayyan xulosaga keladi va so’z hamda so’z birikmalarining tarixiy o’zgarishini tahlil qilish asosida uch xil kategoriyanı ajratadi:

- a) leksik ma’noli so’zlar;
- b) so’z-qurilmalar (konstruktlar);
- v) morfemalar.

U morfemalarning tarixan to’la leksik ma’noli so’zlar bo’lganligini, hozirda bu imkoniyatini yo’qotganini ko’rsatib o’tadi.

Morfemaga nisbatan so’zning birlamchiligi zamonaviy tillarda ham e’tirof etiladi, o’z tarkibidan morfemalarga ajratilmagan so’zlarning mavjudligi haqidagi muammoni o’rtaga tashlash imkonini beradi. So’z va morfema

munosabatlarini yuqoridagi holda diaxron aspektda o'rganish ular o'rtaсидаги муносабатларни синхрон планды текширилганды хам yetarlicha samara beradi.

Til muayyan ichki tuzilishga ega bo'lgan butunlik sanalib, uning sathlari o'zaro uzviy aloqada ekanligi e'tirof etilsa, morfemikaning birligi bo'lgan morfemaning boshqa sath birliklari bilan chambarchas munosabatini hisobga olish zarur. YA'ni fonetika morfemika bilan, morfemika morfologiya bilan uzviy bog'lanadi.

Har qaysi quyi sath birliklari o'zidan bir pog'ona yuqori bo'lgan sath birligi uchun material sifatida xizmat qiladi. Har qanday birlik o'zining haqiqiy funksiyasini yuqori sath birligi doirasida namoyon qiladi. Ushbu holat til tuzilishining ko'p sathliligi natijasidir.

Morfemalarning sintagmatik munosabatga kirishuvi ijtimoiy-ruhiy, umumiyligi birlikni – invariantni real talaffuz qiluvchi, bevosita kuzatishda namoyon bo'luvchi, sezgi a'zolarimizga ta'sir etuvchi ma'lum variantlar holida ifodalanishini ko'rsatadi. Morfemalar ham bevosita kuzatishda yondosh allomorflarning fonetik tuzilishiga moslashgan holda qator variantlariga ega bo'ladi. Jumladan, o'zbek tilidagi jo'naliш kelishigining til sistemasidagi invariant holati faqat bitta morfema (-ga) bilan belgilansa-da, -ga, -ka, -qa, -a singari variantlari mavjud. Bu variantlarning har biri o'ziga xos qo'llanish imkoniyatiga ega ekanligi turlicha qurshovlarda yuzaga chiqadi. Bu variantlarning barchasi tilning sistema – funksiya munosabatidagi butunlik ekanligini, invariant-variantlilik, umumiylilik-xususiylik, mohiyat-hodisa dialektikasining tilda namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

D.Nabieva ilmiy manbalarda til ichki tuzilishini sathlarga ajratishning ikki tamoyili asosida leksik sath va uning birligiga ikki xil nuqtai nazardan qaralishini, til birligiga qarab sathlarga ajratish tamoyiliga ko'ra morfemik sathdan so'ng uning birligi leksema hisobga olinishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, leksema alohida til birligi sifatida qaraladimi yoki morfemaning bir turi

sifatida qaraladimi, bundan qat'iy nazar, u til sistemasida mayjud va barcha til birliklari singari o'zining funksiyalashish jarayonida imkoniyat va vogelik, umumiylilik-xususiylik dialektikasini o'zida namoyon etadi.

Morfema, avvalo, binar tamoyilga ko'ra, leksik morfema va grammaatik morfemalarga (grammemalarga) bo'linadi<sup>1</sup>. Bu ikki morfema o'zaro privativ zidlanish munosabatida bo'ladi. Biri belgiga ega, ikkinchisi bu belgiga ega emas. Grammatik morfemaning o'zi leksik morfemaga qo'shilishi va grammaatikalizatsiya darajasiga ko'ra ikkiga bo'linadi: 1) affiks morfemalar; 2) yordamchi morfemalar.

Ayrim mualliflar yordamchi morfemalarning leksik morfemaga qo'shilish tabiatiga ko'ra ikkiga bo'ladilar; 1) segment morfemalar; 2) ustsegment morfemalar. Ma'no farqlash uchun xizmat qiluvchi urg'u, ohang kabi fonetik vositalar ustsegment morfemalar sanaladi.

Morfemalarning yuqoridagi ko'rsatilgan ikki turi leksik morfemaga qo'shib, grammaatik ma'no ifodalash va leksik morfemani so'z shakl sifatida shakllantirish xususiyatiga ko'ra umumiylikni hosil qiladi: *Senga, sen uchun, sen bilan* so'z shakllari tarkibidagi – *ga, uchun, bilan* kabilar so'zni fonetik shakllantirish, yaxlitlik nuqtai nazaridan bir xil; masalan, so'z urg'usi kelishik qo'shimchasi va ko'makchilarni o'zakka yaxlitlash uchun kelishik, ko'makchilarga ko'chadi. Natijada, urg'u so'zning fonetik chegarasi kelishik va ko'makchilar ekanligini, bu morfemalar ham so'z shakl tarkibiga kirishini ko'rsatadi.

Bu jihatdan yuklama va bog'lovchilar kelishik va ko'makchilardan farq qiladi. YUklama morfemalar urg'usiz bo'lib, leksik morfemaga enkliza holida qo'shiladi. Urg'u leksik morfemaning oxirgi bo'g'inida qolib, yuklama morfemaga o'tmaydi. Bog'lovchilar esa bir so'z shaklini ikkinchi so'z shakli bilan munosabatini ham bildiradi va o'zaro bog'lanib kelayotgan lisoniy birliklar bilan fonetik yaxlitlikni tashkil etmaydi. Bu esa yordamchi morfemalarning yuklama va bog'lovchi turlari

<sup>1</sup> Гак В.Г. Теоритическая грамматика французского языка//Морфология. М., 1979, С.9; Дегтаров В.И. основы общей грамматики. Ростов на-Дону, 1973, С.9.

bilan affiks morfemalar zidlanishining ikki chegara qutbida ekanligini, ko'makchilar esa bu ikki qutbning oralig'ida ekanligini ko'rsatadi. Lekin yuklama va bog'lovchilar so'z shakl sinfiga (morfologik so'zga) kirmaydi. CHunki yuklama va bog'lovchilar qurilmalik xususiyatiga, tarkibi morfemalarga bo'linish xususiyatiga ega emas.

Affiks morfemalar ham leksik morfemaga qo'shilib qanday hosila paydo qilishiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi: 1) yangi leksema yasovchilar (derivasion morfemalar); 2) yangi so'z shaklini yasovchilar (relyasion morfemalar). An'anaga ko'ra, birinchisi so'z yasovchilar, ikkinchisi shakl yasovchilar hisoblanadi (shakl yasovchilar o'z ichida yana bo'linish xususiyatiga ega). Bu ikki morfema ham o'zaro privativ oppozisiyaga kirishadi.

Leksik morfema bilan grammatick morfemalar atash ma'nosining borligi yoki yo'qligi jihatidan privativ oppozitsiyaga kirishib, zidlanishning ikki chegara qutbida tursa, undov, modal va mimemalar bu zidlanuvchi a'zolar o'rtasida oraliq bo'g'inni hosil qiladi. Undov, modal birlik, mimemalar ichki ma'noli birliklar munosabatidan tashkil topgan va bo'linish xususiyatiga ega bo'lган qurilma emas. Demak, ularni so'z shakl sirasiga kiritib bo'lmaydi. SHuning uchun u alohida ma'noli birlik sifatida morfemik sath birligidir. Leksik morfema bilan grammatick morfema o'rtasidagi oraliq tipdir. Nutq tarkibida yangi sifatga ega bo'lib shaklsiz so'z sifatiga muayyan sintaktik vazifa bajarishi, ba'zan gap bo'lib kelishi ham mumkin.

### **3.2.4. So'z yasalishi**

Til lug'at tarkibining boyib borishida so'z yasalishi muhim faktorlardan biri. So'z yasalishi va so'z yashash usullari masalasi uzoq vaqtlardan buyon tilshunoslarning diqqat-e'tiborini tortib keldi va hozirda ham shunday bo'lib qolmoqda. Hozirgi kunda so'z yasalishi masalasi tilshunoslikning alohida bo'limi

sifatida deyarli barcha tilshunoslar tomonidan e'tirof etildi<sup>1</sup>. Tildagi so'z yasalishi jarayoni va uning barcha umumiy hamda xususiy ko'rinishlari, qonuniyatlari tilshunoslikdagi ana shu bo'limning o'rganish ob'ektidir. O'zbek tilshunosligida, turkologiyada, rus tilshunosligi va boshqa tilshunosliklarda bu soha bo'yicha jiddiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Ma'lumki, har qanday so'z yasalishi motivlovchi baza (yasalish asosi) va motivlanuvchi so'zlarning muayyan motivasiya vositasi (formant) orqali motivasiya munosabatiga kirishuvi natijasidir. Demak, har qanday so'z yasalishi uch elementning munosabatidan tashkil topadi: yasalish asosi + yasovchi vosita = yasalma. Bu erda birinchi va uchinchi elementlar ma'lum bir tilning muayyan bir (sinxron) davrida mustaqil leksik birliklar sifatida namoyon bo'ladi. Ayni chog'da, bu leksik birliklar o'zaro motivatsiya munosabatida bo'ladi. Agar so'z yasash formanti birdan ortiq bo'lsa, u vaqtida so'z yasash zanjirini hosil qiladi. Bunday so'z yasash zanjirida motivasiya darajasi namoyon bo'ladi. So'z yasash zanjiri uzoqlashgan (cho'zilgan) sari motivlovchi baza bilan motivatsiya munosabati kuchsizlana boradi. Motivasiya darajasiga ega bo'lgan so'zlarda bevlosita va bilvosita motivasiya munosabatini farqlash mumkin. Albatta, yasovchi formant motivasiya bazasidan qanchalik uzoqlashsa, shunchalik yuqori darajadagi motivasiya ro'y beradi<sup>2</sup>. Ikki elementning faqat bir formant orqali motivasiya munosabatida bo'lishi bevlosita, formantlar yig'indisi orqali shunday munosabatda bo'lishi esa bilvosita motivasion munosabat sanaladi.

SHubhasiz, motivlovchi baza (yasalish asosi) ham, motivlanuvchi (yasalma) ham o'zlarining alohida-alohida, bir-biridan farq qiladigan, ammo biri ikkinchisi bilan bog'liq ob'ektiv reallikdagi denotatlariga va ongdagi signifikatlariga ega bo'ladi. Masalan, *temirchi* so'zi (eksponenti)ning denotati metall bilan shug'ullanuvchi shaxs, signifikati shunday shaxslar haqidagi tushuncha bo'lib, bu so'z -chi motivatsiya vositasi orqali obyektiv reallikdagi qattiq jism-metallning bir

<sup>1</sup> Ayrim turkologlar Bunday e'tirof u qadar ham asosli emasligini aytadilar. *Qarang*: Басқаков Н. А. О границах словообразования и словаизменения в тюркских языках.— «Советская тюркология», 1986, 2-сон, 3-бет.

<sup>2</sup> *Qarang*: Русская грамматика. Ч. I. М., 1980, с. 133.

turi (denotat) va u haqdagi tushuncha (signifikat)ni ifoda etuvchi *temir* (eksponent) motivlovchi bazasidan hosil bo'lgan. Ana shuning uchun ham so'z yasalishi muayyan tilning lug'at tarkibida mavjud bo'lgan ma'lum bir so'zdan ma'lum vosita (yoki usul) orqali yangi so'zning hosil qilinishi. ya'ni ikki so'z munosabatidir. Demak,, o'zaro motivasiya munosabatida bo'lgan har qanday element (yasalish asosi ham, yasalma ham) so'z uchun xos bo'lgan har uchala element (denotat, signifikat, eksponent)ni o'zida aks ettirishi va bu uch element, har ikki so'zda boshqa-boshqa, alohida ifodalanishi shart.

So'z yasalishida yasalma yasashga asos bo'lgan birlikdan nafaqat leksik- semantik jihatdan, balki grammatik semantika jihatidan ham farq qilishi mumkin. Bu o'rinda bir turkumdagi so'zdan boshqa turkumga oid so'zning yasalishini esga olishning o'zi kifoya (*ish* — ot, *ishla* — fe'l).

SHu narsa ham muhimki, har bir tilda shu tilga xos bo'lgan regulyar so'z yasash tiplari (modellari) mavjud. SHuning uchun ham muayyan so'z yasash tipi asosida hosil bo'lgan so'zlar (masalan, affiksatsiya usuli bilan hosil bo'lgan so'zlar) yo motivlovchi baza asosida yoki yasovchi formant asosida o'zaro paradigmatic munosabatga kirishib, so'z yasalishi sistemasini hosil qiladi.

So'z yasalishi dunyo tillarining barchasi uchun ham xos bo'lgan universal hodisadir. Albatta, dunyo tillarining barchasida so'z yasalish usullari yoki etakchi so'z yasash usuli aynan bir xil emas, so'z yasash usullaridan qaysi birining etakchi bo'lishi ayni tilning fonetik-grammatik xususiyati bilan bog'liq. Masalan, xitoy tilining o'ziga xos ana shunday xususiyatiga mutlaqo muvofiq ravishda bu tilda so'z asosan kompozisiya usuli bilan yasaladi. O'zbek tilida esa, ma'lumki, kompozitsiya usuli ham, affiksatsiya usuli ham mavjud, ammo o'zbek tilining tabiatiga ko'ra bu tilda so'z yasashning yetakchi usuli affiksatsiyadir.

V.M.Solnsevning ko'rsatishicha, ajratuvchi tillarda (vyetnam, xitoy va boshqa) bo'g'in morfologik qimmatga ega — morfema yoki sodda so'zning tovush qobig'i sifatida alohida tovush emas, balki faqat tonga ega bo'g'in qaraladi, «ana shuning oqibatida bunday tipologiyadagi tillarda ayrim tovushlardan

tuzilgan abbreviaturalar mavjud bo'lmaydi»<sup>1</sup>. Demak, umuman, qisqartma so'zlarni hosil qilish imkoniyatlari ham dunyo tillarida bir xil emas, bu imkoniyatlar ma'lum tillarda juda chegaralangan.

So'z yasalishi hosil bo'lish nuqtai nazaridan ijtimoiy xarakterga ega va juda qadim zamonlardan ma'lum. SHuning uchun ham muayyan yasalma so'z, garchi yaqinda yasalgan yangi so'z bo'lsa ham, shu tilda gaplashuvchilarining hammasi uchun tushunarli bo'laveradi, qo'shimcha izoh talab qilmaydi, chunki motivlovchi baza shu tilning umumiylug'at fondidan qat'iy o'rinni olgan bo'ladi va natijada bu tilning so'z yasash modeli asosida boshqa so'zlarning vujudga kelishida asos rolini bajaradi.

Turg'un birikma tegishli qisqartma so'zning fonida turadi. Qisqartma so'zning qaysi ma'noda qo'llanayotganligi shu fonga qiyoslash yo'li bilan belgilanadi. Masalan, *GUM* bir o'rinda «главный универсальный магазин», ikkinchi o'rinda «городское управление милиции» turg'un birikmalari bilan assotsiativ bog'lanadi.

Davrlar o'tishi bilan qisqartma so'z shu tilning faol leksik birligiga aylanishi natijasida uning turg'un birikma bilan bo'lgan munosabati xiralashishi mumkin. Bunday so'zning ma'nosini bilish uchun fonga qiyoslashga ehtiyoj sezilmaydi. Bunday so'zlar shu tilning lug'at fondidan mustahkam o'rinni olgandan so'ng boshqa so'zlarning hosil bo'lishi uchun motivlovchi baza ham bo'lishi mumkin. Faqat shunday holatlardagina tom ma'nodagi so'z yasalishi haqida gapirish mumkin. Turg'un birikmani odatdagi qisqartirish bilan qisqartirish orqali nom shakllantirishni mutlaqo farqlash lozim. Masalan: *lavsan* (material nomi) ayni material dastlab yaratilgan laboratoriya nomi (Лаборатория Высокомолекулярных Соединений Академии Наук)ning qisqartirilishi asosida yuzaga kelgan, ammo bu so'z qisqartma so'z emas (etimologik jihatdangina qisqartirish bilan bog'lanadi), balki yangi yaratilgan odatdagi sodda so'z, shuning

---

<sup>1</sup> Солнцев В.М. Язык и письмо.— В кн.: Амирова Б.А. Функциональная взаимосвязь письменного и звукового языка. М., 1985, с. 13-14.

uchun ham laboratoriya nomidan iborat turg'un birikma bilan assosiativ aloqaga ega emas, denotatlari har xil (tola, laboratoriya). Bunday holatlar (yaqinda Farg'onada yaratilgan sun'iy tolaga «neylon», «paralon» kabilarga analogiya tarzida *fergalon* deb berilgan nom va boshqa shu kabilalar) qisqartma so'zlar bilan aloqador emas.

YUqoridagi aytilganlardan ko'rindiki, qisqartma so'zlar tom ma'nodagi so'z yasalishidan tubdan farq qiladi, ular so'z yasalishi natijasi emas. Qisqartma so'zlarning paydo bo'lishi muayyan denotat va signifikat ifodachisi bo'lган turg'un birikmaning formal ixchamlashuvi natijasidir, bunda mohiyat, semantika mutlaqo o'zgarishsiz qolaveradi. Faqat formagina ixchamlashib, kommunikativ aloqa tezligi uchun qulaylashadi. Bu sportchining mashg'ulot oldidan kundalik kiyimi (kostyum, tuqli va hokazo)ni ixcham va qulay sport formasiga almashtirganiday gap. SHuning uchun qisqartma so'zlarning hosil bo'lishini funksional forma yasalishi, so'z yasalishi va boshqa hodisalardan farqlagan holda «variasion forma yasalishi» deb qarash nazariy jihatdan to'liq asosga ega.

So'z yasalishi bilan bog'liq munozarali masalalardan yana biri sonlarning ma'no turlari va bu turlarning yasalishi bilan aloqadordir.

Hozirgi paytda o'zbek va boshqa turkiy tillarga oid adabiyotlarning deyarli hammasida son semantik jihatdan, avvalo, 2 gruppaga — sanoq (yoki miqdor) va tartib sonlarga, sanoq sonlar esa, o'z navbatida, 5 ta gruppaga: dona, jamlovchi, chama, taqsim va kasr sonlarga ajratiladi, ayni paytda, sonning har bir semantik turining yasalishi va bundagi yasovchi qo'shimchalar tasviriga keng o'rinn beriladi. Bu hol rus tili grammatikalarida ham ko'zga tashlanadi.<sup>1</sup> Ammo rus tili grammatikasiga bag'ishlangan keyingi ilmiy-nazariy ishlarda sonlarning bunday semantik klassifikaesiyasi u qadar nazariy asosga ega emasligi aytiladi va birmuncha yangicha qarash ilgari suriladi. Xususan, I.G.Miloslavskiy sonlarni semantik jihatdan sanoq (количественное) va jamlovchi (собирательное)

---

<sup>1</sup> Карапе: Голанов И. Г. Морфология современного русского языка, с. 126—135.

sonlarga ajratadi, tartib sonlarni esa sifat turkumiga kiritib, «порядковое прилагательные» deb nomlaydi<sup>2</sup>.

O'zbek tili faktlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, son turkumi doirasida so'z yasalishi yo'q va ko'rsatilgan «son turlari»ni hosil qiluvchi ko'shimchalar so'z yasovchilar emas. Masalan: *besh + inchi — be-shinchi* yasalishida motivlovchi baza (*besh*) bilan yasalma (*beshinchi*) alohidadan denotat va signifikatga ega emas.

Bu erda ham xuddn *oq+qar-oqar* (suv) tipidagi kabi funksional forma yasalishidan boshqa narsa yo'q. *Beshinchi* shaklidagi yasalishda ham son sifatga yaqin semantik-grammatik xususiyat kasb etadi, tartibli miqdor nuqtai nazaridan belgi ifodalanadi. Sonning boshqa «tur»larining yasalishida ham mohiyatan ana shunday hodisa namoyon bo'ladi. Hech kimga qorong'i emaski, son turlarini yasovchi qo'shimchalar deb qaralgan affikslar (-ta, -ala, -tacha va hokazo) semantik jihatdan yangi son (so'z) yasamaydi, o'zakda ifodalangan miqdorni mutlaqo o'zgartirmaydi, balki ana shu miqdorga qo'shimcha ma'no ottenkasi beradi. Ana shu nuqtai nazardan qaralsa, sonlarning «semantik turlari» deb atalayotgan sonlar (tartib, chama, taqsim va boshqa) fe'l doirasidagi (sifatdosh, ravishdosh kabi) va ot turkumi doirasidagi (chevara formasi, qarashlilik formasi kabi) funksional formalardan mutlaqo farq qilmaydi.

YUqorida aytilgancha o'zi ko'rsatib turibdiki, son turkumida haqiqiy ma'nodagi so'z yasalishi yo'q. Bu turkum doirasida faqat funksional forma yasalishigina mavjud. Bu formalar quyidagilar: 1) donali miqdor formasi, 2) tartibli miqdor formasi, 3) jamlovchi miqdor formasi, 4) taxminiy miqdor formasi, 5) taqsimli miqdor formasi, 6) kasrli miqdor formasi.

Demak, funksional forma yasalishi, shuningdek, variasion forma yasalishi o'z mohiyatiga ko'ra so'z yasalishidan mutlaqo farq qiladi, ularni qorishtirish juda ko'p boshqa nazariy yanglishishlarga olib kelishi tabiiy. Til hodisalari o'rganilar ekan, shu til faktlarining obyektiv va jiddiy tahlili birinchi planda turmog'i lozim. B.A.Serebrennikov ta'kidlaganiday, «til hodisalariga materialistik yondashuv tilni

<sup>2</sup> Милославский П. Г. Морфологические категории современного русского языка. М., 1981, с. 123.

qanday bo'lsa, xuddi o'shandayligicha, uning mohiyatini noto'g'ri aks ettiruvchi har qanday idealistik qo'shimchalarsiz o'rganishni nazarda tutadi»<sup>1</sup>.

### 3.2.5. Leksik sath birligi

Leksik sath birligi leksemadir.

**So'z** va **leksema** atamalari ko'p hollarda aralash holda qo'llanadi. Lekin ular bir-biridan farq qiladi. **Leksema** semema va nomemalarning o'zaro munosabatidan tashkil topgan butunlik sanalib, uning mazmuniy mundarijasi atash, ifoda va vazifaviy semalar munosabatidan iborat bo'ladi. Har qanday leksemada bu semalardan "atash" semasi albatta ishtirok etadi. SHuning uchun bu sema leksemaning markaziy semasi, qolgan semalar esa chegara semalar hisoblanadi. Masalan, *gapirmoq*, *do'ng'illamoq* leksemalari bir xil atash semasiga ega bo'lib, ifoda semasi bilan bir-biridan farq qiladi.

Bu jihatdan **so'z** atamasi leksemalardan boshqa birliklarni ham, ya'ni atash semasiga ega bo'lмаган birliklarni ham o'z ichiga oladi. Masalan, *ammo*, *uchun* so'z, lekin leksema emas. Chunki ularning atash semasi mavjud emas. Faqt grammatik ma'noga ega. Demak, so'z grammatik ma'noga ega bo'lган leksemalarni va yordamchi, undov, modal nomlari bilan yuritiluvchi birliklarni o'z ichiga oladi.

Leksema leksik sath birligi sanaladi. U grammaimk ma'no va bu ma'noni ifodalovchi shaklga ega bo'lib, so'zga, ya'ni morfologik birlikka aylanadi. Masalan, *daraxt* "tanadan shoxlanuvchi ko'p yillik o'simlik" atash semasiga ega bo'lishi bilan leksema. Bu leksema otlik, bosh kelishiklik, birlik semalariga va bu semalarni ifodalovchi shakllarga ega bo'lishi bilan so'zga, morfologik birlikka aylanadi.

Ko'rindiki, **leksema** va **so'z** tilning ikki sath birligini ifodalaydi.

---

<sup>1</sup> С е р е б р е н尼 к о в Б. А. О материалистическом подходе к явлениям языка. М., 1983, с. 35.

## X U L O S A

Hozirgi kunda tilning belgilar sistemasi ekanligini deyarli barcha tilshunoslar e'tirof etadilar. Lekin lingvistik belgining tuzilishi masalasida tilshunoslar ikki xil fikr bildiradilar. Ularning biri lingvistik belgi bir tomonlama mohiyatdir, u faqat ifodalanmishni o'z ichiga oladi, desalar, ikkinchi guruh tilshunoslar uning ikki tomonlama mohiyat ekanligini, ifodalovchi va ifodalanmish bir butunligidan iborat ekanligini bayon qiladilar. Til belgisi bilan til birliklari o'rtaсидаги farqli xususiyatlar ham til belgisiga ikki xil yondashuv asosida talqin qilinadi.

Lingvistik belgining monolitaristik yondashuvida til birliklari ifodalovchi va ifodalanmish bir butunligidan tashkil topishi bilan lingvistik belgidan farqlanadi. Bunga muvofiq, faqat ma'noli birloiklarga (so'z – leksema, morfema, sintaksema) til birliklari sanaladi (V.Solnsev). Fonema ma'no ifodalamaganligi uchun til birliklari qatoriga kiritilmaydi.

Lingvistik belgining bilateralistik konsepsiyasida esa, aksincha, ma'noli birliklar lingvistik belgi sanalgani holda, til birliklari real birliklarning (nutq birliklarining) umumlashgan tipi sifatida talqin qilinadi. Bunga muvofiq, fonema lingvistik belgi emas, chunki ma'no ifodalamaydi. Lekin u til birligi, chunki muayyan tovushlarning umumlashgan tipidir. Shuningdek, morfema, leksema, frazema, sintaksemalar ham til birliklari, ularning namoyon bo'lish shakllari esa (allofon, allomorf, alboleks va boshqalar) nutq birliklaridir.

O'zbek tilshunoslida til sathlari alohida-alohida sistemalar sifatida, asosan, o'rganildi. Bu esa uni nutqda namoyon bo'luvchi yaxlit ijtimoiy-psixik substansiya sifatida o'rganish uchun keng imkoniyat va qulay sharoit vujudga kelganligidan dalolat beradi. CHunki har bir nutqiy parchada tilning yondosh barcha sathlari o'z izini qoldiradi, uning voqelanishiga hissa qo'shadi.

Til yaxlit sistema ekan, bunda uning butunlik sifatida o'z tarkibiy qismlarining oddiy arifmetik yig'indisiga teng emasligini esda tutish lozim. Zero,

sistema uchun asosiy shart munosabatlar bo'lib, bu esa, aytilganidek, tarkibiy qismlarning butunlik tashkil etishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Masalan, geometrik figura sifatida kvadrat to'rtta to'g'ri chiziqning yig'indisidangina iborat emas, balki tomonlarning perpendikulyar va parallel munosabatlari hamda bu munosabat ta'sirida tug'iladigan to'g'ri burchaklar kon'yunktsiyasi asosida tiklanadi. Nutqda voqelangan har qanday, deylik, fonetik, lug'aviy, morfologik, sintaktik hodisalardan har birida boshqa sath hodisalari muntazam bo'limgan hamkorlikda harakat qiladi.

SHarq ma'naviyati va madaniyatida, xususan, ilmida, metodologiyaga, aniqrog'i, ilmiy tadqiq metodologiyasiga alohida e'tibor bilan qarashgan. Metodologik tayanchsiz yoki uni uqmagan tadqiqotchi ko'rqa (Navoiyda) yoxud qorong'ulikdagi kishiga (Rumiya) qiyoslanadi.

Tasavvuf dialektikasida bilish borliq va Haq munosabatini anglash asosida tushuntirilar ekan, bunda dastlab ikki – fahmiy va idrokiy bosqichlar farqlanadi. Afsuski, bugungi kunda tasavvufdag'i fahmiy va idrokiy bilimlar va ularning ixtilofi haqidagi ma'lumotlar fanimizga bevosita YEvropa falsafasi asosida kirib keldi. Ma'lum bo'ladiki, zamonaviy falsafadagi dialektik-gnoseologik tadqiq omillari zotan sharq tafakkuri mahsuli – tasavvuf dialektikasidagi bilish kon'cerqiyasidan farq qilmaydi. Demak, milliy istiqlol ilmiy tadqiq jarayonida ilmiy-metodologik qadriyatlar – sharq ma'rifiy adabiyotining dialektik-gnoseologik mag'zidan ham oziqlanish uchun keng imkoniyatlar ochib bergen ekan, undan oqilona foydalanish zarur. Buning esa milliy mafkura takomilidagi roli beqiyos.

Til yaxlitligida leksik sath birligi xususida so'z ketganda, o'zbek tilining o'ziga xos sifatlaridan biri aks etgan leksema tushunchasining lisoniy sistemada tutgan o'rni masalasiga alohida to'xtalish lozim bo'ladi.

Bugungi kungacha o'zbek tili leksemalari flektiv tillar leksemalari qonuniyatlari asosida o'rganib kelindi. Biroq flektiv tillar hodisalaridan farqli o'laroq, o'zbek tili leksemalari mustaqil qo'llanish, ma'no anglatish xossasiga

egaligi bilan ajralib turadi. SHu boisdan o'zbek tili leksemalari talqiniga uni mustaqil qo'llanish xossasiga ega bo'lмаган morfemalardan farqlab yondashish maqsadga muvofiqdir.

O'zbek tilshunosligida leksik hodisalar sistemaviy asoslarda ma'lum darajada o'r ganilgan. SHu boisdan leksik hodisalarda lison va nutqni izchil farqlash masalasida munozarali nuqtalar talaygina. Xususan, ko'chim asosidagi hosila ma'nolarda bu yaqqol ko'zga tashlanadi. SHuning uchun hosila ma'nolarni lisoniy, lisoniylashayotgan va lisoniylashmagan kabi turlarga ajratish mazkur hodisalar talqiniga ma'lum darajada oydinlik kiritadi.

Leksemalarda sememalar ajratilgani, shuningdek, morfologiya va sintaksisda UGMlar tiklangani holda, leksikada bu masala kun tartibiga qo'yilmagan. Bu, bir tomondan, leksik birliklarning boshqa sathlar birliklariga nisbatan miqdoran ko'pligi bo'lsa, ikkinchi tomondan, umumlashtirish yuqori darajasining morfologiyaga «tegib qolishi»dir. Morfologiyadagi so'zlarning kategorial guruhlari esa aslida umumlashgan lug'aviy ma'nolardir. Demak, leksemalarda ULM muammosining qo'yilishi nafaqat leksik, bir vaqtning o'zida morfologik ahamiyatga ham egadir.

Leksema ULMsi uning mohiyati bo'lib, bevosita leksemaning nutqiy xususiyliklardan ajratilgan sifatlari sintezi asosida tiklanadi. Umumiylit va xususiylik munosabati esa murakkab bo'lib, ko'p sememali va bir sememali leksemalarda u turlicha tajalilanadi. Ko'p sememali leksemalarda umumiylit sememalar sintezidan tiklanadi. Bunda semema umumiylit va xususiylik orasidagi oraliq holat sifatida baholanishi lozim. Bir sememali leksemalarda esa umumiylit sememaga teng bo'lib, oraliq ma'no lisonning leksik sathdan quyidagi XLMgacha bo'lgan qavatida o'rinalashadi.

Leksema nutqda voqelanar ekan, bunda umumiylitning xususiylashuvi bir necha oraliq «zina»lar asosida kechadi. OLM deb ataluvchi bu parchalarning farqlanishi va voqelikka aylanishida morfologik va sintaktik sathlar hamkorlik qiladi va bunda ularning «hissa»lari nisbati turlichadir. Masalan, sintaktik qolip

leksemani nutqqa olib kiradi, morfologik vosita uni shakllantiradi. Biroq uning OLMlarini farqlashda goh sintaksis, goh morfologiya ustunlik qiladi, Agar sintaksis leksemani nutqqa olib kirish va uning OLMlarini farqlash imkoniyatiga ega bo'lsa, morfologiya uni shakllantirish bilangina cheklanadi. Sintaksis qolipning vazifasi birlikni nutqqa olib kirish bilangina cheklansa, unda morfologiyaning faolligi ortadi. U endi nafaqat leksemani shakllantirish, balki oraliq bo'g'irlarni farqlash bilan ham mashg'ul bo'ladi.

Morfologik shakllar tadqiqotlarda birmuncha kengroq o'rganilgan. Biroq ularni farqlashda sathlararo munosabatlar masalasini o'rganish ham muhimdir. Morfologik shaklni sintaktik qolip nutqqa olib kiradi va lug'aviy hodisalar deganda ayrim leksemalargina emas, balki, leksemalarning LMGlari, birliklarning kategorial guruhlari ma'nolari ham tushuniladi.

Sintaktik hodisalarning vujudga kelishi, asosan, leksik va morfologik asosdadir. Sintaksisning asosiy birligi bo'lgan gap mohiyatining «mayl-zamon, shaxs-son, tasdiq-inkor ko'rsatkichlari bilan shakllangan mustaqil so'zlar» tarzida ta'riflanishining o'ziyoq bu sathlar orasidagi aloqadorlik darajasini yaqqol namoyon qiladi. Biroq bu sintaksisda u morfologiya va leksikadan xoli qilinsa, hech narsa qolmaydi degan «hayratomuz» to'xtamga olib kelmasligi kerak. Zero, «morfologik shakllangan mustaqil so'z» uchun bulardan tashqari, kesimlik pozitsiyasi ham talab qilinadi. Aks holda «*Qo'ydi-chiqdi eskidan qolgan odan*» kabi birikuvlarda morfologik shakllangan so'z (*qo'ydi-chiqdi*) har doim ham kesim bo'laverar edi.

Sintaksisda semantik-funkcional shakllangan gaplarning vujudga kelishi sof leksik asoslarda bo'lib, sintaktik hodisalar farqlanishida leksika ustuvorlik kasb etadi va buning hisobiga morfologiyaning passivlashishi kuzatiladi.

Sintaktik qoliplarda ham sathlarning hamkorligi muhim rolъ o'ynaydi. Leksika, asosan, sintaktik qoliplarni to'ldirish va ba'zan oraliq qoliplarni farqlash bilan mashg'ul bo'lsa, morfologik vositalar, asosan, qoliplarni shakllantirish va farqlash mas'uliyatini zimmasiga oladi.

Demak, lisoniy sistemaning voqelanishida sathlarning uzviy aloqasi juda zich bo'lib, bunda ularning hamkorligi turli daraja kasb etadi. Leksikaning morfologiya va sintaksis bilan aloqalari nisbatan kuchsiz bo'lsa, morfologiyaning leksika va sintaksis bilan aloqasi o'rtacha, sintaksis uchun esa leksika va morfologiya hamkorligi o'ta muhimdir.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. // Ҳаракатлар стратегияси асосида жадал тараққиёт ва янгиланиш сари. – Т.:Faafur Fулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – 92 б.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини ошириш ва Ўзбекистон ёшлар иттифоқи фаолиятини қўллаб-қувватлаш тўғрисида”ги ПФ-5106-сон Фармони. // “Халқ сўзи” газетаси. 2017 йил 6 июль, 132 (6826)-сон.
3. Мирзиёев Ш.М. “Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлиги гарови” мавзусидаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағищланган тантанали маросимдаги маъruzasi. – Т.: Ўзбекистон, 2017. -48 б.
4. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. –Т.: Ўзбекистон, 2017.– 102 б.
5. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 488 б.
6. Abduazizov A. O'zbek tilining fonologiyasi va morfonologiyasi. – Т.: O'qituvchi, 1992. – 53 б.
7. Abdullayev F. Til qanday rivojlanadi? –Toshkent, 1972.
8. Abdurahmonov X., Mahmudov N. So'z estetikasi. – Т.: Fan, 1981. – 59 б.
9. Апресян Ю.Д. Идеи и методы современной структурной лингвистики. – М.: Просвещение, 1966. – 301 с.
10. Bazarov O. O'zbek tilida darajalanish. Filol. fanlari dokt... diss. avtoref. – Т., 1997. – 51 б.

- 11.Бенвенист Э. Общая лингвистика. -М., 1974.
- 12.Bobokalonov R. O'zbek tilida semantik – funksional shakllangan so'z – gaplar. Filol. fanlari nomz. ...diss. avtoref. – Т., 2000. – 19 b.
- 13.Jabborov N., Ne'matov H. Nazariy bilish metodologiyasi // O'qituvchilar gazetası. – 1989. 3-yanv.
14. Zikrillayev G', Hojieva H. Istiqlol va ona tili qurilishi talqini hamda ta'limi. – Buxoro: Nashriyotsiz, 1998. – 112 b.
- 15 Иванов С.Н. Курс турецкой грамматики. Часть I. – Л.: Изд. ЛГУ, 1975. – 100 с.
- 16.Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. Dorilfunun va pedagogika institutlari talabalari uchun qo'llanma. – Т.: O'qituvchi, 1992. – 256 b.
- 17.Kamolov F. Hozirgi zamon o'zbek tili. Leksika. Fonetika. Grafika va orfografiya. Morfologiya. – Т.: O'zSSR FA nashriyoti, 1957. – 527 b.
- 18 Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – М. – Л.: Изд-во АН СССР, 1960. – 446 с.
- 19 Лайонз Дж. Введение в теоретическую лингвистику / Пер. с англ. – М.: Прогресс, 1978. – 543 с.
- 20 Madaliyev B. Hozirgi o'zbek tilida qo'shma so'zlar. – Т.: Fan, 1966. –184 b.
- 21 Madrahimov I. So'zning serqirraligi va uni tasnif qilish asoslari. Filol. fanlari nomz. ...diss. avtoref. – Т., 1994. – 24 b.
- 22 Mamatov N. O'zbek tilida qo'shma so'zlar. – Т.: Fan, 1982. – 234 b.
- 23 Mahmudov N., Mirtojiyev M. Til va madaniyat. – Т.: O'zbekiston, – 1992. – 110 b.
- 24 Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tili nazariy grammatisasi. – Т.: O'qituvchi, 1995. – 228 b.
- 25 Mengliyev B.R. Morfologik vositalarning ma'noviy xususiyatlari va sintaktik imkoniyatlari. Filol. fanlari nomz. ... diss. avtoref. – Т., 1996.–26 b.

- 26 Nabiyeva D. O’zbek tilida lisoniy birliklarning invariant – variant munosabati [Fonologik sath]. Filol. fanlari nomz. ...diss. avtoref. – T., 1998. – 30 b.
- 27 Ne’matov H. So’z, uning til va nutqdagi o’rni // O’zbek tili va adabiyoti. – 1988. – № 6. – B. 23 – 27.
- 28 Ne’matov H., Begmatov E., Rasulov R. Leksik mikrosistema va uning tadqiq metodikasi // O’zbek tili va adabiyoti. – 1989. – № 6. – B. 39.
- 29 Ne’matov H., Bozorov O. Til va nutq. – T.: O’qituvchi, 1993. – 32 b.
- 30 Ne’matov H., G’ulomov A., Qodirov M., Abduraimova M. Ona tili. 6-sinf uchun darslik. – T.: O’qituvchi, 2000. – 192 b.
- 31 Ne’matov H., Rasulov R. O’zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – T.: O’qituvchi, 1995. – 127 b.
- 32 Ne’matov H., Sayfullaeva R., Qurbonova M. O’zbek tili struktural sintaksisi asoslari. 1-qism. Lisoniy sintaktik qoliplar va valentlik. Filolog talabalar uchun qo’llanma. – T.: Universitet. – 1999. – 56 b.
- 33 Нурмонов А. Проблема системного исследования узбекского языка. – Т.: Фан, 1992. – 152 с.
- 34 Nurmonov A. O’zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. – T.: O’qituvchi, 1990. – 46 b.
- 35 Nurmonov A. So’z haqida so’z // O’zbek tili va adabiyoti. – 1991. – № 5. – B. 67-71.
- 36 Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., S.Solixo’jaeva. O’zbek tilining mazmuniy sintaksisi. – T.: Fan, 1992. – 296 b.
- 37 Nurmonov A., Sarimsoqov B. Til sistemasida so’zning o’rni va so’zlarni turkumlarga ajratish muammolari // O’zbek tili va adabiyoti. – 1995. – № 4. – B.23-26.
- 38 Orifjonova SH. O’zbek tilida lug’aviy darajalanish. Filol. Fanlari nomz. diss... avtoref. – T., 1996. – 21 b.

- 39 Rasulov R., Narziyeva M. Leksikologiyani o'rganish. – T.: O'qituvchi, 1992. – 18 b.
- 40 Rahmatullayev SH. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. Un – tlar va pedinstitutlarning studentlari uchun qo'llanma. – T.:O'qituvchi, 1978.–406 b.
- 41 Rahmatullayev SH. Sememalar mustaqil til birligi // O'zbek tili va adabiyoti. – 1984. – № 5. – B.17-20.
- 42 Sayfullayeva R., Abuzalova M. Gapning eng kichik qurilish qoliplari haqida // O'zbek tili va adabiyoti. – 1991. – № 5. – B. 42-47.
- 43 Saloyev R.B. O'zbek tilida ismi foillar: Filol. fanlari nomz. ... diss. avtoref. – Samarqand, 1994. – 25 b.
- 44 Сепир Э. Язык. – М.: Прогресс, 1934. – 137 с.
- 45 Солнцев В.М. Язык как системно – структурное образование. Изд. 2 – е, дополненное. – М.: Наука, 1977. – 344с.
- 46 Соссюор Фердинанд де. Курс общей лингвистики // Соссюор Ф. де. Труды по языкоznанию. Перевод с франц. – М., 1977. – С. 31-274.
- 47 Usmonov S. Hozirgi o'zbek tilida so'zning morfologik tuzilishi // Nizomiy nomidagi TDPI. Ilmiy asarlar. 42-tom. 1-kitob. Tilshunoslik masalalari. – T., 1972. – 197 b.
- 48 Shahobiddinova SH. O'zbek tili morfologiyasi umumiylig va xususiylik dialektikasi talqinida. Maxsus kurs uchun ma'ruzalar. – Andijon: Nashriyotsiz, 1994. – 34 b.
- 49 O'zbek tili leksikologiyasi. – T.: Fan, 1981. – 315 b.
- 50 G'ulomov A. O'zbek tili morfologiyasiga kirish. O'zbek tili kursidan materiallar. – T.: O'z SSR fanakademnashr, 1953. – 28 b.
- 51 Hojiyev A. Yasama so'z lisoniy birlikmi yoki nutq birligimi // O'zbek tili va adabiyoti, 2004, - № 1. – B. 49-53.
- 52 Hojiyev A. Til qurilishining asosiy birliklari yuzasidan mulohazalar // O'zbek tili va adabiyoti, 2004, - № 3. – B. 49-53.